

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAXSUS
PEDAGOGIKA

Kasb-hunar kollejlari uchun darslik

2-nashr

«NOSHIR»
Toshkent – 2016

UDK 37 (075)
KBK 74.3

M 32 Maxsus pedagogika / L.P. Mo‘minova va boshq. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika un-ti. – Toshkent: Noshir, 2012, 2016. – 128 b.

UDK 37 (075)
KBK 74.3

M u a l l i f l a r j a m o a s i:
Lola Mo‘minova, Mukarram Ayupova,
Dilbar Nurkeldieva, Xurniso Kalbaeva

T a q r i z s h i l a r:
Z.M. Ahmedova – dosent v/b; pedagogika fanlari nomzodi.
F. Muzaffarova – Respublika ta‘lim markazi
Maxsus ta‘lim bo‘limi bosh metodisti

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Ushbu darslikda maxsus pedagogikaning umumiy masalalari, rivojlanishi, intellektida, eshitishida ko‘rishida va nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari, maktabgacha ta‘lim maxsus muassasalari tizimi, fan metodlari, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixologik-pedagogik tavsifi, rivojlanishidagi nuqsonlarning sabablari, rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalash masalalari yoritiladi.

ISBN 978-9943-4083-1-9

© «Noshir» nashriyoti, 2012, 2016.

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash» milliy dasturiga mos ravishda yaratildi. Yangi ishlangan davlat talablari muayyan yoshdagi bolaning rivojlanishi va yutuqlarini baholash darajasi mezonlarini, indiqatorlarini aniqlab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida yoshlarni komil inson, barkamol shaxs qilib tayyorlash, uzluksiz ta‘lim tizimining hamma bosqichlarida yuksak ma‘naviyatli shaxsni shakllantirish pedagogik muammo sifatida o‘rganilmoqda.

Xalqimizning buyuk mutafakkirlari Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy asarlarida sharqona ma‘naviyat va komil insonni tarbiyalash muammolari o‘z aksini topgan.

Insonni ulug‘lash, uning qadriga etish, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularni kamolga etkazish sohasida etuk olimlarimiz bir qancha ishlarni amalga oshirmoqdalar. Bu borada o‘zbek xalq pedagogikasining imkoniyatlari ham nihoyatda kattadir.

Respublikamizda uzluksiz ta‘limni modernizatsiyalash, ta‘limning birinchi bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta‘limdan boshlanadi. «2008-2012 yillarda uzluksiz ta‘lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta‘lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko‘tarish Dasturi»ning asosiy vazifalaridan biri – bolalarni maktabgacha tayyorlashning turli shakl va uslublaridan keng foydalangan holda maktabgacha ta‘limning samaradorligini oshirish, ularga bolalar qamrovini ko‘paytirish, oilaviy ta‘limga e‘tiborni kuchaytirish, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risidagi qonun» hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi» ta'lim-tarbiya, shu jumladan maxsus ta'lim-tarbiya oldiga bir qator vazifalarni qo'ydi. Bular- dan eng muhimlari – ta'limning yangi tizimiga qo'yilgan hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda pedagogika, shu jumladan, maxsus pedagogika fanini yanada taraqqiy ettirish, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyatning faol a'zolariga aylantirish hamda maxsus pedagogika sohasida etuk mutaxassislar tayyorlash- dan iborat. Hozirgi zamon maxsus ta'limning maqsad va vazifalari o'quvlarning milliy g'oya, Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, Prezident asarlari, maxsus ta'limning hozirgi davrdagi ustuvor yo'nalishlari, maxsus pedagogika yo'nalishlarining asos- lariga doir bilim berishdan iborat.

Nuqsonli bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ularning rivojlanishi kechikishi, ruhiy-pedagogik xususiyatlarini chuqur o'rganish va ularni tuzatish, bartaraf etishda tarbiyachi shaxsi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. U quyidagi asosiy sifatlarni o'zida namoyon etishi lozim: nogiron bolalarni sevish, g'amxo'rlik qilish, kasbiga qiziqish; samimiylilik, insonparvarlik, kamtarlik, madaniyatlilik, so'zda va amalda qat'iyatlilik va izchillik, vatanparvarlik, milliy mafkuraga ega bo'lishlik kabilardir.

Shuni ta'kidlash joizki, so'ngi yillarda O'zbekistonda rivojla- nishida nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan e'tibor yanada kuchay- moqda. Ulardagi nuqsonlarni erta aniqlash hamda ta'lim-tarbi- yasi uchun etarli darajada shart-sharoitlar yaratish ishiga alohida diqqat-e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu darslikda maxsus pedagogika fanining umumiy masala- lari, rivojlanishida (intelektida, eshitishida ko'rishida va nutqida) nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari, maktab- gacha ta'lim maxsus muassasalari tizimi, fan metodlari, rivojla- nishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik tavsifi, rivojlanishdagi nuqsonlarning sabablari, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash masalalarini qisqa mazmunda yorit- ishni maqsad qildik.

Mazkur darslik pedagogika kollejarining o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

I BOB. MAKTABGACHA MAXSUS PEDAGOGIKA FANINING UMUMIY MASALALARI

§1. Maktabgacha maxsus pedagogika fanining ob'ekti, predmeti va vazifalari

Maxsus maktabgacha pedagogika – bu nuqsonli yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning maxsus ta'lim ja- rayonini tashkil etish shakllari, metodlari, tamoyillari, qonuni- yatlari mazmunini o'rganadigan fandır.

Maxsus maktabgacha pedagogikaning ob'ekti alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning maktabgacha ta'limi hi- soblanadi.

Maxsus maktabgacha pedagogikaning predmeti – nuqson- li yoki rivojlanishida kamchiligi bor bo'lgan va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi masalalarini nazariy va amaliy o'rganishdir.

Maxsus maktabgacha pedagogikada ta'limi, tarbiyasi va kor- reksion-pedagogik yordami o'rganishi yo'naltirilgan sube'kti alohida ta'lim ehtiyojlariga ega maktabgacha yoshdagi bola shaxsi hisoblanadi.

Fan sifatida maxsus maktabgacha pedagogikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Nuqsonli va rivojlanishda kamshiligi bo'lgan ilk, erta va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tar- biyasining nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqish, o'rganish.

2. Maxsus maktabgacha ta'limning milliy tizimini rivojlan- tirish yo'llarini aniqlash.

3. Nuqsonli va rivojlanishida kamshiligi bor maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiyasiga, defferensial diag- nostikasiga nazariy yondashuvni ishlab chiqish.

4. Nuqsonli va rivojlanishida kamshiligi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish.

5. Maxsus maktabgacha muassasalarning har bir turi uchun talabalarga javob beradigan dasturlarni tuzish yo'llarini aniqlash.

6. Maxsus ta'limni tashkil etishning turli shakllarini izlash va ishlab chiqish.

7. Rivojlanishida psixik kamchiliklari bo'lgan ilk, erta va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan korreksion-pedagogik ishga o'qituvchi-defektologni tayyorlash uchun zarur o'quv-metodik baza yaratish.

Maxsus maktabgacha tarbiyaning asosiy maqsadi – muamoli bolaning maksimal imkoniyatlari va maksimal rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish va uni erta maxsus ta'lim vositalari bilan ijtimoiylashtirish hisoblanadi.

Maxsus maktabgacha ta'lim ilk, erta va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, umumiy, maxsus va pedagogik-psixologik talablarga tayanadi. Umumiy talablar shaxsiy psixologik xususiyatlarni keyingi yosh davriga o'tishda yangitdan yuzaga kelishini va shart-sharoitning shakllanishi hisoblanadi. Turli xil nuqsonli bolalarni psixologik xususiyatlarini rivojlantirishni ko'zda tutadigan adekvat sharoitlarni yaratish maxsus talablarga kiradi. Ular psixik jarayonlar, tafakkur, nuqt va bola faoliyatini korreksiyalash orqali, undagi nuqsonni kompensasiyalash, shuningdek, ijtimoiylashtirish orqali amalga oshiriladi.

Korreksiya (lotincha correction – tuzatish) bu pedagogik psixologik va davolovchi tadbirlar tizimi bo'lib, bolalar xulq-atvoridagi va rivojlanishidagi psixofizik kamchiliklarni yumshatish yoki bartaraf etishga yo'naltiriladi.

Kompensasiya (lotincha compensation – o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) – bu murakkab ko'p qirrali jarayon bo'lib, yo'qotilgan yoki buzilgan funksiyalarni tiklash va almashtirish, shuningdek, o'rnini to'ldirishni o'z ishiga oladi. Kompensasi-

ya jarayonining rivojlanishi natijasida jaroxatlar tufayli yuzaga kelgan nuqsonning o'rnini u yoki bu darajada to'ldiriladi.

Ijtimoiylashtirish – bu, birinchidan, ijtimoiy anglash, ijtimoiy o'quv, ijtimoiy moslashuv va ijtimoiy o'rab turgan voqe'likda o'zini anglashni o'z ishiga oladigan, individ tomonidan ijtimoiy malakalarni faol o'zlashtirish jarayoni va natijalaridir. Ikkinchidan, bu insonni turli xil ijtimoiy birlikdagi ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, ular tomonidan madaniyat elementlari, ijtimoiy me'yorlar va qiymatlarni inson xulq-atvori shakllanishida ishtirok etadigan o'z-o'zini anglash va shaxsiy sifatlarni o'zlashtirishdir.

Maktabgacha korreksion pedagogika fanining metodlari – adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, kuzatish, suhbat-eksperiment (ta'kidlovchi ta'limiy nazorat), olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va izohlash, tibbiy, psixologik-pedagogik hujjatlarni o'rganish, anketa, bola faoliyati natijalarini tahlil qilish va boshqalar.

Bu metodlarni tanlash bolani psixologik-pedagogik o'rganish vazifalari va maqsadlarini qo'yishda uni ijtimoiy rivojlantirish sharoitida va korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir usullarini tanlashda aniqlanadi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarda maxsus ta'lim tizimiga tegishli bolalar kontingentini belgilovshi bir qancha tushunchalar qo'llaniladi. Bular: «Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar», «psixofizik rivojlanishida kamshiligi bor bolalar», «alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar». Bu barcha atamalar maxsus qo'llanish sohasiga ega.

Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar— bular turli yoki bir necha analizatorlar faoliyatining buzilishi natijasida (ko'ruv, eshituv, nutqiy) psixofizik rivojlanishi orqada qolgan, shuningdek, markaziy nerv sistemasining organik jarohatlanishi natijasida rivojlanishdan orqada qolgan bolalar. Bu atama psixologik-pedagogik adabiyotlarda maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun keng qo'llaniladi.

Psixofizik rivojlanishida kamchiligi bor bolalar – yuqorida sanab o'tilgan nuqsonlarga ega bo'ladi, lekin ularning aks et-

tirilishi ular imkoniyatlarini psixofizik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalardek keskin chegaralanmagan. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda bu tushunchalar bilan funksional xarakterdagi psixofizik kamchiliklar bo'lgan bolalar ham belgilanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar – bunday bolalar umumta'lim maktabgacha muassasalarida va maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan maxsus ta'lim metodlari va maxsus korreksion qo'llab quvvatlashga muhtoj bo'ladilar. Bu atama maxsus ta'lim sohasida keng qo'llaniladi. Maktabgacha korreksion pedagogika quyidagi toifa bolalarining ta'lim va tarbiyasi muammolarini hal etadi: intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar, tayanch harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar, hissiy-irodaviy sohasi buzilgan bolalar, shuningdek, erta bolalar autizmi, xulq-atvori va faoliyati buzilgan bolalar, murakkab nuqsonli bolalar.

Savol va topshiriqlar

1. Maxsus pedagogika fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Maxsus pedagogika fanining ob'ekti haqidagi ma'lumotlarni izohlab bering.
3. Maktabgacha maxsus pedagogika fanining metodlarini aytib bering.
4. «Korreksiya» so'zining ma'nosini aytib bering.
5. «Kompensasiya» so'zining ma'nosini aytib bering.
6. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar qanday bolalar?
7. Psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar haqidagi ma'lumotlarni daftaringizga konspekt qiling.

Tayanch tushunchalar

1. **Korreksiya** (lotincha «correction» – tuzatish) bu pedagogik, psixologik va davolovshi tadbirlar tizimi bo'lib, bolalar xulq-atvori-dagi va rivojlanishidagi psixofizik kamchiliklarni yumshatish yoki bartaraf etishga yo'naltiriladi.

2. **Kompensasiya** (lotincha «compensation» – o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) – bu murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, yo'qotilgan yoki buzilgan funksiyalarni tiklash va almashtirish, shuningdek, o'rnini bosishni o'z ishiga oladi.

3. **Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar** – bu turli yoki bir necha analizatorlar faoliyatining buzilishi natijasida psixofizik rivojlanishi (ko'ruv, eshituv, nutqiy) orqada qolgan, shuningdek, markaziy nerv sistemasining organik jarohatlanishi natijasida rivojlanishdan orqada qolgan bolalar.

4. **Psixofizik rivojlanishida kamchiligi bor bolalar** – bu bolalar yuqorida sanab o'tilgan nuqsonlarga ega bo'ladi, lekin ularning aks ettirilishi ular imkoniyatlarini psixofizik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalardek keskin chegaralanmagan. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda bu tushunchalar bilan funksional xarakterdagi psixofizik kamchiliklar bo'lgan bolalar ham belgilanadi.

§2. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning asosiy toifalari.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar toifasiga quyidagilar kiradi:

Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar (aqli zaif bolalar)

«Aqli zaiflik» tushunchasini maxsus psixologiyada bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan bi-lish faoliyatlarining turg'un buzilishi sifatida tushuniladi.

Aqli zaiflikning quyidagi darajalari ajratiladi:

- A) Engil darajadagi aqli zaiflik;
- B) Aqli zaiflikning o'rta darajasi;
- V) Og'ir darajadagi aqli zaiflik;
- G) Chuqur darajadagi aqli zaiflik.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar

A) Ko'rlik (qoldiq ko'ruv esa ko'r bolalar—yaxshi ko'radigan ko'zning ko'ruv o'tkirligi 0,01 dan 0,04 gacha);

B) Zaif ko'ruvchi (ko'zoynak bilan ko'rish korreksiyalan-ganda yaxshi ko'radigan ko'zdagi ko'ruv o'tkirligi 0,05 dan 0,2 gacha, shuningdek, turli xil rivojlanib boruvshi ko'z kasal-liklari natijasida sezilarli darajada ko'ruv o'tkirligi 0,30, 4 ga-cha bo'lishi mumkin);

V) G'ilaylik va ambliopiya (ko'ruv o'tkirligi 0, 4 dan yuqori bo'lan bolalar).

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar

A) karlik (o'rtacha eshituvining yo'qolishi yaxshi eshitadigan quloqda 85 db dan ortiq bo'lgan bolalar);

B) zaif eshituvchilik (eshitish chegarasi 85 db dan kam bo'lishi);

V) kech karlik (3-4 yoshdan keyin eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalar, ularda karlikning kech yuzaga kelishi oqibatida nutq saqlangan bo'ladi).

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar

A) Tizimli nutq buzilishlari (alaliya, afaziya);

B) Nutqiy apparat faoliyati va tuzilishining buzilishi bilan bog'liq kamchiliklar (rinolaliya, dizartiriya, murakkab dislaliya);

V) O'qish va yozma nutq buzilishlari (disleksiya, disgrafiya);

G) Nutqning temp ritmining buzilishi (duduqlanish);

D) Nutqning motiv shakllanishining buzilishi (mutizm).

Savol va topshiriqlar

1. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar toifasiga qanday bolalar kiradi?
2. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'rif bering.
3. Aqli zaiflikning darajalarini aytib bering.
4. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'rif bering.
5. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'rif bering.
6. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'rif bering.

II BOB. MAKTABGACHA YOSHDA GI INTELLEKTIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'QITISH VA TARBIYALASH

§3. Maktabgacha oligofrenopedagogikaning predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'tgan qisqa tarixiy davr mobaynida asrlarga tatigulik ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'z o'rni, obro'si va mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy poydevoriga ega bo'ldi. Mustaqillik yillarida millatlar, elatlar, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini huquqiy muhofaza qilish uchun mustahkam zamin yaratildi.

Yurtboshimizning bevosita rahbarligida aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini, nogiron bolalarni himoya qilishga qaratilgan qator me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etildi. Bularning barchasi kelajagi buyuk bo'lgan yoshlarimizga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin dalilidir.

Har bir davlat, jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli shu davlat, mamalakatda yashovchi fuqarolarning aqliy saviyasi bilan belgilanadi. Shu sababli ko'pincha taraqqiy etgan davlatlar aqlli, idrokli, iqtidorli, qobiliyatli kishilarni o'zga mamlakatlardan olib kelish shoralarini ko'rishgan.

AQShning hozirgi kundagi taraqqiyot darajasiga erishishida ham bu etakchi omillardan birini tashkil etadi.

Shu bilan birga, jamiyatning fan va texnikaning rivojlanishida aql muhim omil va mezonlardan biri bo'lsa, har bir xalqning ma'naviy jihatdan boyligini, axloqan yuksak pog'onada ekanligini, insonparvarligini aniqlovshi mezonlaridan biri – jamiyatda nogironlarga va, shu jumladan, turli

sabablarga ko'ra aqli zaif bo'lib qolgan bolalarga munosabat, diqqat-e'tibordir.

Bular xalq maqollarida, hadislarda, diniy rivoyatlarda etarli darajada o'z ifodasini topgan. Shu sababli ulug' ota-bobolarimiz Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'beklar ham sog'lom avlodni voyaga etkazishga alohida e'tibor qaratganlar.

Jamiyatimizning yangilanishi va demokratlashuvi, O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar munosabati bilan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sifatlarini oshirishga bo'lgan tashkiliy, psixologik-pedagogik hamda metodik yondashuvni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor bilan qaralyapti.

Ta'lim to'g'risidagi «Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishdagi uch bosqichdan biri ijtimoiy himoyaning kafolatlanishi masalasini hal qilish bosqichidir.

O'zbekiston Respublikasining nogironlarga nisbatan olib boriladigan davlat siyosati «O'zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyalaniishi to'g'risida»gi qonuni (1991) bilan belgilanadi. Bu Qonun aholining mazkur guruhiga boshqa fuqarolar bilan teng asosda to'laqonli hayot kechirish, jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashish, shuningdek, o'zining fuqarolik majburiyatlarini bajarishga yordam beradigan imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish maqsadida huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tadbirlar tizimini ko'zda tutadi. Mazkur qonun Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin tez vaqt ishida qabul qilindi va umuman olganda, davlat bilan aholi sog'lig'ini himoya qilish, nogironlikning oldini olish va nogironlarning jamiyat hayotiga singishib ketishlari uchun shart-sharoitlar yaratishga safarbar qilingan ijtimoiy jamiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yadigan dastlabki jiddiy huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Nogironlikning oldini olish maqsadlarining ijobiy hal qilinishi nogironlar hayotini ijtimoiy yaxshilash bo'yicha Davlat

dasturini ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish bilan chambarchas bog'liqdir.

Butun Dunyo sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra dunyoda aqli zaiflar aholining 3 % ini, son jihatdan 10.000 mingdan ortiq kishini tashkil etadi. Bilamizki, rivojlaniashida nuqsoni bo'lgan bolalar orasida ham eng ko'p foizni aqli zaif bolalar tashkil etadi. Chunki aqli zaiflikni keltirib chiqaradigan sabablar juda ko'p.

Aqli zaiflik nima? Aqli zaiflik deganda bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida bilish faoliyatining turg'un pasayishini tushunamiz.

Respublikamizda barcha bolalar ta'lim olish huquqiga ega. Shular qatorida aqli zaif bolalar uchun ham barcha qulayliklarga ega bo'lgan maxsus muassasalar mavjud («Ta'lim to'g'risidagi Qonun», 23-modda).

Maktabgacha tarbiya oligofrenopedagogika kursining predmeti – aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashda nazariy asos hisoblanadi. Bu kursning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- aqli zaif bolaning rivojlanishida korreksion tarbiyaning mohiyatini oshib berish;
- aqli zaif bolalar nuqsonining rivojlanishi va uni bartaraf etish hamda ularni psixik rivojlanishi haqidagi ob'ektiv qonuniyatlarga asoslangan bilimlar bilan talabalarni qurolantirish;
- maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida aqli zaif bolalar hayotini tashkil etish va ularga ta'lim berish metodlari bilan talabalarni yaqindan tanishtirib borish.

Bu kursda asosiy diqqat aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalasiga qaratilgan bo'lib, xuddi shu diagnozdagi bolalar maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarining asosiy kontingenti hisoblanadi.

«Nima uchun «Maktabgacha tarbiya oligofrenopedagogikasi» degan alohida bo'lim ajratilgan va u nega predmet sifatida o'rganiladi?» – degan savollar tug'ilishi mumkin. Chunki maktabgacha yosh davri har bir bolani, shuningdek, nuqsonli,

bolaning har tomonlama rivojlanishida katta ahamiyatga ega adir. Fikrimizga aniqlik kiritish uchun bolalar yoshi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Bolalarning yoshi uch davrga bo'linadi.

1-davr. Go'daklik davri – tug'lgandan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar kiradi.

2-davr. Ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar kiradi.

3-davr. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar kirib, bu davr maktabgacha davri hisoblanadi.

Maktabgacha yoshda bolaning jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishida muhim o'zgarishlar yuz beradi.

Agarda bu davrda bolaning rivojlanishiga yaxshi ahamiyat berilmasa yoki uning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan manbalardan etarlicha foydalanilmasa, buning natijasida kelib chiqqan boladagi kamchiliklarni bartaraf etish juda qiyin bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya nazariyasining rivojlanishida rus olimlari E.A.Arkin, P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev kabi pedagoglar muhim rol o'ynaganlar. Ularning ko'rsatishlaricha, bolaning rivojlanishida o'qitish va tarbiyalash hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Bolaning rivojlanishi bir qator o'zaro bog'liq bo'lgan bosqichlardan o'tadi. Bu bosqichlar kishining yoshi va hayot mazmuni bilan bog'liqdir. Har bir bosqichda kishining bir rivojlanish sikli tugallanadi va uning natijasi ko'rinadi. Bu natija bolaning bundan keyingi kamoloti uchun qulay sharoit yaratadi.

Masalan, ilk yoshda bola turli harakatlar qila biladi, so'zlay oladi, bu esa uning o'sishi natijasidir. Shu bilan birga, uning maktabgacha tarbiya yoshida muvaffaqiyat bilan o'sib borishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Bolaning tevarak-atrofdagi kishilar bilan munosabatda bo'lishi, bilim va tajribalarni egallashi, tevarak-atrofdagi narsalarga bo'lgan munosabatining o'zgarishi uning ulg'ayishini belgilab beruvchi asosiy omillardir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning insoniyat to'plagan boyliklarni o'zlashtirib olishi ularda qobiliyatlarning rivojla-

nishi, ong, his-tuyg'ular, xarakterning irodaviy sifatlari, shaxs axloqining tarkib topishi uchun muhim va zarur bo'lgan shartlaridan biridir. Bolalarning o'sib-ulg'ayishida ularning faoliyati (o'yin, mehnat) katta ahamiyatga ega, o'yin va mehnat jarayonida ular hayot tajribalarini egallaydilar.

Maktabgacha oligofrenopedagogika fani o'zi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan materiallarni taqdim qila oladigan, biri-biriga bog'liq bo'lgan qator fanlarga tayanadi.

Aqli zaiflikning asosiy sababi – markaziy nerv tizimining organik jarohatlanishidir. Shuning uchun maktabgacha oligofrenopedagogika fani bolalarni klinik tomondan o'rganadigan ma'lumotlardan foydalanishi lozim. Nuqsonli bolalarni klinik jihatdan o'rganish haqidagi ma'lumotlarni esa fiziologiya, genetika, psixiatriya, nevroptologiya kabi fanlar o'z ishiga qamrab oladi.

Maktabgacha oligofrenopedagogika fani yana umumiy psixologiya va maxsus psixologiya fani bilan ham chambarchas bog'liqdir. Chunki normal bolalarni, shuningdek, aqli zaif bolalarning ham psixik rivojlanish jarayonini o'rganmasdan turib, ular bilan o'quv va tarbiya ishlarini olib borish mumkin emas.

Maktabgacha oligofrenopedagogika fani umumiy va maxsus oligofrenopedagogika fanining bir sohasi hisoblanadi. Shuning uchun bu fan pedagogika fanining barcha asosiy prinsiplaridan foydalanadi.

Maktabgacha tarbiya oligofrenopedagogikasi metodlari esa quyidagilardir: Kuzatish. Eksperiment. Bolaning rivojlanish tarixini o'rganish. Suhbat.

Kuzatish metodi – bu metod pedagogik jarayon va uning natijalarini o'rganishda passiv hisoblanadi. Bu metod tabiiy sharoitda olib boriladi. Pedagogik tajribalarni umumlashtirishga va o'rganishga imkoniyat yaratadi. Kuzatishni o'tkazish oldindan aniq rejalashtirilgan bo'lishi, hamda uning maqsadi, ob'ekti, aniq vaqti belgilangan bo'lishi lozim.

Eksperiment – bu tekshirishning aktiv metodi hisoblanadi. Bunda eksperimentator uchun kerakli sharoitlarning hammasi yaratib berilishi jozim. Pedagogik fanda eksperiment metodi-

ning vazifasi – bu turli xil pedagogik usullarning bolaga ta’sirini sinab ko’rish va uning effektivlik (samara) darajasini aniqlashdir.

Aqli zaif bolani o’rganishda bolaning rivojlanish tarixini o’rganish juda katta ahamiyatga ega. Bu metod MNS ning jarohatlanish vaqtini va sabablarini aniqlashga hamda bolaning qanday sharoitda o’sganligi va tarbiyalanganligi, bu sharoitlar bolaning rivojlanishiga qanday ta’sir etganligini aniqlashga yordam beradi.

Bola faoliyatini o’rganish ham muhimdir. Bunga qurish-yasash, rasm chizish, yopishtirish, o’yin faoliyatlarini kiritish mumkin. Bu metod orqali biz faqatgina bola psixikasini aniqlab qolmasdan, balki aqli zaif bolaning rivojlanishini u yoki bu o’qitish va tarbiyalash usullarida qanday aks ettirishini ko’rishimiz mumkin.

Suhbat metodidan maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni o’rganishda ularning nutqi rivojlanmay qolganligi sababli etarlicha foydalanish imkoniyati chegaralangan. Ammo maktabgacha oligofrenopedagogika ushbu metod yordamida korreksion – tarbiyaviy jarayonning samaraliligi haqida zarur ma’lumotlarni oladi.

Nazorat savollari

1. Maktabgacha oligofrenopedagogika nimalarni o’rganadi?
2. Maktabgacha oligofrenopedagogika qaysi fanlarga tayanadi?
3. Maktabgacha oligofrenopedagogika qanday metodlardan foydalanadi?

Tayanich tushunchalar

Ta’lim – bolalarni bilim va ko’nikmalar bilan qurollantirish. Onigiga va xulqiga ta’sir etish, bilish faoliyatini rivojlantirish.

Tarbiya – bolalarga ilmiy bilimlar tizimini singdirish va buning natijasida har tomonlama shakllangan kishini tarbiyalash.

Korreksiya – tuzatish, yaxshilash degan ma’noni anglatadi. Nuqsonli bolalarning psixik va jismoniy taraqqiyotidagi kamchiliklarni pedagogik usul va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay yo’qotish.

§4. Aqli zaiflik darajalari

Yengil darajadagi aqli zaiflikning namoyon bo’lishi.

Engil darajadagi aqli zaif bolalar maxsus dastur bo’yicha ta’lim olishlari mumkin. Bu dastur bolalarga matematika, yozuv, o’qish va boshqa predmetlarni ancha oson o’zlashtirishga yordam beradi. Keyinchalik ular kasbiy ko’nikmaga ega bo’lib, ishlab chiqarishda mustaqil mehnat qila oladi.

Engil darajadagi aqli zaif bolalar nutqiy ko’nikmalarini insonlar bilan muloqotlarga sarflaydilar, lekin ularning nutqida fonematik buzilishlar, duduqlanish, so’z boyligining kamligi, so’zlarni yaxshi tushunib etmaslik, ishlatayotgan so’zlarni aniq bilmaslik kabi kamchiliklar yaqqol ko’zga tashlanadi. So’z muloqot sifatida qo’llanilmaydi. Faol so’z boyligi takrorlanadigan so’zlarga to’la. So’z birikmalari grammatik me’yorlardan yiroq, sifat, bog’lovchilar ishlatilmaydi. So’zlari bir bo’g’inli, uzuq-yuluq holda fikrni ifoda etishda qiynaladilar. Bir xil hollarda umumiy nutqiy etishmovchiliklar uchraydi.

Ko’rish, eshitish, hid bilish, ta’im bilish, sezgi organlarining zaiflashuvi, atrof-muhitga bo’lgan moslashishga xalaqit beradi.

Qabul qilishning yaxshi rivojlanmaganligi aqli zaif bolaning atrof-muhit va o’zi haqidagi aniq fikrga kela olmasligini bildiradi.

Ranglarning o’xshashligi, predmetlarning o’zaro farqlanishi, hajmlar noaniq tasavvurga olinadi va analiz, sintez jarayonida xalaqit beradi. Diqqat-e’tibor noaniq, qattiq talab qilingan holda jalb qilish, tez toliqish, chalg’ishga olib keladi. Bu aqli zaif bolaga katta qiyinchiliklar tug’dirib, nafaqat maktab dasturi, hattoki o’zini boshqarishda ham murakkabliklarni tug’diradi.

Xotira zaifligi, eslash qobiliyatining sustligi, tez yoddan chiqarishi, qaytarishning noaniqligiga olib keladi. Shu bilan birga, mexanik xotira yaxshi saqlanadi. Hislari to’la diffrensiyalanmagan. Ular atrof-muhitdagi o’zgarishlarga moyil emas. Ular sekingina kulib qo’yish lozim bo’lganda, xoholab kuldilar. O’zlarining qahr-g’azablarini esa, berkita olmaydilar.

Qiyinchilik bilan qadriyatlar, estetik hissiyotlar shakllanadi. Olgisi kelgan narsadan mahrum bo'lgan paytda, o'zini tiyolmaslik hissi paydo bo'ladi. Kayfiyati odatda muntazam ravishda bir xil emas.

Aqli zaif bolalarda intilish, ehtirolarni jilovlash, qaysarlik, shaxsiy motivlar rivojlanmagan bo'ladi. Harakatlari passiv, tez xulosa chiqara olmaydilar, noo'rin xatti-harakatlari bilan hayotga moslashishlari qiyinlashadi. Ko'p hollarda bunday bolalar o'z-o'ziga xizmat qila oladilar, o'zlari ovqatlanadilar, yuvinib-kiyinadilar, hojatxonaga bora oladilar. Hatto uy-ro'zg'or ishlarida ham qatnashadilar, (garshi juda sekin harakat qilsalar ham).

Ularning hayotga moslashuvi qiyin bo'lgani uchun jamoatchilikdan ajralib turadilar. Psixomotor etishmovchiligi harakatlarning sustligiga olib keladi. Ko'pincha maktab dasturini bajarishda bu yaqqol ko'zga ko'rinib, o'qish, yozishda qiyinchiliklarga uchraydi. Ko'p hollarda engil aqli zaif insonlar mehnatga jalb qilinadilar, ularga ko'p qiyin bo'lmagan vazifalar yuklatiladi.

O'rtacha darajadagi aqli zaiflik. Bu kategoriyadagi insonlarda 3-5 yil aqliy rivojlanish orqada bo'ladi. Tushunish qobiliyati sekin rivojlanadi. To'liq rivojlanish chegaralangan. Ko'pincha nutqiy nuqsonlar kuzatiladi. U uzuq-yuluq, tushunarsiz bo'lib, so'z boyligi kam va ko'p ishlatiladigan so'zlardan iboratdir.

Statik funksiyalarda rivojlanish ancha sust bo'ladi. Aniq harakatlar va temp yo'q, ular noo'rin ishlatiladi, bemor sekin yuguradi, sakrashga qobiliyati bo'lmaydi. Motor etishmovchiligi 90-100 % darajada. Aqli zaiflar hatto o'smirlik davrlarida ham ancha qiyinchiliklar bilan biron-bir muayyan holatda tura oladilar va bu holat ularda bir necha soniyagina davom etishi mumkin.

Ba'zilarida harakatlanish organlari rivojlanmaganligi tufayli harakatlar sust, noo'rin, noqulay kechadi. Ba'zilarida esa harakatlanish organlari juda tinib-tinchimas bo'lib, ularning harakatlari juda betartibli bilan ajralib turadi.

O'z-o'ziga xizmat qilish qobiliyati rivojlanishi natijasida, harakat organlarining ancha zaifligi sababli, ko'pchilikda bar-

moqlarning ishlashi qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan: botinka ipini bog'lash, tugma qadash, lentalarni bog'lash va h.k. Ko'pchilik bolalar umrlarining oxirigacha nazoratda yoki yordamga muhtoj, diqqatlari zaif bo'lib qolishlari mumkin.

Ular jarayonlarga qiyinchilik bilan jalb qilinadilar va ko'p hollarda chalg'ib ketadilar. E'tiborning sustligi olddagi maqsadga erishishga yo'l qo'ymaydi. Shuning uchun har xil o'yinlarda ham betoqatlik tufayli qatnasha olmaydilar.

Aqli zaif bolalarda tasavvur qilish qobiliyati sust bo'ladi. Xotira va eslash, qabul qilish xususiyatlari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi.

Bu toifadagi bolalarning ayrimlari mexanik xotira hisobiga maktab dasturini, ya'ni o'qishni, yozishni, hisoblashni o'zlashtiradilar. Egallagan ko'nikmalarini qiyinchilik bilan tadbiq etadilar. Lekin, shu bilan birga, harakatchan, muloqotga loyiq, atrof-muhitdagilar bilan muomala qila oladilar, ijtimoiy mehnat bilan shug'ullanishlari mumkin.

Bunday inson(variabel)lar testdan o'tganda, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qiladilar. Boshqa sharoitlarda ba'zilar oddiy muomalaga kirisha oladilar, ba'zilar esa faqat elementar muomala-muloqotga, ya'ni eb-ichish, kiyinish, himoyalanih ma'nosidagina vosita sifatida so'zlashadilar. Ba'zilarida nutq umuman rivojlanmagan bo'lib, mimika, jestlar orqali muomalaga kirishadilar.

Yosh bolalarning rivojlanishida oqsash bo'lib, hayotga moslashish uchun tarbiyaviy tadbirlar va tibbiy aralashuvlardan foydalanish shart bo'lib qoladi. Ayrim bunday bolalar mehribon, ayrimlari agressiv, yana birlari qaysar, yolg'onshi, dangasa bo'lib oladilar.

Ko'pchilik bolalarda axloq normalariga to'g'ri kelmagan hodisalarga moyillik tug'ilganida, ulardan impulsiv harakatlarni kutish mumkin.

Ba'zi bir bolalarda epilepsik tashlab yuborish hodisalari uchraydi. Bu parez va paralich holatlariga ham olib kelishi mumkin.

Aqli zaiflik odatda qo'l-oyoq barmoqlari, bosh, teri, tishlar, ko'z, quloq, ichki organlar rivojlanishida patologiyaga olib keli-

shi mumkin. Engil aqli zaiflik boshqa psixik kasalliklarga ham olib keladi. Lekin nutqning rivojlanmaganligi bolani atrofdagi kishilar yonida hamisha xijolatga solib turadi. Ko'pgina aqli zaif bolalar oddiy ishlarni nazorat ostida bajarishlari mumkin. Ular ijtimoiy himoyaga muhtoj toifa hisoblanadi. Ular oila doirasida ham himoyaga muhtojdirlar. Ayniqsa shunisi e'tiborga molikki, qishloq xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchilar orasida aqli zaiflar o'zlarini yaxshi tutib, nazorat ostida mehnat qila oladilar.

Bu borada sog'lom insonlar bilan aqli zaif insonlarning birga yashashlari yaxshi natija beradi. Olim Rudolf Shtayner tomonidan tashkil etilgan shunday uyushma (jamo, lager)lar bor va ular Angliya, Norvegiya, Germaniya kabi mamlakatlarda faoliyat ko'rsatadilar. Ular aqli zaif bolalarning sharoitlarini yaxshilash uchun izlanishlar olib boradilar, bu boradagi tajribalarini targ'ib qiladilar.

Og'ir aqli zaiflik. Og'ir aqli zaiflikda ong rivojlanmagan bo'ladi, bemor hech kim bilan muomala qilolmaydi. Aqliy rivojlanish koeffitsienti 35 dan 20 gacha bunday insonlarda harakat organlari rivojlanmagan darajada, markaziy nerv sistemasida patologiya mavjud bo'ladi. Bu toifadagi insonlarning ko'pchiligi o'z-o'ziga xizmat qilishda ham orqada, hattoki tugma qadash, botinkaning ipini taqishni ham eplay olmaydilar. Ular maktab dasturida ham oddiy bilimlarni egallaydilar, ya'ni o'z-o'ziga xizmat qilish, atrof-muhitda orientir olish – shular jumlasidandir.

Og'ir aqli zaif insonlar mustaqil harakatlanadilar, nutqlari faqat oddiy muomala doirasida, o'zlariga yaxshi munosabatda bo'ladigan insonlarni ular juda yaxshi ajrata oladilar.

Balog'at yoshiga etganda ham ular oddiy, elementar mehnat jarayonlarini bajaraveradilar. Rivojlanishidagi nuqsonlar yaqqol ko'zga tashlana boradi: skelet, bosh miya, qo'l-oyoq, teri qatlami, ichki a'zolar, tana tuzilishidagi patologiya va boshqalar.

Yuqorida ko'rsatilganlarga ko'ra, og'ir aqli zaif insonlar hayotda mustaqil yashay olmaydilar, ular doimo yordamga muhtojdirlar.

Chuqur aqli zaiflik. Ularda diqqat-e'tibor, idrok qilish xususiyatlari, xotira yo'q. Harakat qilish xususiyatlari sust, si-

ydik, axlatlarini tuta olmaydilar. O'zlarini boshqara olmaydilar va yordamga hamisha muhtojdirlar. Nutqda asosiy elementar muomalani kelishtira oladilar, harakatlari xaotik ravishda, qimirlab ketish, doimiy qaltirash xususiyatlari mavjud. Bunday insonlar oddiy harakatlarni bajara oladilar, tashqi yordam orqali ovqat eya olishlari ham mumkin. Ancha og'ir ahvoldagi aqli zaiflar yig'lash, kulish, atrofdagilarni tanishdan yiroq bo'ladi. Diqqatlari yo'q. Atrof-muhitga moslasha olmaydilar. Tashqi ko'rinishlari ham aqli zaiflikdan yaqqol dalolat beradi. Eyish mumkin bo'lgan narsalarni eyish mumkin bo'lmagan narsalardan ajrata olmaydilar. O'z-o'ziga xizmat qilish kobilyati yo'q, nutq va qo'l harakatlarini tushunmaydilar. Qahr, g'azab affektlari ushraydi. O'zlariga-o'zlari zarar etkazish payidan bo'ladilar, ya'ni boshni devorga urish, qo'l-oyoq barmoqlarini tishlash shular jumlasidandir.

Ko'pgina hollarda chuqur aqli zaiflikning sabablari tug'ruq holatidagi patologiya, ona qornidaligida bola miyasiga etkazilgan zararlardir. Shuning uchun nevrologik buzilishlar kasalga ta'sir qiladi. Ba'zi hollarda o'zini bilmaslik, ya'ni epilepsik holatlar uchraydi. Rivojlanishda chuqur somatik poroklar ushraydi. Eshitish va ko'rish qobiliyatining harakatlanish holatlari ham uchrab turadi. Bunday holatlar o'z-o'zini boshqara olmaydigan bemorlarda ko'proq uchraydi.

Shunday qilib, aqli zaiflik patologik holatlarning yig'indisi bo'lib, tug'ruq paytida yoki umrining birinchi yillarida hodisa-voqea tufayli sodir bo'lgan holatlar sababchisidir. Bunday toifadagi insonlar ijtimoiy hayotga moslasha olmasliklari aniq bo'lib, ular doimiy nazorat, ko'mak ostida hayot kechiradilar.

Tayanch tushunchalar:

- Serebral falajlik – bosh miyaning harakat tizimining jarohatlanishi.
- Gidrosefaliya – kalla bo'shlig'ida orqa miya suyuqligining ko'p miqdorda to'planishi natijasidagi kasallik.
- Epilepsiya – tutqanoq – vaqti-vaqti bilan qaytarilib turadigan, tutqanoq tutish bilan namoyon bo'ladigan nerv psixik kasalligi.

- Daun kasalligi – genetik kasallik bo‘lib, bemorning o‘ziga xos tashqi ko‘rinishi bilan xarakterlanadi.

§5. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Aqliy rivojlanishning etishmovshiligi. Bunda asosiy salbiy omillar – bu qiziquvchanlik (orientirovka)ning zaifligi va bolaning yangilikni yaxshi o‘zlashtira olmasligidir. Bu aqli zaiflikning ichki biologik (yadroviy) belgisidir (Vigotskiy L.S. tatqiqotiga qaralsin, 1983 yil).

Oligofreniya bola hayotining dastlabki davrida yoki homila rivojlanishining turli bosqichlarida markaziy nerv sistemasining (asosan bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘ining) jarohatlanishi natijasida yuzaga kelishi tufayli, aqli zaif bolalarning ilk rivojlanishi xususiyatlarini bilish ularning psixik rivojlanishini tushunishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki aqli zaif bolaning rivojlanish qonuniyatlari normal bolaning rivojlanish qonuniyatlariga o‘xshash kechadi. Shuning uchun aqli zaif bolalarni ham umum qabul qilingan yosh davrlariga bo‘lish mumkin. Bunda aqli zaif bolalarning hayot davrlari ham shartli ravishda go‘daklik, ilk yosh va maktabgacha tarbiya, maktab yoshi davrlariga ajratiladi.

Go‘daklik davri (2 oylikdan 1 yoshgacha).

Aqli zaif bolaning rivojlanishi uning birinchi yosh davridanoq normal bolalar rivojlanishidan farq qiladi. Ko‘pchilik oligofren bolalarda bo‘ynini tutish, o‘tirish, turish, yurish kabi holatlarning rivojlanishi kechikib qoladi. Aqli zaif bolalarning tevarak-atrofga bo‘lgan qiziqishining pastligi, ko‘p narsalarga befarqligi kuzatiladi. Normal bola bir oylikka to‘lgash katta yoshdagi kishining yuziga, rangdor va yaltiroq narsalarga uzoq vaqt tikilib turadi. Shuningdek, odamlar bir erdan ikkinchi yerga siljigan vaqtida ularni ko‘zi bilan kuzatib turadi. Aqli zaif bolalarda esa bu holatlar rivojlanmagan bo‘ladi. Shuning uchun bolalar hayotining birinchi kunlaridanoq ularda ko‘rish va eshitish qobiliyatini o‘stirish zarur. Ko‘rish qobiliyati bilan eshitish qobiliyatini o‘stirish – bolalarda umumiy o‘sishi

uchun, tevarak-atrofdagilar bilan munosabatda bo‘lishi uchun, gu-gulashi va harakat qilishi uchun katta ahamiyatga ega-dir. Bu davrda bolalarni turli ovozlarga, kattalarning nutqiga, shaqildoqning, musiqa asbobining ovoziga quloq sola bilishini rivojlantirib borish kerak.

Aqli zaif bola birinchi yashash davrida tanish va begona kishilarni ajrata olmaydi. Bu davrda bola osib qo‘yilgan shaqildoqni ushlab olishga, Uni mahkam tutib turish uchun qo‘lini uzatishga harakat qiladi. Aqli zaif bolada bu jarayonlar ushbu davrda rivojlanmagan bo‘ladi. Aqli zaif bolalarning nutqi normal rivojlanib bormaydi. Bolaning tili chiqishiga yaqinlashib qolishi shunda namoyon bo‘ladiki, bola tez-tez har xil so‘z bo‘g‘inlarini talaffuz qila boshlaydi. Ularni anchagacha takrorlayveradi.

Aqli zaif bolalarda bu jarayonlar kechikib rivojlanadi. Aqli zaif bolalarda artikulyasiya apparati va fonematik eshituvning rivojlanmaganligi bola nutqining rivojlanishi kechikishiga sabab bo‘ladi. Bolalar bu yosh davrida emaklashlari, o‘tirishlari, narsalarni ushlab turishlari lozim. Aqli zaif bolalarda harakat qilish passiv bo‘lib, ular normal tengdoshlariga nisbatan kech emaklaydilar, yuradilar. Aqli zaif bolalar harakatining passivligi ularni jismoniy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Kattalarning rivojlantiruvchi ta‘sirlari amalga oshmaydi. Yaqin rivojlanish zonasi kengaymaydi. Jismoniy imkoniyatlarning va psixik jarayonlarning shakllanishidagi senzitiv davr o‘tib ketadi. Chunki bolalarning harakati, emaklashi tana muskullarining o‘sishiga va harakatlarning uyg‘unlashuviga yordam beradi.

Ilk yoshdagi bolalar (1 yoshdan 3 yoshgacha).

Normal bolalar 2 yoshda yurib ketadilar. Ba‘zi aqli zaif bolalar ham bu yoshda yurib ketishlari mumkin. Lekin ko‘pchilik aqli zaif bolalarda yurish harakatlari juda kechikib rivojlanadi. Ba‘zi bolalarda 3 yoshning oxirlariga kelibgina yurish holatlari kuzatiladi.

Aqli zaif bolalarning harakati normal bolalar harakatidan farq qiladi. Ularda beo‘xshov qadam tashlash, sekin harakatlarni kuzatish mumkin.

Yurishni o'rganish bolaning umumiy psixik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yurishni egallagandan so'ng yangi rivojlanish bosqichi – tevarak atrofdagi predmetlar dunyosi haqidagi axborotlarni o'zlashtirish bosqichi boshlanadi.

Kattalardan mustaqil bo'lib, bola shu vaqtgacha o'zicha tanish bo'lmagan predmetlarni o'rganadi. U amaliy ravishda atrofni kuzatib, yo'nalish va masofa tushuchasini o'zlashtiradi. Ko'pgina predmetlarning xususiyatlari bilan tanishadi.

Bolaning predmet bilan har qanday harakati predmetli harakatga kiravermaydi. Predmetli harakat deb, predmet o'zining funksional vazifasiga muvofiq foydalanishiga aytiladi. Masalan, agarda bola qoshiqni qo'lga olib u bilan stolni taqillatsa – bu predmetli harakat emas, balki manipulyasiyadir, negaki qoshiqning vazifasi boshqa: agarda bola qoshiqdan ovqat eyish uchun foydalansa – bu predmetli harakatdir.

Bu davr aqli zaif bolalarda qanday kechadi? Aqli zaif bolalarda predmetlar dunyosi bilan sof tanishish yuz bermaydi. Ularning ko'pchiligida atrofdagi predmetlar dunyosiga qiziqish quyidagi tarzda namoyon bo'ladi: bolalar nigohi tushgan barcha predmetlarni qo'llariga oladilar, ammo ularning xususiyatlariga, vazifalariga qiziqmaydilar, aqli zaif bolalarning ko'pchiligi kattalar ularning qo'lga bergan predmetlarni ham tashlab yuboraveradilar.

Predmetli faoliyatning rivojlanishi

Normada rivojlanayotgan bolalar hayotining ikkinchi yilida predmetli harakatlarni o'zlashtirish asosida predmetli faoliyat shakllanadi, uchinchi yilida esa bu faoliyat yetakchiga aylanadi. Yetakchi faoliyat sifatida u bolaning psixik rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Predmetli harakatlarning barchasi ham bolaning rivojlanishiga bir xil ta'sir etmaydi. Idrok va tafakkurning rivojlanishiga, so'ngra bolaning nutqini rivojlanishiga «moslashtirish» va «sababli» harakatlar ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

«Moslashtirish harakatlari» deb, predmetlar bilan shunday harakat qilishga aytiladiki, unda bola bir predmetni boshqa

predmetga moslab olishi yoki predmetlarning bir qismini uning xususiyati, belgisiga qarab boshqa predmetga moslashi lozim. Masalan, qutini yopish uchun unga katta – kichikligi va shakliga qarab qopqoq tanlashi lozim. Bunda idrok va tafakkur rivojlanadi. Bizga ma'lum barcha didaktik o'yinchoqlar shunday moslashtirish harakatlari tamoyiliga asoslangan.

Qurolli harakatlar – bu harakatlar jarayonida bir predmet boshqa predmetlarga ta'sir etish uchun foydalaniladi. Qurollar shunday harakatlarni bajarishga yordam beradiki, bunda ularsiz bu harakatlarni bajarish imkoni bo'lmaydi (qoshiq, vilka, qalam, bolg'a, bolta, pichoq, qaychi, nina va hokazo). Harakat asboblaridan foydalanishda bolaning qo'li uni qo'llash mantig'iga bo'ysunadi. Bola manipulyasiya qilayotgan yoki moslashtirish harakatlarini qilishda predmetlarning xususiyatlarini o'z shaxsiy tajribasi asosida anglab borsa, asbobli. qurolli harakatlardan foydalanish usulini kattalardan o'rganishi lozim. Qurolli harakatlarni o'zlashtirib olish bolaning ijtimoiy muhitga moslashishida muhim ahamiyatga ega.

Predmetli faoliyatning yuzaga kelishi davrida normal rivojlanayotgan bolada har bir predmetning tashqi ko'rinishigagina emas, balki uning vazifasiga, qo'llash usuliga qiziqish uyg'onadi (masalan, «bu bilan nima qilish mumkin?» – tarzida) Shu sababli bolalar qo'lga tutgan har bir predmet bilan uzoq vaqt manipulyasiya qiladilar. Bunda bolalarda predmetning nomi va ular bilan qilinadigan harakatlarga qiziqish uyg'onadi. Ilk yoshdagi aqli zaif bolalarda predmetli harakatlar shakllanmaydi. Ularning ba'zilar o'yinchoqlarga qiziqmaydilar. Ularni qo'lga olib manipulyasiya qilmaydilar. Bundan tashqari manipulyasiya noadekvat harakatlar bilan almashtirilib turiladi.

«Noadekvat harakatlar» deb shunday harakatlarga aytiladiki, bunda predmetdan foydalanishda predmetning roli bilan undan foydalanish mantig'iga qarshi harakat qilinadi. Masalan, qo'g'irchoq bilan stolni taqillatish, katta mashinani kichik garajga kirgizishga harakat qilish.

Noadekvat harakatlarning mavjudligi – aqli zaif bolaning xarakterli xususiyatidir.

Ilk yoshdagi aqli zaif bolalarda nutqning shakllanishi uchun zarur bo'lgan dastlabki zaminlar: predmetlar bilan harakat qilish, kattalar bilan hissiy muloqot, artikulyasiya apparatining va fonematik eshitishning tayyorligi. Ko'pchilik ilk yoshdagi aqli zaif bolalarning faol nutqida birinchi so'zlar 2 yoshdan so'ng paydo bo'ladi. Jumlar esa 3 yoshgacha paydo bo'lmaydi. Natijada ilk yoshdagi aqli zaif bolalarda nutq aloqa vositasi va bolaga ijtimoiy tajribani berish vositasi bo'lib xizmat qila olmaydi. Shuningdek, nutq faoliyatni boshqarish funksiyasini ham bag'riga olmaydi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, aqli zaif bolalardagi ba'zi nuqsonlar predmetlar bilan harakat qilishni o'zlashtirishdagi orqada qolish nutqning o'z vaqtida rivojlanmay qolganligi va nuqsonlari, bilish jarayonidagi orqada qolishlar ikkilamchi xarakterga ega bo'ladi. Aqli zaif bolalarning hayotini to'g'ri tashkil etish, maxsus ta'limni erta boshlashda ushbu nuqsonlarning oldini olish va korreksiyalash mumkin.

Bunda bolalarni ba'zi bir uy-ro'zg'or buyumlari va o'yinchoqlardan foydalana bilishga o'rgatish, bularning ko'rish, eshitish va sezish idroklarini o'stirishni davom ettirish, buyumlar va ularning sifati haqida boshlang'ich tasavvurlarni tarkib toptirish, taqlid qilish qobiliyatini o'stirish; tevarak-atrofdagilarning nutqini tushunishni takomillashtirib borish, xatti-harakatning qaror topgan qoidalariga rioya qilishga o'rgatish zarur.

Bolaning kattalar bilan munosabatda bo'lishi uning o'sib borishi uchun hal qiluvshi ahamiyatga egadir. Bolada taqlid qilish qobiliyati o'sib boradi. Bu esa bolaning hamma xatti-harakatlarini takomillashtirib borishi, jumladan, gapira boshlagan paytida va o'yin faoliyatining o'sishida juda katta ahamiyatga egadir.

Tevarak-atrofdagilarning nutqini darrov tushunish qobiliyati aqli zaif bolalarda sekin o'sib boradi. Normal bola 2 yoshda qisqa – qisqa jumlar bilan turli gap bo'laklarini ishlatib,

so'zlay boshlaydilar. Ayrim aqli zaif bolalarda esa 2 yoshda hali nutq shakllanmagan bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi

Bu – bizga ma'lum bo'lgan ilk yoshdagi rivojlanishning davomidir.

Maktabgacha yoshdagi normal bolalarning psixik rivojlantirishida katta o'zgarishlar bo'ladi. Ularda idrok, tafakkur rivojlanib boradi. Aqli zaif bolalarda esa bu psixik jarayonlarning hammasi kechikib rivojlanadi. Ayrim aqli zaif bolalarda bu psixik jarayonlarning rivojlanishi juda sekin sur'atda o'tadi.

Normal bolalar tevarak-atrofdagi kishilarning ish-harakatlarini o'yinlarda mustaqil suratda aks ettira boshlaydilar. Ular birgalikda o'ynaydilar. Normal bolalarni faoliyatning yangi turlariga o'rgatish mumkin bo'lib qoladi. Aqli zaif bolalarda bu jarayonlarni sekinlik bilan rivojlanganligining guvohi bo'lish mumkin.

Aqli zaif bolalarda o'yin faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Aqli zaif bolalarda o'yin faoliyatining rivojlanmaganligining sababi – intellektning buzilganligidir.

4-5 yoshli normal bolalar tevarak-atrofdagi voqelikka nisbatan faol harakatda bo'ladilar. Syujetli, rolli o'yinlarning mazmuni murakkablashib boradi. Bu yoshdagi aqli zaif bolalar esa endigina o'yinchoqlar bilan munosabatda bo'la boshlaydilar.

Aqli zaif bolalarning nutqi ham o'zining normal tengdoshlarinikidan farq qiladi. Ularning birinchi so'zlari 3 yoshda, jumlar esa maktabgacha yoshning oxirlariga borib shakllanadi. Ular nutqiga fonetik va grammatik tomondan ko'p kamchiliklar kuzatiladi. Lug'at boyligi kambag'al, passiv nutqi faol nutqiga nisbatan ustun bo'ladi. Xotira turg'un buzilgan bo'ladi. Aqli zaif bolalarning diqqati tarqoq bo'lib, bir maqsadga qaratilmaydi.

Psixik jihatdan kamol topib borish bir qator yosh davrlarni o'z ichiga oladi, bu davrlarning har birining o'z xususiyati bor. Kamol topib borishdagi yosh davrlarining xususiyatlarini bilish

nihoyatda muhimdir. Chunki shaxsning psixik xususiyatlarining tarkib topishini o'z ichiga oladigan bir butun jarayonda har bir yosh bosqichi undan ilgari bosqichga chambarchas bog'langan bo'ladi. Kamol topib borishning bundan avvalgi har bir bosqichi bamisoli navbatdagi bosqich uchun baza yaratadi. Bolaning kamol topib borishining butun jarayonidagi xalqalardan biri bo'ladi. Biror yosh davrda kamol topib borishning buzilishi navbatdagi davrga muqarrar sur'atda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat savollari:

1. Go'daklik va ilk yosh davrida aqli zaif bolalarning rivojlanishida qanday nuqsonlar kuzatiladi. Bu nuqsonlar ularning keyingi rivojlanishida qanday ahamiyat kasb etadi?
2. Ilk yoshdagi va maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarning motorikasini (mayda va yirik) rivojlanishini tavsiflab bering.
3. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning faoliyati (o'yin, mehnat, rasm chizish va ko'rish, yasash)ning rivojlanish xususiyatlari haqida so'zlab bering.
4. Aqli zaif bolalarning nutqi rivojlanishini tavsiflab bering.
5. Aqli zaif bolalarda idrok, ko'rgazma – harakat va ko'rgazmali, obrazli tafakkur qanday rivojlanadi?

Tayanch tushunchalar:

1. Muammoli vaziyatlar – avvalgi tajribani o'zgartirib, uni qo'llashda yangi yo'llarni topish.
2. Predmetli harakatlar – predmetdan uning funksional vazifasiga ko'ra foydalanish.
3. Artikulyasiya apparati – nutq xosil bo'lishida ishtirok etadigan a'zolar.
4. Fonematik idrok – nutqdagi tovushlarni eshitib, ajratish.

§6. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni maxsus maktabgacha muassasalarga saralash

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maxsus muassasalarga saralashga quyidagilarga e'tibor beriladi: maxsus bog'chaga qabul qilinadigan bolalar maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bo'lishi: ijtimoiy va maishiy jihatdan bolalar jamoasiga oson kirishib ketadigan: tengdoshlar jamoasida xavfsiz zarur elementlar, bilimga ega bo'lishlari, unga qaratilib so'zlangan nutqni tushinishi va o'zining nutqi bo'lishi, shuningdek, somatik jihatdan sog'lom bo'lishlari kerak.

Ma'lumki, bolaning psixik rivojlanishida asosiy rol ni yashash sharoiti o'ynaydi. Unga bog'liq bolaning rivojlanishida bolalar jamoasi katta ahamiyatga ega. Jamoada, tengdoshlari bilan munosabat orqali bolaning bilim doirasi kengayadi, uning xarakteri va xulqi shakllanadi.

Ammo, bolalar jamoasining ta'siri bola psixik jamoada bo'lsagina ta'sir qiladi.

Bizga ma'lumki, agar aqli zaif bola normal rivojlanayotgan tengdoshlari jamoasiga tuchib qolsa, unda o'ziga ishonmaslik paydo bo'ladi, atrofdagilarga befarq bo'lib qoladi. Uning xarakteri va xulqida salbiy sifatlar paydo bo'ladi. Bundan tashqari, pedagogik tomondan maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bola nuqsoniga befarq qarash bu nuqsonlarning chuqurlashishiga olib keladi.

Maxsus bog'chaga qabul qilinadigan bolalar maktabgacha tarbiya yoshida, ya'ni 2 yoshdan kichik emas – 6 yoshdan katta bo'lishlari kerak emas.

Ma'lumki, aqli zaif bola rivojlanishida normal bola rivojlanishidagi bosqichlarni bosib o'tadi. Bola o'sa borishi bilan uning psixik funksiyalarida sifat o'zgarishlari yuz beradi. Shuning uchun yasli yoshidagi aqli zaif bola – bog'cha yoshidagi aqli zaif boladan, bog'cha yoshidagi aqli zaif bola – maktab yoshidagi aqli zaif boladan farq qiladi. Shu sababli qabul qilingan yosh davrlari aqli zaif bolalar uchun ham tegishli hisoblanadi. Aqli zaif bolaning hayoti – go'daklik, yasli, bog'cha, maktab

davrlariga bo'linadi. Maxsus bog'chaga qabul qilinadigan bolalar ijtimoiy-maishiy adaptasiyaga ega bo'lishlari kerak.

Maxsus muassasaga qabul qilingan bola aqli zaif katta bolalar jamoasining a'zosi bo'lib qoladi. Jamoadagi hayot undan maishiy mustaqillikni, o'z istak-xohishlarini, harakatlarini boshqalarga moslashtirishni talab qiladi.

Albatta, aqli zaif bola uchun bu talablar murakkab hisoblanadi. Chunki aqli zaiflik bola rivojlanishidagi barcha tomonlarga, uning shaxsiga ta'sir qiladi. Bularning hammasi o'z navbatida maishiy malakalarning shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Maxsus bog'chalarga aqli zaif bolalar ko'pincha oilalardan kelishadi. Oilada bolani doimo «baxtsiz», «kasal» deb hisoblashardi, shuning uchun u ota-onasining alohida g'amxo'rlik ob'ekti bo'lib qoladi. Unga kattalar tomonidan talablar qo'yilmasligi aqli zaif bolani xudbin qilib qo'yishi mumkin. Maxsus bog'chaga qabul qilinadigan bolalarga qo'yiladigan talablarni 2 guruhga – maishiy va sosial (ijtimoiy) guruhlarga bo'lish mumkin.

Maishiy talablarga quyidagilar kiradi:

1. Maxsus bog'chaga qabul qilinadigan aqli zaif bolada motorika saqlangan bo'lishi lozim, ya'ni jismoniy rivojlanishida nuqsonlar bo'lishiga qaramay, aqli zaif bola mustaqil ravishda predmetni olishi va ushlashi, u bilan sodda manipulyasiyalar qilishni bilishi, yaxshi yurishi, o'tirishi, yozishi, turishi, chaynashi, yutishni bilishi kerak.

2. Maxsus bog'chaga qabul qilinadigan bolalarda maishiy faoliyat shakllangan bo'lishi lozim.

Maxsus bolalar bog'chalarida guruhni komplektlash

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida aqli zaif bolalarni guruhlarga komplektlash turli xil yo'llarda olib boriladi. Xalq ta'limi vazirligiga qarashli maxsus bolalar bog'chalariga aqli zaiflikning engil ko'rinishi bo'lgan debil darajadagi bolalarni qabul qilish 2 asoslangan holda olib boriladi:

1. Yoshiga qarab;

2. Maxsus bog'chada olgan bilim va tarbiyasiga asoslangan holda.

Bir yil dastur bo'yicha o'qitilgandan so'ng guruhlar nomlanadi.

1. Birinchi yil o'qitilayotgan guruh.

2. Ikkinchi yil o'qitilayotgan guruh.

3. Uchinchi yil o'qitilayotgan guruh.

Har bir gruppaga faqat bir xil yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Har bir guruhda 10-12 ta aqli zaif bola bo'ladi. Defektolog mashg'ulot o'tayotgan guruh guruhchalarga bo'linadi. 1-guruhcha kuchli. 2-guruhcha kuchsiz hisoblanib, 1 ta guruhchada defektolog mashg'ulot o'tayotganda, 2-guruhcha bilan tarbiyachi tarbiyaviy ishlarni olib boradi, so'ng guruhchalar almashtirilib defektolog 2-guruhcha bilan mashg'ulotni davom ettiradi. 2 ta guruhchaga bo'lib o'qitishning asosiy maqsadi – aqli zaif bolalarni ta'limga muvaffaqiyatli tayyorlashdir. Shunday qilib, qoida bo'yicha birinchi guruhchada dastur bo'yicha yaxshi o'zlashtiradigan bolalar, ikkinchi guruhchada esa bo'shroq o'zlashtiruvchi bolalar bo'ladi.

Guruhchalarni tashkil qilishga bir oy vaqt ketadi (sentyabr oyi). Bu vaqtda defektolog har bir bolani mukammal o'rganadi va qaysi guruhchaga borishini aniqlaydi.

Nazorat savollari:

1. Respublikamizda aqli zaif bolalar uchun maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari tizimini bilish.

2. Xalq ta'limi vazirligiga va sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida guruhlarni tashkil qilish qanday farq qiladi?

3. Xalq ta'limiga qarashli maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi guruhi uchun tarbiyachi va defektologlarning ish rejasini tuzing.

§7. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni tarbiyalash

Jismoniy tarbiya

«Jismoniy» tarbiya deganda bolalar organizmini tizimli ravishda mustahkamlash, jismoniy chiniqtirish tushuniladi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalash vazifalariga – bolalarning sog'lig'ini saqlash,

ularning organizmlarini chiniqtirish, harakatlarini rivojlantirish, madaniy-gigienik malakalarini tarbiyalash kiradi.

Aqli zaif bolalarning ahvoli asosan markaziy nerv tizimining organik jarohatlanishi natijasida fiziologik, morfologik, bioximik o'zgarishlarning yuzaga kelishi bilan namoyon bo'ladi. Bular bolaning o'zini yomon his qilishi, organizmning umumiy kuchsizlanishi, tez charchashi, nevroz holatlarini yuzaga kelishi bilan ifodalanadi.

Massaj va davolash gimnastikasi maxsus bolalar bog'chasida davolash ishlari bo'yicha asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi.

Aqli zaif bolalar jismoniy tarbiyasining asosiy jihati madaniy-gigienik vazifalarni to'g'ri tashkil etish, bunda shaxsning kamol topishida gigienik malaka va odatda umumiy tarbiya madaniyatining rivojlanishiga asos bo'ladi.

Jismoniy tarbiyaning umum qabul qilingan metodlarini maxsus ish usullari bilan bog'lab olib borish, individual va guruhli mashg'ulotlarni to'g'ri uyg'unlashtirish aqli zaif bolalarning jismoniy tarbiyasini samarali bo'lishiga yordam beradi.

Aqliy tarbiya

Aqliy tarbiya maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi ishining eng muhim, shu bilan birga eng murakkab tomonidir.

Eshitish va ko'rgazmali tasavvurlarning kambag'alligi, o'yin tajribasining juda chegaralanganligi, nutqning ravon rivojlanmaganligi o'z navbatida tafakkurning rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha aqli zaif bolalarning ko'rsatib o'tilgan xususiyatlari maxsus maktabgacha tarbiya muassasasida aqliy tarbiyaning vazifalarini aniqlab beradi.

Bolalarning aqliy tarbiyasi ular tomonidan bilim va fikrlash faoliyati usullarini egallab olishdangina iborat bo'lmasdan, balki shaxsning ma'lum sifatlarini shakllantirishdan ham iboratdir.

Bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash kattalar bilan muloqatda bo'lish, tengdoshlari bilan o'ynash tizimli ta'lim jarayonida amalga oshiriladi.

Aqli zaif bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash bo'yicha korreksion-tarbiyaviy ishlar bolalarda diqqatni va xotirani rivojlan-

tirishga, idrok, tafakkur va diqqatni shakllantirishga qaratiladi. Bu ish maktabgacha tarbiya muassasasida – kundalik hayotda tevarak-atrof bilan tanishishda barcha bolalar faoliyatini shakllantirish jarayonida va nutq o'stirish, oddiy matematik tasavvurlarni shakllantirish, mashg'ulotlarda o'yinga o'rgatish, tasviriy faoliyat, o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirishda amalga oshiriladi.

Aqliy tarbiyada tevarak-atrof haqidagi bilimlarning roli

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tarbiyasi faqatgina bilish jarayonlarini – idrok, tasavvur, tafakkurning rivojlanishidan iboratgina bo'lmasdan, balki uning mazmuniga bolalarda ma'lum hajmdagi bilimlarni shakllantirish ham kiradi. Bu bilimlar bolalarga atrof-hayotda moslashishga, elementar munosabatlarni va o'zaro aloqadorlikni tushunishga imkon beradi.

Aqli zaif bolalarda atrof, dunyo haqidagi bilim va tasavvurlarining stixiyali ravishda to'planishi aqliy rivojlanishning manbai bo'la olmaydi. Shuning uchun aqli zaif bola bilimlarini egallashda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Ta'lim aqli zaif bola o'zlashtirib olgan bilimlarini tizimga yo'naltiradi va bolaning aqliy rivojlanishi uchun yordam beradi.

Pedagog va tarbiyachilar maktabgacha tarbiya muassasasida butun hayot va faoliyat jarayonida bolalarga tevarak-atrof haqidagi bilimlarni beradilar. Bu jarayonda alohida rolni mashg'ulotlar, kuzatishlar va maxsus tashkil etilgan bolalar faoliyati o'ynaydi.

Har bir mashg'ulot turi va har bir faoliyat turi bolaning aqliy rivojlanishga o'zining alohida hissasini qo'shadi.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlari bolalarning bilim tizimiga va shuningdek bilish jarayoniga ijobiy ta'sir etib, ularni rivojlantiradi.

Matematik tasavvurlarni rivojlantirish – maktabgacha yoshdagi bolalarning predmetlar o'rtasidagi son va sifat munosabatlarini bilib olishlariga asoslanadi. Bunday munosabatlarni bolalar taqqoslashni, solishtirishni, (predmetlar va pred-

metlar guruhini) o'rganib olganlaridan so'ng tushunishlari mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolaning tizimli bilimlar olishini ta'minlovshi maxsus bo'limlardan biri – tevarak-atrof bilan tanishtirishdir.

Tevarak-atrof bilan tanishtirish turli yo'nalishlarida olib boriladi. Bu jonsiz tabiat, jonli tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishtirishdir.

Tevarak-atrof bilan tanishtirishda aqli zaif bolalarning ijtimoiy hodisalar haqidagi tafakkurlarni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Bunda avval bolalarda o'zi haqidagi tasavvurlarini (bolalarning o'zlarini rasmdan tanishga, o'z ismini, gavda va yuz qismlarini aytishga o'rgatish) yuzaga keltiriladi.

Shuningdek, bolalarda oilasi haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga katta ahamiyat beriladi.

Aqli zaif bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalashda, bilim jarayonlarini rivojlantirishda bolalar faoliyatining barcha turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Faoliyatning barcha turlari tashkil etilgandi umumiy aqliy malakalarini rejalashtirish, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishni shakllantirishga olib keladi. Bularsiz o'quv faoliyatining shakllanmasligi esa barchaga ayon.

Bolaning aqliy tarbiyasida nutqning rivojlanishi katta ahamiyatga ega.

Axloqiy tarbiya

Axloqiy tarbiya – shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U bolalarga axloqiy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning axloqiy his-tuyg'u va sifatlarini, ijobiy munosabatlar va xulq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan jarayondir.

Maktabgacha aqli zaif bolalarning axloqiy tarbiyasi ularda to'g'ri xulq malakalarini o'zlashtirishni, shaxsiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Aqli zaif bolalarda axloqiy tasavvurlarning to'g'ri shakllanishi uchun hamma sharoitlarda bunday holatlarga bolalarning diqqatini qaratish, yordamni tashkil etish, tahlil qilish lozim.

Bundan tashqari, mashg'ulotlar jarayonida bolalar olgan axloqiy tasavvurlarini amalda maxsus sharoitda, axloqiy his-tuyg'ularni amalga oshirish yanada qiyinchilik bilan kechadi. Aqli zaif bolalarda adekvat axloqiy his-tuyg'ular faqatgina to'g'ri va tushunilgan axloqiy tasavvurlar asosida paydo bo'ladi. Ular sharoitni to'g'ri baholash bilan bog'liq. Ba'zan maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda sharoitni baholash noto'g'ri kechadi.

Masalan, gruppaga yangi qiz kelganda, onasi ketgani uchun yig'lagan vaqtda bolalar ovutish o'rniga, uni «yomon qiz» deb ustidan kulishadi.

Bolalar bu jarayonni «yig'lash yomon» deb o'zlashtirganliklari uchun bu sharoitni tahlil qila olmaydilar. Shuning uchun ularda to'g'ri axloqiy his-tuyg'ular va odatlar paydo bo'lmaydi. Tarbiyachi va pedagoglar bolalar bilan birga aniq holatlarni ularning haqiqiy ma'nosiga e'tibor bergan holda doimo tahlil qilib borishlari kerak.

Bunday har bir holat muhokamaga qo'yilib, baholanishi lozim.

Ayniqsa bunday holatlar maktabgacha muassasalarda bolalar jamoasiga kirganlar uchun muhimdir.

Jamoaga kirish ikki yo'l bilan olib boriladi. Bir tomondan. kundalik xulqi va jamoa mashg'ulotlarida bolalar jamoa faoliyati qatnashshilari hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, jamoadagi o'zaro munosabat bolaning erkin faoliyatida namoyon bo'ladi.

Avval bolalar kattalar tomonidan tashkil etilgan faoliyatda jamoadagi o'zaro munosabatga o'rganadilar. Dastlabki bosqichda bolalar birga ovqatlanayotgan paytda stolda bir-biriga xalaqit bermay, o'zining likopchasidan ovqat eyishni, boshqa likopchaga qo'l sho'zmaslikni o'rganishadi. Masalan, bolalar yangi kelgan paytlarida yonidagi o'rtog'ining ham ovqatini eb qo'yish holatlari kuzatiladi. Bolalar tarbiyachining butun jamoaga qaratilgan umumiy ko'rsatmasiga amal qilmaydilar. Agar tarbiyachi: «bolalar, hamma mening yonimga kelsin!» deb murojaat qilsa, bolalar o'z joylaridan siljmaydilar. Bun-

day holda, bolalarning ismini alohida aytib chaqirish kerak. («Azim, Adham, Odil, Maqsud, mening yonimga keling!»).

Bu hol ko'pga sho'zilmaydi, bir oyga yaqin vaqt ichida bola tezda kattalar talabiga ko'nikadi. Vaqt o'tishi bilan ish shakllari va talablar o'zgaradi. Bolalar nafaqat yonida birga yurishga, balki, tarbiyachini birgalikda harakat qilishga ham o'rganadilar.

Bu ham mashg'ulot jarayonida kattalar nazorati va boshqaruvi asosida olib boriladi. Asosiy o'rinni maishiy, tabiatdagi mehnat egallaydi. Bu mashg'ulotlarni boshlashdan avval umumiy mehnat hamda har bir bolaga talab va vazifalarni bo'lib berish kerak. Ish oxirida barcha olingan natija baholanishi kerak. Birgalikdagi faoliyat va undagi o'z rolini tushunish aqli zaif bolalarda tezda o'zlashtirilmaydi. Bu ish maqsadga qaratilgan va asta-sekinlikni talab qiladi. Masalan, ikkinchi o'quv yilining oxirida tarbiyachi bolalarga vazifa beradi: «Ko'cha ko'ramiz». Har bir bola bu ko'chada o'z uyini qurishi kerak. Avval bolalar umumiy vazifani tushunishmaydi. Faqatgina o'zining vazifasini fahmlaydilar. Uy qurayotganda ular bir-biriga xalaqit berishadi. Lekin ular o'zlarining uylarini ikki qo'l bilan himoya qiladilar. Tarbiyachi qurilishni to'xtatib, yana bir bor bolalarga umumiy vazifani – ya'ni, ko'cha qurilishi uchun hamma uylar bo'lishi kerakligini tushuntiradi. Shundan so'ng bolalarning xulqi o'zgaradi. Ko'cha tayyor bo'lganidan keyin tarbiyachi ko'rkam ko'cha paydo bo'lganligini va buning sababi hamma bolalarning birgalikda do'stona harakat qilganligini aytib o'tadi. Kattalar tomonidan tashkil qilingan jamoa faoliyati bilan bir qatorda bolalarning birgalikdagi erkin faoliyati ham paydo bo'ladi.

Birinchidan u birlikdagi o'yinda paydo bo'ladi. Aqli zaif bolalar avval birga o'ynamaydilar. Birga o'ynashayotganda ular ko'pincha bir-biridan o'yinchoqlarni olib qo'yishadi, ko'rgan narsalarni buzishadi va hokazo. Shuning uchun bolalarni avvalo tinch o'ynashga, bir-biriga xalaqit bermasdan o'ynashga o'rgatish kerak. Asta-sekin bolalar nafaqat yonma-yon harakat qilibgina qolmay, balki birgalikda o'ynashni boshlaydilar.

Axloqiy tarbiya bolaning erkin hissiy doiralarini shakllantiradi. Bolaning o'qishi, mehnat qilishi, jamoada o'zini to'g'ri tutishi uchun, uning erkin sifatlarini, ya'ni maqsadga qaratilgan holda harakat qilish kabi sifatlarini tarbiyalash kerak. Yuqoridagi hamma sifatlar bolaning maxsus muassasaga kelishining birinchi kunidanoq tarbiyalanadi. Agar butun ta'limiy-tarbiyaviy jarayon to'g'ri olib borilsa, unda bolalarning maqsadga qaratilgan faoliyatini shakllantirish uchun hesh qanday maxsus ta'limiy ishlar, kattalar va tengdoshlari tomonidan qo'yilgan baholarga to'g'ri mutosabatda bo'lishi, shuningdek, o'zini-o'zi baholashni o'tkazishning xojati bo'lmaydi. Agar ta'lim vazifalari to'g'ri tanlansa, unda tarbiyachi yoki pedagog rahbarligida bolalar ishini oxiriga etkazadi, bu esa ularda birinchi asosiy maqsadga qaratilgan faoliyatini vujudga keltiradi.

Mehnat tarbiyasi

Mehnat ijtimoiy taraqqiyotning manbai. Barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishning asosiy shart-sharoiti ham. Shu bilan birga, inson hayotiy faoliyatining asosiy shaklidir. Kishi hayotining mazmuni va har bir jamiyat a'zosining vazifasi, shaxs taraqqiyotining asosidir.

Axloqiy tarbiyaning eng asosiy vazifalaridan biri ham mehnatga tayyorgarlikni tarbiyalashdir. Mehnatsevarlik, mehnat qilishga intilish kabi sifatlarini maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarga ham singdirib borish zarur.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarning mehnat tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iborat: aqli zaif bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish, mehnatni qadrlash, mehnat kishilarini hurmatlash, qadrlash, mehnatga qiziqishni tarbiyalash, dastlabki mehnat malakasi va ko'nikmalarini shakllantirish, mehnatga havas uyg'otish, mehnatsevarlik, saranjom-sarishtalik, tejamkorlikni tarbiyalashdir. Jamoaviy mehnatda do'stona o'zaro munosabatni, jamoada ishlay bilish, o'zaro yordamlashishni tarbiyalash lozim.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida mehnat tarbiyasi ikki yo'nalishda olib boriladi. Bir tomondan, bolalarni

kattalarning mehnati bilan, mehnatning jamiyatdagi roli bilan tanishtiriladi, kattalarning mehnatiga hurmat hislari tarbiyalanadi. Boshqa tomondan, mehnat tarbiyasi bolalarning amaliy faoliyatini tashkil etishda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirish qo'l mehnati mashg'ulotlarida, maishiy xizmat va tabiatda mehnat qilishda olib boriladi.

Bolalar bog'chasi dasturida bu umumiy masalalar yosh gruppalari bo'yicha belgilab olinadi.

Maxsus bolalar bog'chalarida mehnat tarbiyasiga quyidagilar kiradi:

1. Qo'l mehnati mashg'ulotlari.
2. O'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini tarbiyalash.

Qo'l mehnati mashg'ulotlari maxsus bolalar bog'chasida aqli zaif bolalarga ta'lim-tarbiya berishning eng muhim bo'limi hisoblanadi.

Qo'l mehnati bilan ishlashga: applikasiya, qurish-yasash, tabiat materiallari bilan mashq qilishlar kiradi. Kichik yoshdagi aqli zaif bolalar uchun engil qo'l mehnati bu – applikasiya yo-pishtirishdir. Shuning uchun ko'rsatilgan faoliyat turlari maxsus bog'chalarda kichik gruppalarning birinchi yilida qo'llaniladi. Keyinchalik katta gruppalarda tabiat materiallari, daraxt, fabrikatlar bilan ishlash va konstruktorlik mashg'ulotlari bilan tugatiladi.

Qo'l mehnati mashg'ulotlarida aqli zaif bolalar vazifalarini oldin namuna bo'yicha, so'ng mustaqil bajaradilar. Mashg'ulot davomida aqli zaif bolalar qurilish materiallari: qum, tuproq, qor, plastilin, qog'oz, daraxt bilan tanishadilar. Ularning xususiyatlarini o'rganadilar. Oddiy mehnat qurollari bilan engil mashqlarni qilishni o'rganadilar. Qo'l mehnati mashg'ulotlari bolalar motorikasini shakllantiradi va mayda qo'l muskullarini rivojlantiradi. Qo'l mehnati mashg'ulotlari aqli zaif bolalarning aqliy taraqqiyot va shaxs xususiyatlari rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlar aqli zaif bolalarda o'z mehnatini sevish, tashkiliy mehnatini o'zlashtirish qobiliyatlarini shakllantiradi. O'z-o'ziga xizmat qilish malakasini tarbiyalaydi.

O'z-o'ziga xizmat qilish bolalar mehnatini tashkil etish shakl sifatida barcha gruppalarda qo'llaniladi. U kun tartibidagi jarayonlarda: ovqatlanish, uyqu oldidan sayrga chiqish va undan qaytgash, kiyinib-yechinish, uyquga tayyorlanish, o'zini va kiyim-kechakni ozoda tutish ishlarini bajarish bilan chambarchas bog'liqdir.

O'z-o'ziga xizmat etish jarayonida bolalarda mustaqillik, mehnat qilishga urinish odati, ozodalik, saranjom-sarishtalik, buyumlarga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish xususiyatlari tarbiyalanadi.

Mustaqil kiyinish, yechinish, qoshiqni to'g'ri ushlash, undan foydalanishda kichik yoshdagi aqli zaif bolalar qiynaladilar. Yechinish, kiyinish malakalarini shakllantirish eng oddiy mehnat faoliyatidan boshlanishi lozim. Buning uchun bola foydalanadigan narsalar, kiyimlar mavsumga, bola razmeriga to'g'ri kelishi, qulay, oson eshiladigan, taqiladigan bo'lishi kerak.

Aqli zaif bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatish, uncha qiyn bo'lmagan harakatlardan boshlash kerak, ya'ni paltolarni, oyoq kiyimini olib kelish va o'z joyiga olib borib qo'yish kabilar. So'ng bu operatsiyalar murakkablashtirib boriladi. Tarbiyachi bolaga paypog'ini kiyayotganida oyoqni qanday tutish kerakligini ko'rsatadi. So'ng bola bu harakatlarni mustaqil bajarishi kerak bo'ladi. Agarda kichikintoy bu vazifalarni bajarishda qiynalsa, tarbiyachi unga bu vazifalarni bajarishda yordam beradi.

O'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirishda didaktik o'yinlar asosiy rol o'ynaydi.

Yil o'tgan sayin bolalar ulg'ayadilar va bog'cha tartiblariga ko'nikib boradilar. Katta gruppaga o'tganlaridan so'ng ular bajaradigan vazifalar murakkablashib boradi, ya'ni ular o'z-o'ziga xizmat qilishda – yechinish, kiyinish, tugmani taqish, botinka ipini bog'lash. O'rtog'iga tugma qadashda yordam berish, kiyimlardagi tartibsizlik va noqulaylikni sezish, kiyimlarni va oyoq kiyimlarini saqlashni, yuvinishda va ovqatlanishda kiyimlarini iflos qilmaslik, kiyimlarini o'z joyiga taxlashni, joylab qo'ya olishni bilishlari kerak. Bolalarga uyqudan oldin,

ovqatlanishdan oldin, ertalab qo'l va yuzni yuvish o'rgatiladi. Aqli zaif bolalar yuvinish tartibini, bulardan tashqari, mustaqil ovqatlanishlari va tishlarini yuvishni bilishlari kerak.

Estetik tarbiya

Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo'lib unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabatni tarbiyalash kabi jarayonlar kiradi. Estetik tarbiya o'z navbatida bolalarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismi hisoblanadi. U ayniqsa axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liqdir.

San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning hayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi.

Estetik ehtiyoj bolalarni go'zallik to'g'risidagi fanning rivojlanishi qonuniyatlarini yanada chuqurroq o'rgatishga undaydi. «Estetik tarbiya» tushunchasi bilan bir qatorda «badiiy tarbiya» tushunchasi ham mavjuddir.

Bolalardagi estetik tasavvurning o'ziga xosligi shundaki, idrokning boshqa turlariga qaraganda narsalarni his qilish shakli – «ko'rinadigan» va «eshitiladigan» narsalar butunlay boshqa mazmun kasb etadi. Oddiy idrokda narsalarning ko'rinishi, ohangdorligi unchalik muhim bo'lmay, balki ularning ahamiyati muhimdir. Estetik idrok qilishda esa eng muhimi – idrok qilayotgan narsaning obrazi. Uning ifodali tomonlarini, nozik ranglarini ko'ra bilish talab qilinadi. Shuning uchun estetik tarbiya yuqori darajadagi sensor madaniyatning, kuzatuvchanlikning rivojlangan bo'lishini talab etadi.

Estetik kechinmalarda doimo xayol ishtirok etadi, busiz go'zallikni idrok etish ham, ijodiy faoliyatni rivojlantirish ham mumkin emas.

O'yin, rasm chizish, ertak eshitish xayolning ishlashini talab etadi tasavvurini boyitadi.

Maxsus bolalar bog'chasida estetik tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik turmush malakalarini shakllantirish.

2. Estetik idrokni, hayot va uni o'rab turgan tabiatga qiziqishni uyg'otish.

3. Bolalarda ixtirochilik qobiliyatini uyg'otish va rivojlantirish.

Yordamchi maxsus bolalar bog'chasida estetik tarbiya vositalariga: estetik maishiy xonalar, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlar, tabiat, san'at asarlari, bolalarning ixtirochilik faoliyatlari, musiqa mashg'ulotlari, bayramlar va sayllar bilan tarbiyalar kiradi.

Aqli zaif bolalarga estetik tarbiya berishdagi qiyinchiliklar: bu intellektni pastligi, kambag'alligi, hislarning etilmaganligi, motor buzilish va badiiy ijodiyotga qobiliyatsizligidir.

Estetik idrokni rivojlantirishda, estetik odatlarni shakllantirishda asosiy rolni albatta pedagog o'ynaydi. Tevarak-atrofdagi sharoit estetik talablarga to'g'ri kelishi, bolalar diqqatni tabiat go'zalligiga torta bilishi lozim.

Aqli zaif bolalarning badiiy asarlardan estetik zavq olish, ularning tashqi ko'rinishiga diqqatlarini jalb etish, ularning toza va qulay kiyinishi, har bir ishni chiroyli va toza bajarishni, musiqa va ixtirochilik faoliyatini rivojlantirishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning estetik hissini rivojlantirishda muhim narsa – bu ularda rasm bilan ishlash malakalarini shakllantirishdir. Maxsus bolalar bog'chasida ta'lim faoliyati tayyorlov bosqichidan boshlanadi. Bu bosqich bolalar kichik guruhga kelganlaridan boshlanib, to'rt oy davom etadi. Ta'limning maqsadi – bolalarda ixtirochilik faoliyatiga qiziqish uyg'otishdir. Bolalarga rasmdagi narsa real buyumning tasviri ekanligini ko'rsatish, aqli zaif bolalarning har xil ixtirochilik faoliyatida ishlatiladigan materiallar bilan tanishtirish, maxsus mashqlar orqali bolalarda mayda qo'l muskullarini rivojlantirishdan iboratdir. Bu bosqichda pedagog 5-6 bola bilan ishlaydi.

O'yin – bu 10-15 minut davom etadigan mashg'ulot, O'yin quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Tasvirlanadigan buyumni ko'rsatish.
2. Yasama materialning pedagog tomonidan bajarilishi.
3. Tayyorlangan yasamani o'ynash.

Birinchi bosqich – mashg'ulotning maqsadi tasvirlangan buyumga bolani diqqat va qiziqishini uyg'otish va qaratish. Shuning uchun tasvirlanayotgan ob'ekt shakli, rangi bilan bolalarga tanish bo'lishi kerak. Masalan: sharlar, bayroqlar, tabiiy narsalar, sabzavotlar, mevalar tasviri.

Buyumlarni ko'rsatish va tanishtirish o'yin shaklida olib boriladi. O'yin jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, o'sha buyum bolalarning qo'lidan bir necha marta o'tishi lozim.

Ikkinchi bosqich mashg'ulotlarida pedagog tomonidan bajarilishida ikki moment asosiy o'rin egallaydi. Yasamani yasashda pedagog bajariladigan ishlarni so'zlar bilan tasvirlab bolalarni ham shu ishlarga jalb qiladi.

Ikkinchi bosqichning maqsadi: bolalarga mana shu yasalgan yasama buyumning real tasviri ekanligini ko'rsatishdir. Buning uchun quyidagi usullar qo'llaniladi. Yasamaga qarab real buyumlarni topish, 2-3 ta buyum ishidan yasama tasvirlangan buyumni topish. O'sha buyum tagiga yasamani qo'yish.

Birinchi tanishishdan keyin bo'sh soatlarda chizish, yopishtirish va konstruksiya (yig'ish) ishlari topshiriladi. Pedagog bolalarga qog'oz, qalam, plastilin va boshqa materiallar tarqatadi. Ular bilan birga, yo'l, qor, tutun, aylana va boshqa narsalarni chizadi. Bu narsalarni chizish bolalarga har xil harakatlarni bajarishga imkon beradi.

Mashg'ulotlar sxemasi quyidagisha:

1. Tasvirlangan predmetlarga bolalar diqqatini tortish.
2. Predmetlarni bo'laklarga bo'lib, tahlil qilib tekshirish, uning xarakterli xususiyatlarini oshib berish.
3. Elementar konstruktorlash yordamida predmetlarni ko'ra bilish.
4. Applikasiya, yopishtirish, rasmlarini chizish usullarini ko'rsatish va so'zlab berish. Qalam, plastilin, mo'yqalam bilan ishlash usullari va harakatlarini bajarishdagi xarakterli mashqlar.

5. Yasamaning ketma-ket bajarilishini ko'rsatish va so'zlab berish. Mashqlarni bolalar bilan birgalikda bajarish.

6. Tayyor yasamani o'yinda qo'llash.

7. Xulosa chiqarish va rag'batlantirish.

Avvalgidek, mashg'ulotlar davomida katta kishilar nutqi asosiy rol o'ynaydi. Bolalar maxsus terminlar bilan tanishtiriladi.

Aqli zaif bolalarda har xil predmetlar rasmini chizish turli xil qiyinchiliklarga olib keladi. Shuning uchun applikasiya yopishtirishga qaraganda rasm chizish chegaralangandir.

Musiqiy tarbiya

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarga estetik tarbiya berishda musiqa mashg'ulotlari ham katta ahamiyatga ega. Bu mashg'ulotlarni guruh tarbiyachisi bilan birga musiqa xodimi olib boradi. Musiqiy tarbiya ishlarida korreksion-tarbiyaviy ishlar amalga oshadi. Musiqiy-korreksion tarbiya ishlariga quyidagilar kiradi: bolaning eshitish idrokini o'stirish, musiqa ritmlarini his qilishni o'stirish, ashula aytishni hamda musiqali harakatlarni tarbiyalab borish. Bu ishlar individual va frontal mashqlar asosida o'tkaziladi. Musiqa xodimi katta guruh bolalari bilan haftada ikki marta frontal mashg'ulot o'tkazadi.

Bog'chada musiqadan individual mashg'ulotlar esa bir oyda 2-4 marta o'tkaziladi. Bolalarni estetik tarbiyalashning ijodiy hisoboti sifatida «Bayram ertaliklari» o'tkaziladi. Om-maviy bog'chalar kabi maxsus bog'chalarda ham umuman xalq bayramlarini o'tkazish an'anaga aylanib qoldi. Bayramlarni nishonlash uchun o'tkaziladigan «Bayram ertaklari» aqli zaif bolalarda Vatanga mehr-muhabbat va xalqona urf-odatlariga hurmat malakalarini rivojlantirish, shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga aqli zaif bolalar jamoaga o'rganadi. Ular xursandshilik kayfiyatlarini, mamnunlik tuyg'ularini his qilishga ham o'rganib boradilar.

Tekshirish savollari:

1. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda jismoniy tarbiyaning vositalari nimalardan iborat bo'lmog'i kerak?
2. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda madaniy, gigienik malakalarni shakllantirish xususiyatlari haqida so'zlab bering.
3. Axloqiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Axloq normalari nimalar asosida o'zlashtiriladi?
5. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda axloqiy xulq normalari qanday shakllantiladi?
6. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida mehnat tarbiyasining vazifalari nimalardan iborat bo'ladi?
7. Mehnat tarbiyasida qo'llaniladigan qanday vosita, yo'l va ish usullarini bilasiz?
8. Aqli zaif bolalarning psixik, jismoniy nuqsonlarini korreksiya qilishda mehnat tarbiyasining ahamiyati nimalardan iborat?
9. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida estetik tarbiyaning vazifalari nimalardan iborat?
10. Maxsus bolalar bog'chalarida estetik tarbiya vositalariga nimalar kiradi?

Tayanch tushunchalar:

1. **Himoya** – pedagogik kun tartibida – bolalar nerv tizimi toliqishining oldini olishdagi tadbirlar.
2. **Mehnat terapiyasi** – mehnat yordamida davolash.
3. **Faoliyat** – insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan harakatlari.
4. **Hissiyot** – odamning tevarak-atrofdagi voqe'larga, bilib olgan narsalariga va faoliyatiga munosabatidan paydo bo'ladigan tuyg'ular.
5. **Qo'l mehnati** – o'quv predmeti bo'lib, umummehnat ta'limining dastlabki bosqichlari hisoblanadi. Nuqsonli bolalarni aqliy va jismoniy rivojlantirishda axloqiy tarbiyasida asosiy ta'sir vositalaridan biri.
6. **O'z-o'ziga xizmat qilish** – maxsus muassasalarda mehnat tarbiyasining dastlabki bosqichi.

III. BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISH

§8. Maktabgacha surdopedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari

Maxsus pedagogika tarmog'i – surdopedagogika (lot. «surdus»-karlik), eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va katta kishilarning rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan (maxsus pedagogika tarmog'i).

Eshitishda nuqsoni bo'lgan ilk va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonlari va qonuniyatlari – maktabgacha surdopedagogika fanining predmeti hisoblanadi.

Maktabgacha davr eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir, zero korreksion-pedagogik tadbirlarning barvaqt boshlanishi bola o'sishidagi kamchiliklarining oldini olishga, shuningdek, ijtimoiy faol, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yordam beradi.

Maktabgacha surdopedagogikaning alohida fan sifatida o'rganilishi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning yosh davrlariga xos jismoniy, psixik va fiziologik xususiyatlarning mavjudligi, bolalar turmushini tashkil etish va qulay ta'lim-tarbiya shart-sharoitlarini yaratishda ushbu omillarni hisobga olish zarurligi bilan belgilanadi.

Maktabgacha surdopedagogika fanining asosiy vazifalari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari va imkoniyatlari, ularga ilk davrdan boshlab korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish zaruratidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Eshitish qobiliyatining pasayishi bolaning umumiy va psixik rivojlanishiga, eng asosiysi nutqining shakllanishiga

salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitmaydigan va zaif eshituvchi bola maxsus o'rgatib borilmasa, u gapira olmaydi, atrofdagilar bilan muomalada esa chegaralangan miqdordagi imo-ishoralardan foydalanadi. Bolalar kundalik hayotida kattalarga taqlid qilgan holda oddiy amaliy faoliyat turlarini bajara oladilar, turli buyumlarning funksional vazifalarini o'zlashtiradilar va ulardan to'g'ri foydalanadilar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakasini egallab oladilar. Bunday bolalarga maxsus ta'lim berish shart-sharoitlari yaratilmagan holda, ular o'zgarar nutqini idrok eta olmasligi oqibatida sensor va aqliy rivojlanishi so'zashuv nutqning ta'sirisiz kechadi.

Shunday qilib, eshitish qobiliyatining pasayishi va nutqiy rivojlanishning buzilishi oqibatida bolaning rivojlanishi to'xtamasa-da, ancha cheklanib qoladi. Demak, bolalarning risoladagidek rivojlanishi uchun, me'yorda eshitadigan bolalardan-da ko'proq maxsus ta'lim-tarbiya sharoitlarini yaratish talab etiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ilk yoshdan boshlab maxsus ta'lim-tarbiya berilgan holda, ularning umumiy rivojlanishidagi orqada qolishning oldini olish, mavjud nuqsonlarni korreksiyalash va ularning har tomonlama kamol topishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Maktabgacha surdopedagogikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni aniqlash va ularga korreksion-pedagogik yordam ko'rsatishga ko'maklashish;
- Ilk va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash;
- Eshitish qobiliyatining buzilishini jismoniy, bilish, ijtimoiy, nutqiy rivojlanishiga, shaxsning shakllanishiga bo'lgan ta'sirini o'rganish;
- Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga metodik yordam va maslahatlar tashkil etish;
- Korreksion-tarbiyaviy ishlarning nazariy asoslarini ishlab chiqish: ilk va maktabgacha yoshdagi eshitmaydigan va

zaif eshituvchi bolalarga ta'lim-tarbiya berish vazifalari, tamoyillari va metodlarini belgilash;

- Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarga turli sharoit (maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi, maktab-internatlar qoshidagi guruhlar, umumiy yo'nalishdagi bolalar bog'chasi huzuridagi guruhlar va hokazolar)da beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunini belgilash, o'qituvchi-surdopedagog, tarbiyachi, ota-onalarni pedagogik bilimlar bilan qurollantirish;
- Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarga korreksion-pedagogik yordam berishning yangi shakllarini izlash;
- Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning normal eshituvchi insonlar orasiga integrasiyasiga yordam berish;
- Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarining maktab, oila, mahalla, jamoa tashkilotlari bilan aloqasini mustahkamlash.
- Maktabgacha tarbiya muassasasi, oila, jamoat tashkilotlarining kar va zaif eshituvchi bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasidagi ijobiy tajribalarini o'rganish va targ'ib etish.

Tayanch so'zlar:

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar – kar(eshitmaydigan), zaif eshituvchi, keyinchalik kar bo'lib qolganlar.

Surdopedagog – eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya beradigan pedagog.

Integrasiya – rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarni sog'lom kishilar orasiga uyg'unlashtirish.

Nazorat uchun savollar:

1. Maktabgacha surdopedagogika fanining predmetini yoritib bering.

2. Maktabgacha surdopedagogikaning vazifalarini belgilashda nimalarga asoslaniladi?.

3. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar shaxsini rivojlantirishda maktabgacha davrning ahamiyati haqida gapirib bering.

4. Maktabgacha surdopedagogika fanining vazifalarini izohlab bering.

§ 9. Maktabgacha surdopedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

Pedagogikada tarbiya qonuniyatlari to'g'risidagi fan sifatida hodisalarning keng doirasi qamrab olinadi va turli sharoitda ta'lim-tarbiyani tashkil etish masalalari ishlab chiqiladi. Maktabgacha surdopedagogika fani pedagogika fanining umumiy qonuniyatlariga asoslangan holda rivojlanadi.

Maktabgacha surdopedagogikaning ilmiy-metodologik negizini falsafa tashkil etadi, zero, falsafa tarbiyaning maqsad va vazifalarini o'rganish metodologiyasini belgilaydi, tarbiya masalasiga ilmiy asoslangan holda yondashish imkoniyatini beradi.

Ma'lumot va ta'lim nazariyasi bo'lgan didaktika surdopedagogika fanlari tizimiga kiradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari va istiqbollari o'rganish didaktikaning vazifasiga kiradi. Shu asosda ta'limning maqsadi, mazmuni, prinsiplari, metodlari, tashkiliy shakllari va vositalari ishlab chiqiladi. Surdopedagogika fani didaktik masalalarni ishlab chiqishda, masalan, axloqiy tarbiya masalalarini o'rganishda, estetik tarbiyaning maqsadi, yo'llari va usullarini belgilashda etika faniga asoslanadi.

Etika – axloqni nazariy jihatdan asoslab, yosh avlodni, uning axloqiy tarbiyasi muammolarini, inson shaxsini shakllantirishda axloqiy g'oyalar rolini tushunishni chuqurlashtiradi.

Estetika – insonning voqelikka, san'atga estetik munosabatlari rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, nafas tarbiyasining ilmiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Fiziologiya – maktabgacha surdopedagogika fanining tabiiy-ilmiy bazasi bo'lib, insonni biologik evolyusiya maxsuli sifatida o'rganadi, inson oliy nerv faoliyatining rivojlanishi, nerv tizimining tipologik xususiyatlari, sezgi organlari, tayanch-harakat apparati, yurak-tomir va nafas olish tizimlari, ichki sekresiya bezlari va shu singarilarning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga tayanadi. Shuningdek, fiziologiya fanining

ma'lumotlari, insonning oliy nerv tizimi haqidagi ta'limoti, shartli refleks aloqalarning shakllanishi, turli analizatorlarning faoliyati va bolaning psixik rivojlanishidagi tutgan o'rni to'g'risidagi ma'lumotlar surdopedagogika fanining tarbiyaviy-ilmiy psixofiziologik negizi bo'lib xizmat qiladi (I.M.Seshenov, I.P.Pavlov, A.R.Luriya va boshqalarning tadqiqotlaridan). I.P.Pavlov ta'limotida shartli reflekslarning paydo bo'lishi va tormozlanishi, analizatorlar fiziologiyasi, asab faoliyatining turlari tadqiq etilgan. Bosh miyaning katta yarim sharlari qobig'ida qo'zg'olish va tormozlanishning almashishi, vaqti va davomiyligida xosil bo'lgan shartli reflekslar bola hayotining kun tartibi to'g'ri tashkil etilishiga asos bo'ladi.

So'zlarni idrok etish va ifodalash bilan bog'liq bo'lgan hamda bosh miyada kinesteziya (nutq a'zolari harakatlari) va eshituv qo'zg'alishlari ta'sirida vujudga kelgan murakkab izlar tizimi tilni o'rganishda fiziologik asos hisoblanadi. I.P.Pavlov ta'limotida nutq a'zolarining harakati jarayonida xosil bo'lgan kinestetik qo'zg'olishlar ikkinchi signal tizimining asosiy negizi sifatida e'tirof etiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini o'stirish jarayoni ikkinchi signal tizimining murakkab shartli aloqalarining yuzaga kelishi sifatida qaraladi.

Ilk va maktabgacha davrida bola organizmining barcha funksiyalari va organlarining o'sishi paytida uning o'sib-rivojlanishidagi xususiyatlarning o'rganilishi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlashga hamda korreksion ta'lim-tarbiyani samarali tashkil etishga yordam beradi.

Maktabgacha surdopedagogika fani umumiy, maktabgacha va maxsus psixologiya fanlari bilan bevosita bog'liqdir. Psixologiya, insonning psixik rivojlanish qonuniyatlarini filogenez va ontogenezda o'rganuvchi fan sifatida, insonning rivojlanishi, tarbiyalanishi va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari chog'ida shakllanadigan psixik jarayonlar (idrok, sezgi, tafakkur, xotira, tasavvur, his-tuyg'u, iroda va hokazo)ni o'rganadi. Surdopedagogika ulardan foydalanib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limining mazmuni va metodlarini ishlab chiqadi.

Maktabgacha surdopedagogika fanida psixologlar L.S.Vigotskiy, I.M.Solovev, T.V.Rozanovalarning, ilmiy nazariyalariga ko'ra psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchilik bolaning jismoniy va psixik rivojlanishining buzilishiga olib kelsa, bunday bola anomal deb hisoblanadi. Eshitishning pasayishi bolaning nutqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi: nutqning muloqot qilish, idrok etish, fikrlash, bilish faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Ta'lim muassasasida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil-lashtirish, eshitishning pasayishi bilan bog'liq umumiy va xususiy jihatlarni tushunish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini bilmoq zarur.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni differensial tarzda o'qitish muammolarini hal etishda, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda ularning psixologik xususiyatlarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Eshitish qobiliyati pasaygan bolalar shaxsiyatining o'ziga xosligini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshi, psixik xususiyatlari, nutqiy rivojlanishiga mos psixologik-pedagogik o'rganish metodlarini tanlash, ularning rivojlanish salohiyatlarini aniqlash, korreksion-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish mumkin bo'ladi.

Maktabgacha surdopedagogika fani lingvistik (tilga doir) fanlar va psixolingvistika fani bilan bevosita bog'liqdir. Bola tomonidan nutqni egallash me'yorlarini bilish eshiti-shi pasaygan bolalarning nutqiy rivojlanish bosqichlarini va qonuniyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanish xususi-yatlarini o'rganish, ularga til o'rgatish tizimini modellashti-rish jarayonlarida psixolingvistika ma'lumotlaridan, xususan L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, A.Leontev, I.Jinkinlarning tadq-iqodlaridan foydalangan holda surdopedagog olimlar o'z faoliyatlarida modelidan keng foydalanganlar. Psixolingvis-tik yondashuv eshitishning pasayishi oqibatida yuzaga kelgan nutqiy buzilish mexanizmi va tizimini aniqlash, ta'lim jaray-onida turli til vositalarini qo'llash imkonini yaratadi.

Otolaringologiya, surdologiya, audiologiya ma'lumotlariga, ya'ni bolaning eshitish holati: eshitishning pasayish vaqti, darajasi, xarakteriga asoslangan holda bola bilan korreksion-tarbiyaviy ishlarni sifatli olib borish mumkin. Surdologiya va audiologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar eshituv hola-tini tekshirish usul va uslublarini belgilash, mavjud eshit-ish buzilishlarini tasniflash tizimini asoslash imkonini be-radi (L.V.Neyman, Yu.B.Preobrajenskiy, D.I.Tarasov va boshqalar tadqiqodlari).

Maktabgacha surdopedagogika fani tibbiyot fanlari bilan ham bevosita bog'liqdir. Tibbiy ma'lumotlar birlamchi nuqson darajasini ob'ektiv baholash, eshituvning pasayishini boshqa psixik jarayonlar, xususan, nutq va kommunikasiya jarayon-lariga ko'rsatgan ta'sirini aniqlashga yordam beradi. Tibbiy tekshiruv ma'lumotlari korreksion-tarbiyaviy ishning qulay metodlarini tanlagan holda differensial tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish, nutqni rivojlantirish, talaffuzni shakllantirish ishlarini olib borishda tibbiy ma'lumotlardan keng foydalaniladi.

Otorinologiya, surdologiya, audiologiya fanlari so-hasidagi yutuqlar, eshitish qobiliyatining pasayganini vaqtli aniqlash, bolalarga tibbiy, surdotexnik va pedagogik yordam-ning barvaqt ko'rsatishligiga imkon yaratadi. So'nggi yillarda ayrim eshitishdagi buzilishlarni davolash, eshituv holatini yax-shilash imkoni paydo bo'ldi.

Eshituv qobiliyati buzilishlarini korreksiyalashda alohida-alohida va jamoa bo'lib foydalaniladigan surdotexnika vosita-larini qo'llanilishi katta ahamiyatga ega.

Surdotexnika sohasining rivojlanishi bilan eshituv apparat-lar, vizual va taktil-vibrasion nazorat vositalari takomillashti-riladi. Qolaversa, bolalarning atrof-muhitga moslashuvida, eshituv va nutqni rivojlantirish ishlarini takomillashtirishda, shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari kengaydi.

Nevropatologiya, psixopatologiya fanlari maktabgacha sur-dopedagogika fani bilan bevosita aloqadordir. Mazkur sohalar ma'lumotlari eshituv qobiliyatining pasayishini differensial

tashxis qilish, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar xarakterini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim kar va zaif eshituvchi bolalarda eshituv qobiliyatining pasayishi bilan birga markaziy asab tizimining faoliyatining buzilishi bilan bog'liq boshqa kamchiliklar ham kuzatiladi. Psixik rivojlanishning sustlashuvi, aqliy zaiflik, bolalardagi serebral falajlik, xulq-atvor va hissiy-irodaviy buzilishlar bunga misoldir. Bunday buzilishlarni to'g'ri tashxis qilish surdopedagog va psixonevrolog hamkorligida amalga oshiriladi.

Maktabgacha surdopedagogikada maxsus pedagogikaning logopediya, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika sohalaridagi yutuqlar ham hisobga olinadi.

Kalit so'zlar:

Birlamchi nuqson – rivojlanishida muammaosi bo'lgan bolaning asosiy nuqsoni.

Differensial ta'lim – nuqsonlarni tabaqalashtirgan holda o'qitish.

Koxlear implantasiya (tib) – o'rta quloq chig'anog'iga tovush o'tkazuvchi moslamani o'rnatib, eshituv qobiliyatini me'yorga keltirish operatsiyasi.

Vizual nazorat – ko'rish orqali nazorat qilish.

Taktil-vibrasion nazorat – teri sezgisi vositasida ovoz to'lqinlarini sezish.

Nutq kinesteziyasi – nutqni xosil qilishda ishtirok etayotgan nutq a'zolarining his etish holati.

Tekshirish uchun savollar:

1. Maktabgacha surdopedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini ta'riflab bering.
2. Maktabgacha surdopedagogika fanining psixologiya yo'nalishidagi fanlar bilan bog'lanishi gapirib bering.
3. Maktabgacha surdopedagogika fanining tibbiyot fanlari bilan aloqadorligi haqida so'zlab bering?
4. Surdotexnika fanining maktabgacha surdopedagogika fani bilan aloqadorligini izohlang.

§10. Maktabgacha surdopedagogika fanining metodlari

Maktabgacha tarbiyada surdopedagogika fani bir qator metodlardan foydalanadi. Ular quyidagilardir: kuzatish, eksperiment, bolalar ishlarini, ta'lim-tarbiya muassasalari hujjatlarini o'rganish metodi, suhbat, so'rab-bilish metodi, ilmiy-metodik manbalarni o'rganish.

Kuzatish metodi – bu pedagogik hodisani rejali ravishda o'rganish bo'lib, bu jarayonda tadqiqotchi hodisani butun holda uning alohida tomonlarini ko'rishi, muhim, barqaror aloqalarni aniqlashi mumkin. Faktlarni to'plash, ularning muhim tomonlarini qayd etish – kuzatishning bosh vazifasidir. Tadqiqot metodi sifatida kuzatish aniq-ravshan anglangan maqsadning mavjudligi bilan izohlanadi. U avvaldan ishlab chiqilgan rejaga asosan o'tkazilib, unda kuzatish ob'ekti, kuzatish maqsadi va vazifalari, dasturi, metodikasi va texnikasi ko'rsatiladi. Ilmiy kuzatish faktlarini ob'ektiv va aniq qayd etish talab qilinadi.

Kuzatish metodi – eshitish qobiliyati buzilgan bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida tashkil etilayotgan korreksion-tarbiyaviy ishlarni kuzatish maqsadida qo'llaniladi. Pedagogik kuzatish jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar faoliyatining xususiyatlari, ta'lim dasturida belgilangan bilim va malakalarni egallash samaradorligi, qo'llaniladigan metod va uslublar to'g'risidagi faktlarni to'plash, sistemalashtirish va tahlil qilish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Kuzatishdan avval kuzatish maqsadi, ob'ekti, rejasi, natijalarni qayd etish shakli belgilanadi. Kuzatish ob'ekti etib maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitmaydigan va zaif eshituvchi bolalarning turli mashg'ulotlardagi faoliyatlari hamda, erkin faoliyatlari belgilab olinishi ham mumkin. Surdopedagog va tarbiyachilar faoliyatini kuzatish, metod va usullarni tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Kuzatish materiallarini tahlil qilishda ijobiy faktlar bilan birga salbiy jihatlarning aniqlanishi muhimroqdir. Mazkur metodning afzalligi uning tabiiyligida va avvaldan rejalashtirilgan ish tartibiga putur yetkazmaganidadir. Kuzatish natijalari aniq-ravshan bo'lishi uchun yozma bayonnomalar

bilan birga audio-video yozuvlar va fototasvirlardan foydalaniladi.

Pedagogik tadqiqotlarda eksperiment, o'quv yoki tarbiyaviy ishda amalga oshiriladigan ilmiy tarzda qo'yilgan tajriba katta o'rin tutadi. Tajriba chog'ida pedagogik hodisani o'rganish o'rganilayotgan ob'ektga izchil ta'sir ko'rsatgan holda maxsus tashkil etilgan, nazorat qilinadigan sharoitda amalga oshiriladi. Tajribaning asosiy vazifasi – ayrim pedagogik ta'sirlar va uning natijalari o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini o'rnatishdan iboratdir, bu esa pedagogik jarayonni yanada samarali usul bilan boshqarish uchun zarurdir. Tadqiqotchi tajriba davomida passiv kuzatuvchidan farqli ravishda o'rganilayotgan pedagogik hodisa jarayoniga faol aralashadi. Bunda tadqiqotchi ba'zi hodisalarni bartaraf etishi va boshqalarini kuchaytirishi mumkin.

Tajriba o'tkazuvchi oldida turgan vazifalar va tadqiqot tushiga bog'liq tarzda tabiiy va laboratoriya tajribasi qo'llaniladi. Tabiiy va laboratoriya tajribasining farqi tadqiqot olib borayotgan sharoit bilan bog'liqdir. Tabiiy tajriba tabiiy sharoitlarda (bunday tajribadan asosan bolalar bilan ishlashda foydalaniladi), laboratoriya tajribasi esa maxsus yaratilgan sharoitda o'tkaziladi. Ayni paytda tabiiy tajribadan farqli ravishda bu erda faoliyat ro'y beradigan shart-sharoitga ta'sir qiladi. Sinalayotganning faoliyati esa tabiiy ravishda kechayotgan holatda kuzatiladi. Bundan tashqari, laboratoriya tajribasi sinalayotganlarga ko'rsatilayotgan ta'sir xususiyatini va ularning javob reaksiyalarini asboblar yordamida aniq qayd etish imkonini beradi.

Tajriba, shuningdek, tasdiqlovchi yoki shakllantiruvchi, individual yoki frontal bo'lishi hamda tabiiy yoki laboratoriya sharoitida o'tkazilishi mumkin. Tasdiqlovchi tajriba sharoitida bolalarning kuzatish jarayonida namoyon etilmagan rivojlantirish xususiyatlari aniqlanadi. Tajribaning samaradorligi uning maqsad va vazifalari, o'tkazish metodikasi, kutiladigan natijalari aniq belgilanib, rioya qilinishiga bog'liqdir.

Surdopedagogika fani uchun pedagogik texnologiyalarni sinash, ilmiy taxminlarni tekshirish maqsadida olib boriladigan

shakllantiruvchi yoki o'rgatuvchi tajriba katta ahamiyatga ega. O'rgatuvchi tajribani tashkil etilishi uchun o'z tasdig'ini topadigan va korreksion-tarbiyaviy faoliyatga ta'sir etadigan ilmiy farazning bo'lishi talab etiladi. Tajribadan ob'ektiv ma'lumotlar olinishi uchun ma'lumotlar sifat va son jihatdan har tomonlama tahlil etiladi.

Bolalar ishlarini, ta'lim-tarbiya muassasalari hujjatlarini o'rganish metodi. Pedagogik hujjatlarni o'rganish tadqiq etilayotgan ob'ekt haqida turli axborotni olish imkonini beradi. Axborot manbaalari qatoriga xalq ta'limi organlari, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab raxbarlari, surdopedagog tarbiyachilar, o'qituvchilarning rejaları va hisobotlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlar, mashg'ulotlar ishlanmalari, kundalik va sinf jurnallari, badiiy va texnik ijodiyot natijalari kiradi. Bu materiallarni o'rganish tadqiqotchining kuzatishlari natijalarini to'ldiradi, yangi faktlarni aniqlashga ko'maklashadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ijodiy faoliyatining mahsulotlari, masalan, rasm, yasalgan buyumlar, qurilgan narsalarga qarab, bolalarning psixik jarayonlari: diqqati, xotirasi, idroki, tafakkurining saviyasi, qo'l motorikasi va mehnat malakalarining holati haqida hulosasi qilish mumkin. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning amaliy faoliyatining natijalari bolalarning alohida xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bolalarning avval chizilgan rasmlari, plastilin va tabiiy materiallardan yasalgan buyumlarini ko'rib chiqish, tahlil qilish, bolalarga berilgan topshiriqlar qay darajada murakkablashib borganini, tasviriy faoliyati qanday rivojlanib borganini aniqlashga hamda ular bilan olib boriladigan keyingi ishlarni belgilashga yordam beradi.

Suhbat – sinov o'tkazilayotganlar bilan avvaldan puxta o'ylangan savollar yordamida bevosita, jonli muomaladir. U yakka tartibdagi va jamoa tarzidagi suhbat bo'lishi mumkin. Suhbat intervyudan (bir tomonlama suhbatdan; unda tashabbuskor kishi savollar beradi, suhbatdosh esa javob qaytaradi) shu bilan farqlanadiki, suhbat ikki tomonlama aloqa o'rnatishni

va o'zaro xayrixohlikni nazarda tutadi. Suhbat metodi bolalarning qiziqishlarini, ularning tasavvurlarini, munosabatlarini, bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashga yordam beradi

Suhbat o'tkazish uchun maqsadni belgilash, dasturni ishlab chiqish, savollarni, ularning ketma-ketligini puxta o'ylash zarur. Suhbat aksariyat hollarda pedagoglar va ota-onalar bilan o'tkazilib, bolalarning rivojlanishi, o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot to'plashga xizmat qiladi. Kichik yoshdagi bolalar bilan suhbat o'tkazish yaxshi samara bermaydi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borilgan suhbat materiallari kuzatish, psixolog-pedagogik hujjatlarni tahlil qilish, pedagog va ota-onalar bilan suhbat qurish chog'ida to'plangan axborotlar bilan tasdiqlanishi kerak. Mazkur metodning samaradorligi suhbat maqsadining qo'yilishi, savollarning to'g'ri belgilanishi, javoblarning to'g'ri belgilanishi va tahlil qilinishiga bog'liqdir.

So'rab bilish metodi. U anketa (yozma so'rab bilish shakli) va intervyu (og'zaki so'rab bilish shakli)dan foydalanib o'tkaziladi. Ommaviy mulohazalar olish uchun anketa yordamida so'rab bilish metodidan foydalaniladi. Uncha katta bo'lmagan guruhdan axborot to'plash zarur bo'lgan hollarda odatda intervyu olish metodidan foydalaniladi. Buning mohiyati shundaki, tadqiqotchi bunday guruhda avvaldan tuzilgan savollar asosida yakka tartibda suhbat o'tkazadi va javoblarni yozib oladi.

Ota-onalar va pedagoglar haqida so'rab olish chog'ida, qonuniyat va tendensiyalarni aniqlash maqsadida to'plangan ma'lumotlar matematik tahlil etiladi. Mazkur metodlar verbal xarakterga ega bo'lganligi sababli, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi va eshitmaydigan bolalarga qo'llash muayyan qiyinchiliklarni tug'diradi.

Ilmiy-metodik manbaalarni o'rganish. Maktabgacha surdopedagogika nazariy adabiyotlarni o'rganish metodlaridan ham foydalanadi. Surdopedagogikaga oid adabiyotlarning materiallari qo'yilgan muammoni o'rganish, boshqa metodlar (kuzatish, eksperiment, suhbat, pedagogik tajribani o'rganish) vositasida

olingan tasavvurlarni ilmiy-metodik ma'lumotlar bilan tasdiqlanishini nazarda tutadi. Odatda, ta'lim-tarbiyaga oid muammoni o'rganish tegishli adabiyotni tahlil qilishdan boshlanadi. Ilmiy metodik adabiyotlar turli sohalarga oid bo'lishi mumkin: maktabgacha va maktab surdopedagogikasi (monografiyalar, ilmiy asarlar to'plami, darsliklar, metodik qo'llanmalar); maktabgacha pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlar; defektologiya tarmoqlari, oligofrenopedagogika, logopediya, tiflopedagogika bo'yicha adabiyotlar va boshqalar shular jumlasidan. Bundan tashqari doimiy nashrlar, masalan «Defektologiya», «Boshlang'ish ta'lim», «Maktabgacha ta'lim», «Maktab va hayot», «Xalq ta'limi», «Tarbiyachi», «Ta'lim texnologiyalari», «Bola va zamon» va boshqa jurnallar, lug'atlar, metodik adabiyotlardan ham o'rganilayotgan muammo bo'yicha ma'lumot tahlil qilinadi. Turli mavzularni o'rganish chog'ida ilmiy-metodik manbalarni o'rganish nazarda tutiladi, biroq ayrim hollarda, masalan, surdopedagogikaning tarixini o'rganishda, mavjud ta'lim-tarbiya tizimining konseptual (yo'riqnoma) nizomlarini tadqiq etishda u yetakchi rol o'ynaydi.

Tayanch so'zlar:

Verbal – nutqiy
Ob'ektiv – faktlarga asoslangan

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha surdopedagogika fani ilmiy tadqiqotlarida qanday metodlaridan foydalanadi?
2. Fan metodlarini qo'llash maqsadlarini va tartibini yoritib bering.

§ 11. Surdopedagog va tarbiyachi shaxsi

O'qituvchi-defektolog(surdopedagog) lavozimiga pedagogika oliy o'quv yurtlarining defektologiya fakultetini tamomlagan shaxslar tayinlanadilar. Surdopedagog ertalabki soatlarda ishlaydi va nutq o'stirish, matematik tasavvurlarni shakllantirish, talaffuzga o'rgatish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish

mashg'ulotlarini hamda eshitish qobiliyatini rivojlantirish va nutqni o'stirish bo'yicha yakka mashg'ulotlarni olib boradi. Surdopedagogning yuklamasi haftasiga 24 soatni tashkil etadi.

Surdopedagog bolalarni har tomonlama kamol toptirish, maktab ta'limiga tayerlash ishlarini amalga oshiradi. Surdopedagog pedagogik jarayonni tashkil etib, bolalarni bilim va malakalar bilan qurollantiradi, nutqini shakllantiradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya berish uchun surdopedagog yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lishi, ta'limning samarali psixologik-pedagogik texnologiyalarini izlashi va joriy etishi, korreksion metod va usullarni va dastur talablarini mukammal bilishi kerak.

Surdopedagog kar va zaif eshituvchi bolalarning nuqson tuzilishini, bilish jarayonlarining xususiyatlarini, defektni kompensasiyalash yo'llarini bilmog'i lozim. Pedagogik-psixologik bilimlarni qo'llagan holda bolalarni sevgan holda, ularga mehr-muruvvat va g'amxo'rlik ko'rsatib pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarnig nutqi kattalarga taqlid qilgan holda shakllangani sababli surdopedagogning nutqi tabiiy, ohangdor va ifodali, talaffuzi aniq va jarangdor stilistik, grammatik va fonetik kamchiliklardan holi bo'lishi kerak. Surdopedagog umumiy tarzdagi va individual (yakka) mashg'ulotlarni bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan va dastur talablarini hisobga olgan holda rejalashtiradi.

Tarbiyachi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama rivojlantirish, sog'ligini muhofaza etish ishlarini amalga oshiradi. Tarbiyachi lavozimiga pedagogika kolleji yoki pedagogika instituti (maktabgacha tarbiya yoki defektologiya fakulteti)ni tamomlagan shaxslar tayinlanadi. Tarbiyachi navbatma-navbat ertalabki va kechqurungi soatlarda ishlaydi, bolalarning kun tartibidagi faoliyatlarini tashkil etadi, tevarak-atrof bilan tanishtirish, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat, o'yin, mehnat mashg'ulotlarini olib boradi. Tarbiyachining haftalik yuklamasi – 30 soatni tashkil etadi.

Tarbiyachi bolalarning turli faoliyatlarini tashkil etadi, ularning tasavvurlari, bilim va malakalarini shakllantiradi, nutqini o'stiradi, ijobiy xulq sifatlarini tarbiyalaydi. Tarbiyachi kun tartibidagi bolalarnig faoliyatning aniq-ravshan tashkil etadi, bolalarning hayoti va sog'ligi uchun javobgar bo'ladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarnig ta'lim-tarbiyasini tashkil etarkan, tarbiyachi ularning rivojlanish xususiyatlarini, korreksion ish yo'llarini, maxsus muloqot vositalarini, ovozni kuchaytiruvchi moslamalar, texnik vositalar bilan ishlashni bilmog'i zarur.

Tarbiyachi surdopedagog bilan hamkorlikda, kelishilgan holda, uzviy bog'lanishni o'rnatib, o'z ishini tashkil etadi. Surdopedagog bilan birgalikda bolalar nutqining o'sishi va dastur talablarining bajarilishi uchun javobgardir.

Tayanch so'zlar:

Stilistika – til qonuniyatlari.

Fonetika – tilning tovush tarkibini o'rganuvchi soha.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachining vazifalari nima iborat?
2. Maktabgacha tarbiya muassasasidagi surdopedagogning vazifalari va ish mazmunini yoritib bering.

§12. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik tavsifi

Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik-psixologik jihatdan o'rganish masalalariga N.A.Rau, T.A.Vlasova, N.G.Morozova, B.D.Korsunskaya, A.A.Kataeva, G.L.Vigodskaya, E.I.Leongard, L.P.Noskovalarning ilmiy tadqiqotlari bag'ishlangan.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning dastlabki tekshiruv usullari N.A.Rau tomonidan ishlab chiqilgan. N.A.Rau bolalarning eshituv holatiga ko'ra ikki toifani, ya'ni, kar-soqov va

zaif eshituvchi bolalar toifasini ajratadi. Kar-soqovlarni karlik paydo bo'lish vaqtiga qarab:

- tug'ma kar-soqov bolalar, yoki nutqqacha bo'lgan davrda kar bo'lib qolgan bolalar;
- erta (2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davrda) kar bo'lib qolgan bolalarni ;
- kechroq (6-7 yoshda) kar bo'lib qolgan bolalar.

Eshitish qobiliyatining pasayish darajasiga qarab bolalar ikki guruhga ajratiladi:

1. Mutloqo eshitmaydigan bolalar (total kar);

2. Tonal, vokal, verbal eshituv qoldiqlari mavjud bo'lgan bolalar.

N.A.Rau barcha toifadagi kar va zaif eshituvchi bolalar bilan ular nutqining saqlab qolinishi va rivojlanishini ta'minlash, labdan o'qishga o'rgatish va savodini chiqarish uchun maxsus korreksion ishlar olib borish zarurligini ta'kidlaydi.

N.A.Rau barcha turdagi eshitmaydigan bolalarni «kar-soqovlar» deb nomlagan, sababi, uning fikricha, bunday bolalar bilan maxsus korreksion tarbiyaviy ish olib borilmagan holda, ular soqov bo'lib qolaveradi. Zaif eshituvchi bolalar kar bolalardan nutqni idrok eta olishi bilan farqlanadi. N.A.Rau qulog'i og'irlikning 3 darajasini farqlaydi:

1. Engil darajadagi qulog'i og'irlik. Bunday bolalar shivirlab gapirilayotgan nutqni 8 metr masofadan, gaplashish balandligidagi nutqni 15 metr masofadan ham eshitadilar. Bunday bolalar maxsus yordamga muhtoj bo'lmaydilar va sog'lom bolalar bog'chalarida tarbiyalanadilar.

2. O'rtacha darajali qulog'i og'irlik. Bunday bolalar shivirlab gapirilayotgan nutqni 2 metr uzoqligida, so'zlashish balandligidagi nutqni 3-5 metrgacha bo'lgan masofada eshitadilar. Eshituvning pasayishi ularning nutqiga ham salbiy ta'sir etadi. Nutqning ravonligi buziladi, so'z boyligi kambag'allashadi, grammatik va leksik kamchiliklar kuzatiladi. Bunday bolalar umumiy yo'nalishdagi maktabgacha tarbiya muassasida tarbiyalanishi mumkin, lekin ularga nisbatan alohida yondashuv talab etiladi.

3. Og'ir darajadagi qulog'i og'irlik. Bunday bolalar shivirlab gapirilgan nutqni 1, 5 metr uzoqlikdan yoki quloq yonida gapirilganda eshitadi, baland ovozdagi nutqni 2 metrdan uzoq bo'lmagan masofadan eshita oladi. Bu bolalar maxsus korreksion ta'lim muassasalarida, ovozni kuchaytiruvchi apparatlaridan foydalangan holda tarbiyalanishi kerak.

N.A.Rau tomonidan taklif etilgan eshituv qobiliyatining pasayishini tasniflashining ahamiyati shundaki, pedagoglar, maxsus apparaturalar bo'lmagan holda ham bolalarning eshitish holatini tekshirib, differensial yondashuvni amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar.

Hozirgi paytda bolalarning eshitish qobiliyatini tekshirishda L.V.Neyman va R.M.Boskislarning tasnifidan keng foydalaniladi. L.V.Neymaning tasnifida bolaning eshitish funksiyasining shikastlanish darajasi va nutqiy rivojlanish imkoniyatlari hisobga oladi. Tonal audiometriya natijalari asosida eshituvning pasayish darajasi aniqlanadi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning eshituv holatida o'yinli-tonal audiometriya qo'llaniladi. 2-3 yoshli bolalarda mazkur metodikani qo'llashdan avval bolalarda ovoz manbalariga nisbatan shartli-harakat reaksiyani ishlab chiqish talab etiladi (E.I.Leongard, N.D.Shmatko).

Eshitish qobiliyati pasayishining ikki turi, ya'ni karlik va zaif eshitish farqlanadi. Zaif eshituvchilikda nutqni idrok etish va mustaqil egallashda qiyinchiliklarga duch keladi. Biroq, eshituvdan foydalanib, cheklangan miqdorda bo'lsa ham, muayyan so'z zahirasi to'plash mumkin. Zaif eshituvchining darajasini aniqlashda asosiy mezon sifatida nutqiy diapazon (chegara) dagi eshituvning pasayishi olinadi (500-4000 Gs). Ko'rsatilgan diapazonda eshituvning pasayishi hisobga olingan holda zaif eshituvchining 3 ta darajasi farqlanadi:

Zaif eshituvning 1-darajasi – eshituvning pasayishi nutqiy dipazonda 50 db dan oshmaydi.

2-darajasi – eshituvning pasayishi nutqiy diapazonda 50-70 db dan oshmaydi.

3-darajasi – eshituvning pasayishi nutqiy diapazonda 70 db dan oshmaydi.

Zaif eshituvni teshirish jarayonida eshituvdan foydalan-gan holda nutqni idrok etish imkoniyatlari aniqlanadi. Zaif eshituvning birinchi darajasida, eshituvning pasayishi 50 db dan oshmaganda, bola 1-2 metr dan uzoq masofada gaplashish balandligidagi nutqni aniq qabul qila olgani sababli, nutqiy muomalaga kirisha oladi.

Zaif eshituvning ikkinchi darajasida, ya'ni eshituv 50–70 db gacha pasayganda, so'zlashuv, nutq 1 metr dan uzoq bo'lmagan masofadan qabul qilinganligi sababli, nutqiy muomala qiyinlashadi.

Zaif eshituvning 3-darajasida, ya'ni eshituvning pasayishi 70 db dan ortganda, nutqiy muloqot buziladi, sababi, gaplashish balandligidagi so'zlashuv nutq quloq yonida ham noaniq idrok etiladi.

Ma'lumki, eshituv holati 15-20 db ga pasayishi bilan, nutqni egallashda qiyinchiliklar vujudga keladi. L.V.Neyman ushbu holatni «normal eshituv va zaif eshituvning chegara ho-lati» deb hisoblaydi. L.V.Neyman tasnifiga ko'ra zaif eshituv va karlik o'rtasidagi shartli chegara 85 db doirasida bo'ladi.

Eshituv holatining pasayishi karlik darajasida bo'lgan hol-da, nutqni mustaqil ravishda (tabiiy) o'rganish imkoniyati bo'lmaydi. Idrok etilayotgan tovushlar chastotasining doirasiga qarab 4 guruhdagi kar bolalar farqlanadi.

1-guruh – eng past chastotali tovushlarni idrok etadigan bolalar (125-250 Gs).

2-guruh – 500 Gs gacha bo'lgan chastotalarni idrok eta-digan bolalar.

3-guruh – 1000 Gs gacha bo'lgan chastotalarni idrok eta-digan bolalar

4-guruh – keng diapazondagi chastotalarni, ya'ni 2000 Gs va undan balandroq tovushni idrok etadigan bolalar.

Eshitish qoldiqlari minimal bo'lgan (1-2 guruhdagi) kar bolalar yaqin masofadan qattiq tovushlarni (baqiriq, parovoz qichqirig'i, nog'ora ovozi) idrok etishga qodir bo'ladilar.

3-4 guruhdagi kar bolalarning eshitish qoldiqlari sezilarli-rog bo'ladi, shu sababli ular kichik masofadan turli chastotalai

ovozlar (turli musiqa asboblari va o'yinchoqlar, hayvonlarning qattiq hayqirishi, ayrim maishiy tovushlar: qo'ng'iroq, tele-fonning jiringlashi)ni idrok etib, farqlay oladilar. 3-4- guruh kar bolalar tanish bo'lgan bir nechta so'z yoki bo'g'inlarni fayrqlay oladilar.

Shunday qilib, barcha kar bolalar turli miqdordagi eshi-tish qoldiqlariga ega bo'ladilar. Maxsus eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar borliqdagi tovushlarni bilishga xizmat qiladi hamda og'zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda tibbiyot muassasalarida eshituv holatini ba-holashda Xalqaro tasnif ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ush-bu tasnifga ko'ra eshituvning o'rtacha pasayishi 500, 1000, 2000 Gs chastotalarda aniqlanadi.

Zaif eshituvning 1-darajasi – eshituvning pasayishi 40 db dan oshmaydi.

Zaif eshituvning 2-darajasi – eshituvning pasayishi 40 db dan 55 db gacha bo'ladi.

Zaif eshituvning 3-darajasi – eshituvning pasayishi 55 db dan 70 db gacha bo'ladi.

Zaif eshituvchilikning 4-darajasi – eshituvning pasayishi 70 db dan 90 db gacha bo'lishi bilan ifodalanadi.

Eshituvning pasayishi 90 db dan o'tib ketsa, bunday holat «karlik» deb tafsiflanadi.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi tizimini yaratishda, bolalarni saralash mezonlarini belgilashda, differensial ta'limni yaratishda, sa-marali ta'lim-tarbiya usullarini tanlashda R.M.Boskis (1963y) klassifikatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. L.S.Vigotskiyning bola psixikasining rivojlanishidagi birlamchi va ikkilamchi de-fektlar to'g'risidagi nazariyasiga asoslanib, R.M.Boskis, es-hitishdagi nuqsonlarni farqlash bo'yicha pedagogik tasniflash mezonlarini ishlab shiqdi.

1. Bola eshituv analizatorining buzilishi, kattalarning xuddi shunday buzilishidan keskin farq qiladi. Katta kishilarning es-hitishi pasaygan holda eshituv yordamidagi nutqiy muloqot

buziladi. Ilk davrda eshituvning pasayishi, bolaning psixik rivojlanishiga ta'sir etadi, rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarini keltirib ñhiqaradi.

2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanishini to'g'ri tushunish uchun, ular tomonidan mustaqil ravishda nutqni egallash imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Eshituv qobiliyatining cheklanishi nutqning egallanishiga va to'laqonli nutqiy muloqotga to'sqinlik qiladi. Og'zaki nutqning orqada qolishi yoki umuman yo'qligi, yozma nutqning egallanishiga, o'qiyotgan narsalarni tushunishiga, o'z fikrini yozma bayon etishiga, turli sohalaridan bilim egallashiga yo'l bermaydi.

3. Eshituv holati va nutq o'zaro bog'liqdir. Bir tomondan, eshituvning pasayishi nutqning tabiiy ravishda o'sishiga to'sqinlik qiladi; ikkinchi tomondan eshitish qobiliyatining to'laqonli ishlatilishi bolaning nutqiy saviyasiga bog'liqdir. Nutq qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, eshituv qobiliyatidan foydalanish imkoniyatlari shunchalik kengayadi.

4. Eshituv qobiliyati buzilgan bolalar eshituvning pasayishi va nutqiy saviyasiga ko'ra xilma-xil bo'ladilar. Nutqning turli saviyada bo'lishi quyidagi omillarga bog'liqdir: a) eshitishning pasayish darajasiga; b) nuqsonning paydo bo'lishiga; v) eshituv nuqsonining paydo bo'lishidan keyingi pedagogik shart-sharoitlarga; g) bolaning alohida xususiyatlariga.

Ko'rsatilgan omillarning har biri bolaning nutqini baholashda muhim ahamiyatga ega. Eshitish qobiliyati qanchalik ko'p shikastlansa, nutqqa shunchalik ko'p zarar tegadi. Eshitish qobiliyati og'ir darajada pasaygan holda maxsus o'qitishsiz umuman rivojlanmaydi.

Eshitish qobiliyatining pasayganlik vaqti ham nutqning o'sishida hal qiluvshi omil bo'lishi mumkin. Eshituvning pasayishi qanchalik vaqtli yuzaga kelishi, nutqning shakllanishiga shunchalik ko'p ta'sir etadi. Nutqi hali shakllanib ulgurmaganda davrda eshituvning pasayishi soqovlikka olib keladi. 2-3, 4-5 yoshda bolaning eshituvi pasaygan holda maxsus pedagogik tadbirlar olib borilmasa, mavjud nutq yo'qolib boradi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda eshituv pasaygan holda,

nutqi qisman saqlanishi, biroq, maxsus pedagogik yordamsiz yomonlashib borishi mumkin.

Eshituv qobiliyati buzilgan bolaning tarbiyaviy shart-sharoitlari uning psixik va nutqiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega-dir. Eshitishdagi nuqson vaqtli aniqlanib, asoratlarining oldini olish bo'yicha olib borilgan tibbiy, pedagogik tadbirlar, bilish faoliyati, nutqiy rivojlanishi va muloqoti, shaxs rivojlanishidagi yyetichmovshiliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Eshituv protezlaridan vaqtli foydalanishi, oilada nutqiy muhitning yaratilishi, umumiy rivojlantiruvchi hamda eshituv qobiliyatini o'stirish mashg'ulotlarning olib borilishi ham eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning har tomonlama kamol topishiga yordam beradi. Psixik rivojlanishning sustlashuvi, aqliy zaiflik, ko'rish qobiliyatining pasayishi va boshqa qo'shimcha kamchiliklar esa nutqiy jarayonlarni sezilarli darajada sustlashtiradi. Bolaning shaxsiy xususiyatlari ham uning nutqiy rivojlanishiga xizmat qiladi: faol, kirishuvshan bolalar sust, uyalshan bolalarga nisbatan tezroq nutqni egallaydilar.

Yuqorida ko'rsatilgan asosiy holatlarga ko'ra R.M.Boskis eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni kar va zaif eshituvchilarga ajratadi.

Kar bolalarning eshituv holati nutqni mustaqil rivojlanishiga (maxsus o'qitishsiz) yo'l qo'ymaydi.

Nutqiy rivojlanish holatiga ko'ra karlar ikki toifaga ajratiladi. Birinchi toifadagi bolalar – tug'ma kar bolalar, yoki hayotining dastlabki yillarida (2 yoshgacha) kar bo'lib qolganlar.

Ikkinchi toifadagi – nutqi shakllangan davrda kar bo'lib qolgan, turli saviyadagi nutqqa ega, kechroq kar bo'lgan bolalar.

Eshitishning pasayishi oqibatida, mustaqil ravishda oz bo'lsa-da, nutqiy rivojlanish imkoniyati saqlangan holda, bunday bolalar zaif eshituvchi bolalar toifasiga kiradi. Zaif eshituvchi bolalarning nutqiy holati turli ko'rinishda, ya'ni, shivirlash balandligidagi nutqni idrok etishdagi kamchiliklardan to'g'ri gaplashish balandligidagi nutqni qabul qilishdagi kamchiliklar bilan ifodalanadi.

Nutqiy holatiga ko'ra, zaif eshituvchilarning ikkita toifasi farqlanadi: birinchi toifadagi zaif eshituvchi bolalar og'ir nutqiy kamchiliklar bilan maktabga keladilar, ularning nutqi alohida so'zlar, qisqa, noto'g'ri tuzilgan jumladan iborat bo'lib, grammatik va fonetik kamchiliklar yaqqol sezib turadi.

Ikkinchi toifadagi zaif eshituvchi bolalarning nutqi deyarli rivojlangan gaplardan tashkil topadi, grammatik va fonetik tuzilishda ayrim kamchiliklar kuzatiladi.

Nutqiy rivojlanish darajasiga ko'ra, bolalar guruhlarini tasniflab, R.M.Boskis nutqni idrok etish va shakllantirish usullari bilan farqlanadigan, ta'limning differensial shart-sharoitlarini belgilaydi. Ajratilgan bolalar guruhlari uchun har xil turdagi maxsus maktablar tashkil etiladi: 1. Kar bolalar uchun maxsus maktablar; 2. Zaif eshituvchi va kechroq kar bo'lib qolgan bolalar uchun maktablar. Zaif eshituvchi bolalar maktabi ikki bo'limdan tashkil topadi: birinchi bo'limda nutqi yaxshi rivojlangan bolalar ta'lim-tarbiya olsa, ikkinchi bo'limda nutq nuqsoni og'ir bo'lgan bolalar tarbiyalanadi.

R.M.Boskisning psixologik-pedagogik tasnifi maktabgacha tarbiya muassasasidagi guruhlarda kar va zaif eshituvchi bolalarni komplektlash, ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar bog'chasiga qabul qilish chog'ida bolaning shaxsiy hujjatlarini o'rganiladi, unig ota-onasi bilan suhbatlashiladi.

Tayanch so'zlar:

- Senzitiv davr – inson organizmining funksiyalari, psixik jarayonlar samarali rivojlanishi uchun eng maqbul davr.
- Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar:
- Karlar – eshitish qobiliyati tug'ma, yoki ilk davrda chuqur va turg'un pasaygan va oqibatda maxsus pedagogik yordamsiz nutqni egallay olmaydigan bolalar.
- Zaif eshituvchilar – nutqni egallashga va nutqiy muloqotga to'sqinlik qiladigan eshitishi pasaygan bolalar.
- Kech(keyinchalik) kar bo'lib qolgan bolalar – 2-3 yoshda, yoki undan ham kechroq davrda eshitish qobiliyati yo'qolgan, nutqi saqlanib qolgan bolalar.

Nazorat savollari:

1. N.A.Rauning eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar pedagogik tasnifi nimalarga asoslanadi?
2. R.M.Boskis pedagogik tasnifining nazariy asoslarini bayon eting.
3. L.V.Neyman tasnifining asoslarini bayon eting.
4. Eshitish nuqsonlarining xalqaro tavsifini yoriting.

§13. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash

Jismoniy tarbiya

Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jismoniy rivojlanishining o'ziga xosligi, to'laqonli jismoniy tarbiyani ta'minlash uchun korreksion-tarbiyaviy ishlarni olib borish zarurligi jismoniy tarbiya mazmunini belgilaydi.

N. A. Rau eshitmaydigan bolalarning o'ziga xos nuqsonlarini ta'riflar ekan, shayqalib yurish, yurganda oyog'ini sudrash va shapillatish, harakatlarning qo'polligi, uyushmaganligi, muvozanatning buzilishi, tez tolikish, murakkabroq bo'lgan harakatlarni bajarishda qiyinchiliklar, muddatidan kechroq o'tirish va yurishga o'rganishi kabi xususiyatlarni e'tirof etadi. Bolalarning yaxshi eshita olmasligi va gapira olmasligi oqibatida nafas olish tizimidagi yetichmovshiliklar, nutqiy nafasning rivojlanmaganligi kuzatiladi.

Jismoniy mashg'ulotlarga gavdani to'g'ri tutish, muvozanatni saqlashga qaratilgan: arqon bo'ylab, taxta, o'rindiqlar ustidan yurish, yassi oyoqlikni bartaraf etish, yoki uning oldini olish mashqlari: kanat ustida yurish, oyoq uchida, tovonda yurish, narvonga chiqish, mayda va yirik harakatlarni rivojlantirish mashqlarini kiritish maqsadga muvofiq.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- bolalar sog'ligini muhofaza qilish;
- organizmni chiniqtirish va mustahkamlash;

- madaniy-gigienik malakalarni shakllantirish;
- harakatlarni rivojlantirish;
- jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan korreksion ishni tashkil etish;
- jismonii tarbiya bilan bog'liq holda bolalar nutqini o'stirish.

Jismoniy tarbiya quyidagi vositalar ko'magida amalga oshiriladi:

- bolalarning kun tartibi;
- to'g'ri ovqatlanish;
- jismoniy mashqlar;
- harakatli o'yinlar;

Mashg'ulotlarda harakatlar bilan birgalikda eshituv qobiliyatini rivojlantirish maqsadida, tovushli signallarni farqlashga va idrok etayotgan tovushlarga mos harakatlarni bajarishga o'rgatiladi. Bolalar baraban, doira tovushlarining ohangiga va maromiga mos ravishda harakatlarni bajarishga o'rgatiladi.

Borliqni idrok etish jarayoni harakat va faoliyat bilan bog'liqdir, shuning uchun bolalar harakatlarining rivojlanib borishi ularning aqliy o'sishiga ko'maklashadi. Jismoniy tarbiyalash jarayonida tarbiyachi bolalarning so'zlashuv muloqoti uchun zarur bo'lgan nutqni (har tomonlama, yahlit ravishda) idrok etilgan holda shakllantiradi. Tarbiyachining so'zlari, berayotgan ko'rsatmalarining barchasi yozuvli kartochkalarga bosma harflarda tuchiriladi hamda bola tomonidan ko'rib eshitgan holda og'zaki nutq va kartochkadagi yozuvlar qabul qilinadi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida tarbiyachi bolalarga so'zlashuv nutq vositasida muomalada bo'lishni o'rgatadi. Jismoniy tarbiya dasturida har bir o'quv yilida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan harakatlarni rivojlantirishga oid lug'at boyligi belgilangan.

Har bir o'rgatiladigan yangi jismoniy harakat bolalarga nutqsiz ko'rsatilib, bolalar harakatlarni taqlid qilib bajaradilar. Harakatlar o'zlashtirilgandan so'ng, mashq nutqiy ko'rsatma bilan uyg'unlashtiriladi, so'ng nutqiy ko'rsatmaga

muvofiq harakatlarni bajarishga o'tiladi. Keyinchalik barcha o'zlashtirilgan harakatlar faqat nutqiy ko'rsatma asosida bajariladi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida tarbiyachi haddan ortiq ko'p so'zlarni qo'llamasligi, jismoniy mashq va vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan minimal miqdordagi so'z va iboralardan foydalanishi kerak.

Bolalarga gavda qismlarining nomini, harakat yo'nalishini (yuqoriga, pastga, oldinga, orqaga, o'ngga, shapga, aylanish, sakrash), jismoniy tarbiya jihozlarining nomi va qanday maksadda ishlatilishi, ularni asrash va foydalanish, shuningdek, kiyim-kechak va poyabzalni toza saqlash qoidalari yozma nutq (kartochka), og'zaki-daktil va og'zaki ravishda tushuntiriladi. Nutqiy material avval passiv lug'atga, tushunish uchun keyingi bosqichlarda faol lug'atga kiritilishi kerak.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda sport mashg'ulotlariga kiziqish va ishtiyoqni, sport natijalariga, sportchilarning yutuqlariga qiziqishni tarbiyalash lozim.

Jismoniy mashqlar bolalar sog'ligining mustahkamlanishiga hizmat qilishi uchun o'yin va jismoniy tarbiya mashqlarini o'tkazish paytida bolalarda yaxshi kayfiyatni vujudga keltirish kerak. Ijobiy his-tuyg'ular fiziologik jarayonlar: nafas olish, yurak faoliyati, moddalar almashinuvining normal kechishiga yordam beradi. Bolalarning yaxshi kayfiyati aksariyat hollarda tarbiyachining bolalarga bo'lgan munosobatiga va muomalasiga bog'liq. Jismoniy tarbiya vazifalarining to'laqonli bajarilishi bolalar ta'lim-tarbiyasining samarali olib borilishiga xizmat qiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning aqliy tarbiyasi

Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash ishlari amalga oshiriladi.

Ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixik va fiziologik jarayonlari jadal rivojlanadi, ularning nutqi muloqot qilish hamda borliqni idrok qilishining vositasi sifatida shakllanib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kundalik

hayotida turli xil faoliyatni amalga oshirish jarayonida, katalar hamda o'z tengdoshlari bilan doimiy muomalada bo'lish sharoitida ularning aqliy rivojlanishi amalga oshiriladi. Bolalarni aqliy kamol topishi uchun tevarak atrofdagi borliq haqidagi tasavvurlarini, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga, psixik bilish jarayonlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni muntazam olib borish zarur.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash jarayonida zarur bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi, ularda borliq xaqida tasavvurlarni tarkib topiriladi, idrok, xotira, hayol, tafakkur kabi psixik jarayonlar rivojlantiriladi, shaxsning faollik, mustaqillik, sinchkovlik, qiziquvchanlik kabi ijobiy xislatlari shakllanadi.

Bolalarni aqliy tarbiyalash vazifalari quyidagilardan iborat: atrofdagi borliq to'g'risida tasavvur va tushunchalarni shakllantirish; psixik bilish jarayonlarini rivojlantirish: aqliy faoliyatning oddiy usullarini shakllantirish; muloqot vositasi sifatida og'zaki nutqni shakllantirish.

Bolalarning aqliy tarbiyasi jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan uyg'unlikda amalga oshirilib, yaxlit korreksion-tarbiya jarayonini tashkil etadi hamda bolaning umumiy kamolotini va maktab ta'limiga tayyorgarligini ta'minlaydi. Mashg'ulotlarda o'qitish, o'yin, mehnat va boshqa faoliyat turlari – maktabgacha yoshdagi eshitmaydigan va zaif eshituchi bolalarni aqliy tarbiyalash vositalaridan foydalaniladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni axloqiy tarbiyalash vazifalari

Surdopedagoglar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar axloqiy tarbiyasini ilk yoshdan boshlab, ishni to'g'ri yo'lga qo'yish natijasida eshitishda nuqsoni bo'lgan bola eshitadigan tengdoshi kabi ijobiy axlokiy sifatleri tarbiyalanishi mumkinligi e'tirof etiladi. Biroq, bunda atrofdagi narsalarni yetarli tushuna olmasligi va o'z kechinmalarini so'z bilan bayon eta olmasligi uning xarakterida o'ziga xosliklarni vujudga keltirishini unutmazlik kerak.

Eshitish qobiliyatining pasayganligi maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning axloqiy tarbiyasini murakkablashtiradi, sababi nutqining shakllanmaganligi uchun, bola eshitadigan tengdoshlaridek axloqiy me'yor qoidalarini to'la o'zlashtira olmaydi. Olib borilgan kuzatishlar maktabgacha muassasalarga kelgan bolalarda uch yoshgacha oila sharoitida faqat madaniy-gigienik ko'nikmalar xosil bo'lishini ko'rsatadi. Faqatgina nutqni maxsus o'stirib borilgandagina bolalar atrofdagilar bilan muomala qilishda, borliqni o'rganishda so'zlardan foydalana boshlaydilar. Tarbiyalanuvchilar nutqini o'stirish bilan bir vaqtda axloqiy tarbiya nutq vositasida izchillik bilan amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash vazifasidan kelib chiqqan holda bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy his-tuyg'ularini, shaxsiy sifatlarini va xulqini tarbiyalash va rivojlantirish talab etiladi. Axloqiy tarbiyaning vazifalari asosan quyidagilardir:

1. Bolalarda axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash;
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash;
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning axloqiy tasavvurlarini shakllantirish.

Ta'limning dastlabki yilida bolalarga odobli va intizomli bo'lishni o'rgatar ekan, pedagog ularda «mumkin», «mumkin emas» degan tushunchalarni tarkib toptiradi va ijobiy misollar asosida tarbiyalanuvchilar nutqiga «mehribon», «saxiy», «g'amxo'r» va boshqa shu kabi so'zlarni kiritadi.

Axloqiy his-tuyg'u va tushunchalarni shakllantirishda bolalarga badiiy adabiyotlarni o'qib berish va hikoya qilish katta ahamiyatga egadir. Kattalar bolalarga tushunarli tilda hikoya va ertaklar mazmunini tushuntirib beradilar, bolalarni qahramonlar olamiga olib kirishadi, ularning xatti-harakatlarini tushuntirishadi va baholashadi.

Badiiy asarlarning syujeti va matni murakkabligi tufayli, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan bunday adabiyotdan foydalanish imkoniyati cheklanadi. Shu sababli bu bolalarni eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan

va soddalashtirilgan matnlardan iborat hikoya, ertak va boshqa asarlar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir.

Surdopedagog va tarbiyachi daktil nutq, soʻzlar yozilgan kartochkalardan foydalangan holda oʻyinchoqlar yordamida syujetni sahnalashtirib, hikoya mazmunini bolalarga etkazadi. Bolalar tarbiyachining ogʻzaki–daktil hikoyasini idrok etadilar va qoʻgʻirchoqlarning xatti-harakatlarini kuzatadilar. Hikoya mazmuniga muvofiq oʻtkazilgan syujetli-rolli uyinlar, matn yuzasidan savol-javoblar hikoyaning mazmunini anglashga, qahramonlarning feʼl-atvorini tushunishga, ularning axloqini baholashga yordam beradi. Hikoya qilish va oʻyin jarayonida singdirilgan axloqiy tushunchalar hayotga tadbiiq etiladi.

Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning estetik tarbiyasi

Maktabgacha taʼlim muassasalari tarbiyachilari bolalarning qobiliyatlaridan qatʼi nazar sanʼatning barcha turlari bilan tanishtirishlari va badiiy qobiliyatning har tomonlama rivojlantirishini taʼminlashlari zarur.

Bolalarning badiiy ijodiyoti tasviriy sanʼat, musiqa, badiiy soʻz, teatr kabi rang-barang turlarni oʻz ishiga oladi. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning bilish jarayonidagi oʻziga xosliklar va eshituvning keskin pasayishi estetik tarbiya jarayonini murakkablashtiradi.

A.A.Venger, A.P.Gozova, T.V.Rozanova N.M. Solovev-larning psixologik tadqiqotlari, kar bolalarning koʻrish va taktil–vibrasiyani idrok qilish qobiliyatlari eshitadigan tengdoshlarga nisbatan orqada qolishi – eshitmaslik va ogʻzaki nutqning kechikib rivojlanishining oqibati ekanligini koʻrsatadi. Xarakterlanish, xususan mayda qoʻl motorikasining orqada qolishi oqibatida rasm solish malakalari kechikib rivojlanadi. Eshituv idrokining cheklanganligi bolalarni musiqani sanʼat janri sifatida anglash imkoniyatidan mahrum qiladi hamda kar va zaif eshituvchi maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy tarbiyasi oʻziga xos ravishda kechishiga olib keladi.

Maktabgacha surdopedagogika fani estetik tarbiyaning quyidagi vazifalarini belgilaydi:

- bolalarda estetik idrok,
- estetik his – tuygʻular va tushunchalarni rivojlantirish;
- badiiy didni tarbiyalash, badiiy qobiliyatni rivojlantirish, oʻz fikrlarini va his-tuygʻularini sanʼat vositasida ifodalash ehtiyojini tarbiyalash; estetik tarbiya bilan bogʻliq holda nutqni rivojlantirish.

Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning estetik tarbiyasi nutqni rivojlantirish bilan uygʻunlikda amalga oshiriladi. Har bir mashgʻulotda surdopedagog va tarbiyachi nutqiy muloqotni tashkil qilish uchun zarur boʻlgan lugʻatni, shuningdek alohida mashgʻulot turi uchun zarur boʻlgan soʻzlar zahirasini shakllantiradilar. Masalan, tasviriy faoliyat bilan bogʻliq mashgʻulotlar amaliy koʻnikmalar bilan bir qatorda ishlatiladigan materiallarning (loy, qogʻoz, elim), harakatlarning (yasash, chizish, boʻyash, qirqish, elimlash), jihozlarning (qalam, moʻyqalam, flomaster) nomlarini anglatuvshi soʻzlar hamda «Shar rasmini chiz», «Men shar rasmini chizdim», «Shar rasmini chizish mumkin» kabi iboralar beriladi. Bundan tashqari tasviriy faoliyatni baholash uchun chiroyli, xunuk, yorqin, uygʻun, puxta kabi tushunchalar beriladi. Zarur soʻzlar bolalarga ogʻzaki ravishda va yozma jadvallarda etqaziladi hamda ularning amaliy faoliyati jarayonida mustahkamlanadi.

Tasviriy faoliyat mashgʻulotlarida bolalar oʻzlari idrok qila oladigan rang-barang tasviriy sanʼat asarlari bilan tanishtiriladi. Bolalar bilan birgalikda rasmni tomosha qilgan tarbiyachi ularga zavqlanishni namoyon qiladi, faoliyatni qanday soʻzlar bilan baholashni oʻrgatadi va shunday qilib bolalar nutqini rivojlantiradi.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalar adabiy asarlari bilan tanishtiriladilar, ertaklar oʻqiydilar, topishmoq topadilar, sheʼrlar yodlaydilar. Surdopedagog, va tarbiyachi hikoya va ertaklarning mazmunini emotional soʻzlab berarkan, bolalarni qahramonlar olamiga olib kiradilar, ularda ijobiy his-tuygʻularini uygʻotadi. Shu tariqa, bolalarning nutqi yangi soʻz va iboralar bilan boyitiladi, borliq haqidagi tasavvurlari mustahkamlanadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning mehnat tarbiyasi

Maxsus bolalar bog'chasida tashkil etilgan kundalik hayot davomida bolalarda mehnat qilish ehtiyoji, jamoada ishlash istagi tarkib toptiriladi. Mehnat tarbiyasining mazmuni eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bog'chasi dasturida aks ettirilgan. Unda ta'limning birinchi yilidan boshlab bolalarda shakllanishi zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalari va malakalari, bolalar muloqotida shakllanadigan zarur lug'at hajmi ko'rsatilgan. Maxsus bolalar bog'chasida tarbiyalanuvchilar yoshiga xos holda o'z-o'ziga xizmat qilish, xo'jalik-maishiy mehnat, tabiatdagi mehnat, qo'l mehnatiga jalb etiladi.

Maxsus maktabgacha muassasalarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning mehnat tarbiyasi quyidagi vazifalarni hal etishga qaratiladi:

1. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va mustaqil harakatlar ko'nikmalarini tarbiyalash;
2. Mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
3. Kattalarning mehnati bilan tanishtirish va mehnat ahliga hurmat xissini tarbiyalash;
4. Mehnat tarbiyasi bilan bogliq holda nutqni rivojlantirish.

Bolalarning mehnat faoliyati ularning nutqini shakllantirish bilan uyg'unlikda tashkil etilishi kerak. Bola unga qaratilgan og'zaki nutqni global idrok qilish asosida nutqiy muloqotga o'rgatiladi. Mehnat faoliyati jarayonida muloqot qilish zarurati paydo bo'lib, bolani buyumlar, harakat va sifatlarning nomini eslab qolishga va kattalarga murojaat qilishda og'zaki nutqdan foydalanishga undaydi. Barcha mehnat malakalarini mustahkamlash jarayonida zarur so'zlar va topshiriqlar yozuvli jadvallarda ko'rsatiladi. O'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish malakalarini va nutqiy materialni mustahkamlashda o'yin usullaridan keng foydalaniladi. Bunda bolalarga topshiriq, qo'g'irchoqlar beriladi hamda didaktik o'yinlar o'tkaziladi. Masalan, «Qo'g'irshoq uyg'ondi» o'yinida bolalar tarbiyachi bilan birgalikda qo'g'irchoq harakatlarini ifodalovshi so'zlarini og'zaki qaytaradilar.

Mehnat mashg'ulotlarida tarbiyachi ravon, aniq, tushunarli, grammatik jihatdan to'g'ri nutqdan foydalanadi, bolalarning nutqiy muloqotini rag'batlantiradi.

Tushunchalarni mustahkamlash uchun tarbiyachi kichik matnlardan foydalanadi. («Navbatchi qiz», «Onam bilan», «Uyni tozalash», «O'zimiz gul ekdik»). Masalan, «Navbatchi qiz» matnidan Dilnoz navbatchi bo'lganida, tushlikka dasturxon tuzatganini, likobshalar, kosalar, non va soshiqlarni qo'rganini, lekin koshik qo'yishni esdan shikarganini bilib olishadi. Bolalar ovqatga o'tirishadi, ammo shunda qoshiqlar yo'qligi bo'linib qoladi. Tarbiyachi bilan birgalikda Dono beparvo qiz ekanligi haqida xulosa shiqariladi. Hikoyalar syujeti sodda bo'lib bolalarning hayotidan olinadi va maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat tarbiyasiga xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar:

Og'zaki-daktil – so'zlarni gapirib, ayni paytda so'zdagi harflarni barmoqlar orqali ko'rsatish.

Passiv lug'at – nutqda foydalanilmaydigan, lekin tushuniladigan lug'at.

Aktiv lug'at – nutqda ishlatiladigan so'zlar.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning tutgan roli.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash vazifalari.
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiyalashda korreksion ishning mohiyati nimada?
4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash vazifalarini yoritib bering.
5. Axloqiy tarbiya vazifalarini aytib bering.
6. Axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash vositalari haqida gapirib bering.
7. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash vazifalarini oshib bering.
8. Bolalarni estetik tarbiyalash qanday vositalar orqali amalga oshiriladi?

9. Kar va zaif eshituvchi bolalarni estetik tarbiyalash bilan bog'liq holda nutqni rivojlantirish ishi qanday olib boriladi?

10. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning mehnat tarbiyasi vazifalari nimalardan iborat?

11. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqi mehnat tarbiyasi bilan bog'liq holda qanday rivojlantiriladi?

§14. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni normal eshituvchi bolalar jamoasiga uyg'unlashtirish

Ma'lumki, alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim olishdagi imkoniyatlari har xil bo'ladi. Bu har xillik ularning aqliy va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklar darajalari hamda yoshga doir xususiyatlari bilan belgilanadi. Ushbu holat alohida yordamga muhtoj bolalarga maxsus yondashib ta'lim berish qanchalik o'ziga xos, keng qamrovli va murakkab jarayon ekanligini ko'rsatsa, inklyuziv ta'lim esa, undan-da kompleks yondashuvli, ijtimoiy yo'nalgan hamda oila, mahalla, pedagogik jarayonga taalluqli mutasaddi tashkilotlar ishtiroki talab etiladigan jarayon ekanligiga tavsif beradi.

Alohida yordamga muhtoj bolalar qatorida eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ham bor. Ularning sog'lom tengqurlari bilan uyg'unlashuvi murakkab kechadi. Ushbu murakkablik mazkur bolalar muloqot ko'nikmalarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Eshitmaydigan yoki zaif eshituvchi bolalar o'zlarini barcha sog' bolalar kabi jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida his etishi, ijtimoiy hayot va mehnatga moslashishi ta'lim muassasasida, ta'lim jarayonida egallagan bilim, ko'nikmasi va malakalariga bogliq. Odatda bunday bolalar, o'z ehtiyoji va xohishlarini cheklangan imkoniyatlari darajasida deb o'ylaydi va aksariyat holatlarda o'z «olam»ida yashaydi. Natijada ular atrofdagi sog'lom kishilar, tengqurlari tomonidan iliq munosabat, yordam va kerakli e'tibor ko'rsatilishidan ular uyaladi, tortinadi. Bunday vaziyatning oldini olish uchun imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar hamda jamoatchilik o'rtasida o'zaro munosabat, do'stona muhit yaratilishi lozim.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarda imkoniyatlar motivatsiyasi, ularning qalbiga yo'l topish, ular "tili"da gapirish, ularning hissiyotlari bilan o'rtoqlashish asosida rivojlantiriladi, ya'ni ularga ham barcha bolalar kabi "bolalik" qilish, beg'ubor xohish, ishtiyoq, kiziqish va ehtiyojlar zamirida jamiyatda yashab rivojlanishi uchun sharoit, ruhiy, pedagogik muhit yaratilishi lozim.

Qashonki bola o'zini inklyuziv ta'lim jarayonining teng xuquqli a'zosi sifatida his etsa, shunda pedagog va bolalar (sog'lom bola va kar yoki zaif eshituvchi o'quvchi) o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda to'siq (barer) yo'qoladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash bosqichlari:

1. O'rganish bosqichi. Ushbu bosqichda ta'lim bilan qamrab olinmagan bolaning yosh xususiyatlari, aqliy va nutqiy imkoniyatlari (tashhis asosida), oilaviy sharoiti hamda bolaning yashash manziliga yaqin joylashgan maxsus va inklyuziv muassasalar mavjudligi o'rganiladi.

2. Yo'naltiruvchi bosqich.

Ushbu bosqichda:

- agar bola eshitish va nutqiy imkoniyatlari umumta'lim maktabgacha ta'lim muassasasi, maktabda ta'lim (maxsus mutaxassis nazorati ostida) olishga mos bo'lsa, inklyuziv ta'limga moslashtirilgan (resurs o'qituvchi, maxsus vositalar, metodik ta'minot, ruhshunosni, pedagogni) tashkiliy, ijtimoiy muhit yaratilgan muassasaga yuboriladi;
- agar savodi umuman chiqmagan, nutqiy muloqot ko'nikmalari imo-ishoralardan iborat bo'lsa, bunday (eshitmaydigan) bolalar savodi chiqishi, umumqabul qilingan imo-ishoralalar va daktil nutqni qo'llashga o'rganishi, dastlabki hayotiy ko'nikmalari shakllanishi uchun maxsus korreksion yondashuv tashkil etiladigan maxsus ta'lim muassasalariga yuboriladi;
- sharoiti, iqtisodiy ahvoli maxsus korreksion jarayonni surdopedagog yollash asosida tashkil etishga mos keladigan oilalar farzandlari tumanda faoliyat ko'rsatayotgan resursdagi o'qituvchilarga biriktirilishi mumkin.

3. Jarayonni kuzatish bosqichi.

Ushbu bosqichda:

- inklyuziv ta'limga tayyorlanayotgan bolaning aqliy va nutqiy rivojlanishi;
- inklyuziv ta'limga jalb etilgan bolaning sog'lom tengqurlari orasida uyg'un ta'lim olishi (jamoada o'zini erkin va qulay tutishi, o'quv materiallarni qabul qilishi va uzatishi, shu bilan birga bolaga bo'lgan maxsus ta'limiy-rivojlantiruvchi jarayonning to'laqonli amalga oshirilishi) kuzatiladi.

4. Natijalarni tahlil qilish bosqichi. Ushbu bosqichda natijalar tahliliga ko'ra bola tegishli muassasalarga yuborilishi yoki ta'lim (inklyuziv, maxsus-korreksion, integrasion) mazmuni va muassasa moddiy-texnika hamda metodik negizining bola imkoniyatiga moslashtirilishi yuzasidan tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ta'lim jarayoni xoh inklyuziv, xoh integrasion, xoh korreksion tashkil etilgan bo'lsin, unda do'stona muhitning yaratilishi tarbiyachi va o'qituvchining kasbiy mahoratiga va muassasa infrastrukturasi bolalardagi turfa imkoniyatlarga moslashtirilganligiga bevosita bog'liqdir. O'qituvchi va tarbiyachi faoliyati ta'lim jarayonining boshqaruvchisi, yo'naltiruvchisi va hokazo sifatida mazmun kasb etar ekan, eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchi bevosita ishtirokchi sifatida ta'lim jarayonida o'zining "shaxs" mavqeini anglamog'i lozim.

- Bola shahsini har tomonlama kamol toptirish hamda uni jamiyatdagi hayotga tayyorlash zamonaviy maktablar oldida turgan asosiy vazifadir. So'zlashuv, nutq ushbu vazifalarni hal etilishida markaziy o'rinni egallaydi. Ma'lumki, til vositasi yordamida inson muloqotga kirishadi, ushbu muloqot jarayonida axborot oladi, fikr almashadi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Inson hayotida ana shunday zaruriy ahamiyatni kasb etuvchi tilni o'zlashtirish faqatgina kommunikasiya sharoitida amalga oshiriladi.
- Eshitishning inson hayotida o'ta muhim ahamiyat kasb etishi uning so'zlashuv nutqini rivojlantirish omili ekanligi bilan asoslanadi.

- Zaif eshituvchi bolada inson uchun o'ta zarur bo'lgan analizator eshitish faoliyatining to'liq emas, qisman buzilishi yuzaga kelgan.
- Ushbu me'yordan chetga chiqish nutqning mustaqil ravishda biroz shakllanishigagina imkon beradi: bola atrofdagilar nutqini qanday eshitsa, shunday o'zlashtiradi. Zaif eshituvchi bolaning nutqi rivojlana olmasdan qolib, balki buzilishi ham ana shundan.
- Masalan, lug'at zahirasi kamligi bilan bir qatorda, so'zlarning boshqa ma'nolarda ko'llanilishi, grammatik tizimning rivojlana olmasligi bilan bir qatorda ular ma'nolarining noto'g'ri tushinishi kuzatiladi. Bunday yo'l bilan nutqni egallashning o'ta chekkalanganligi bolaning tushuncha va tasavvurlari (nutqning keyingi idroki hamda tushunilishi)da o'zgacha aks etadi. Bularning barchasi bolaning bilish faoliyati rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi: taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, diqqatni chetga tortishlar zaif eshituvchi bolalarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Dunyoga kelgan har bir go'dak yashash, tarbiya va ta'lim olish huquqiga egadir. Ushbu huquqqa ham sog'lom, ham nogiron bolalar toifasidan sanaluvchi eshitishida muammolar bo'lgan bolalar ham egadirlar. Qayd etilgan fikr qator xalqaro va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan me'yoriy hamda huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Maktabgacha davr – rivojlanishida eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni sog'lom rivojlanayotgan bolalar jamoasiga samarali uyg'unlashuvi uchun eng maqbul davr hisoblanadi.

Maktabgacha va ilk maktab yoshidagi eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limini amalga oshirishda oilaviy tarbiya katta ahamiyat kasb etishi, ularni barcha sharoitlar yaratilgan umumta'lim muassasasiga joylash bilan kifoyalanib bo'lmasligini ta'kidlashimiz lozim. Ota-onalar yoki bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvshilar, oila a'zolari zaif eshituvchi bolaning uyda bo'lgan vaqtlarida inklyuziv ta'limda ishtirok etuvchi pedagog xodimlar ishinig

davomshilari sanalib, ushbu mutaxassislarining rahbarligi ostida inklyuziv ta'lim va tarbiya borasidagi kelgusi barcha ishlar uchun zamin hozirlaydilar. Bolaning so'zlashuv nutqini rivojlantirish hamda kommunikativ malakalarini shakllantirish bo'yicha ishlar tashxis qo'yilgan va ovoz kuchaytirgich asbob bilan ta'minlangan ilk kunlardan boshlanishi samarali natija beradi.

Tayanch so'zlar:

Inklyuziv ta'lim – rivojlanishida turli muammolari bo'lgan bolalarni sog'lom rivojlanayotgan bolalar ta'lim muassasalarida, zarur shart-sharoitlar yaratgan holda o'qitish.

Kommunikasiya – nutqiy muloqot.

So'zlashuv nutq – og'zaki, yozma, daktil nutq.

Resurs o'qituvchi – alohida yordamga muhtoj bola bilan korreksion-pedagogik ishni olib boruvchi defektolog.

Muassasa infrastrukturasi moslashtirish – muassasa binosi, xonalari, kirish yo'llarini rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar erkin harakatlanishi uchun moslashtirish.

Savollar:

1. Inklyuziv ta'lim nima?
2. Integrasiya jarayoni deb nimaga aytiladi?
3. Alohida yordamga muhtoj bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish bosqichlarini aytib bering.
4. Inklyuziv ta'limda ta'lim qatnashuvchilarining hamkorligi qanday amalga oshiriladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Āī nēēñ Đ.Ī . Āēōōēā è nēī āāñēŪī àùēā āāōē. Ī . «Āēāāī ñ» 2003 ā.
2. Āāēī āā Ī . Ē. Ñī āōēāēūī āy āī øēī ēūī āy ñōđāī ī āāāāī āēēā Ī . 1985 ā.
3. Āī ēī ā+ēē Ē.Ā. Āī øēī ēūī āy ñōđāī ī āāāāī āēēā Ī . Āēāāī ñ 2001 ā.
4. P. Yusupova Maktabgacha tarbiya pedagogikasi T. «O'qituvchi» 1992 y.
5. Ñī āōēāēūī āy āī øēī ēūī āy ī āāāāī āēēā è ī ñēōī ēī āēy. Ī đī āđāī ī ā āēy āóçī ā ī ī ā đāā. Ā.Ē Ñāēēāāđñōī āā, Ī ī ñēāā, Āēāāī ñ 2001 ā.

IV BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI NUTQIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARNI O'QITISH VA TARBIYALASH

§14. Logopediya fanining maqsadi, vazifalari va ob'ekti

Logopediya nutk faoliyati buzilishining sabablari, mexanizmlari, alomatlari, oqimlari tarkibini o'rganadi. Shuning uchun uni maxsus pedagogika sirasiga qo'shadilar.

«Logopediya» yunon tilida «logos» (so'z, nutq), «peydeo» (tarbiyalayman, o'qitaman) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, «to'g'ri nutqni tarbiyalash» ma'nosini bildiradi.

Logopediyada nutq normalari va uning buzilishi tushunchasini farqlash muhimdir.

«Nutq normasi» deganda, nutq faoliyati jarayonidagi til ishlatilishining umumiy qabul qilingan variantlari tushuniladi. Nutqning normal faoliyati holatida uning psixofiziologik mexanizmlari saqlangan bo'ladi.

Nutq kamchiliklari gapiruvchi shaxsning ma'lum til muhitida qabul qilingan, nutq faoliyati zaiflashuviga bog'liq holda til me'yorlaridan chetlashuvi bilan belgilanadi.

Kommunikativ nazariya nuqtai nazaridan qaraganda, nutq buzilishlari bu aloqa vositasining buzilishidir.

Logopediya fanining maqsadi: nutq kamchiligini o'rganish, bartaraf etish va oldini olish.

Logopediya fanining ob'ekti: nutq kamchiligiga ega bo'lgan shaxs.

Logopediya fanining vazifalari:

1. Nutq kamchiliklarini aniqlash, saralash, logopedik ko'rikdan o'tkazish;
2. Nutq kamchiliklarining kelib chiqish sabablarini aniqlash;
3. Nutq kamchiliklarini logopedik ko'rikdan o'tkazish metodlarini ishlab chiqish va qo'llash;

4. Nutq kamchiliklarini bartaraf etish metodlari va vositalarini ishlab chiqish;
5. Nutq kamchiliklarini tartibga solish;
6. Nutq kamchiliklarining oldini olish metodlarini takomillashtirish;
7. Logopedik yordamni tashkil etish masalalarini ishlab chiqish;
8. Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliy logopediyaga kiritish.

Qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- Fanlararo aloqalardan foydalanish va nutq hamda undagi nuqsonlarni o'rganuvchi ko'plab mutaxassislar (psixologlar, neyropsixologlar, neyrofiziologlar, tilshunoslar, pedagoglar, turli ixtisosdagi shifokorlar va boshqa kishilar) ni hamkorlikda ish olib borishga jalb etish.
- Nazariya sohasidagi yangiliklarni amaliyotga tezroq tatbiq etish uchun fan va amaliyot o'rtasidagi aloqalarni, nazariy muassasalar orasidagi hamkorlikni ta'minlash.
- Nutqning buzilishini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish tamoyillarini amalga oshirish.

Nutq buzilishining oldini olish uchun aholi o'rtasida logopedik bilimlar targ'ibotini olib borish.

§15. Logopediya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Logopediya fanining tushuncha va atamalari

Logopediya umumiy anatomiya va fiziologiya, nutq mexanizmlari, nutq jarayonining bosh miyada tashkil etilishi haqidagi, nutq faoliyatida ishtirok etadigan analizatorlarning qurilishi hamda harakatga kelishi haqidagi bilimlardan foydalanadi.

Logopediya – otolaringologiya, nevropatologiya, psixopatologiya, oligofreniya klinikasi, pediatriya bilan uzviy bog'langan. Jumladan, nutq va eshitish a'zolarining patologi-

yasi nafaqat buzilishlari etimologiyasini aniqlashga, balki tibbiy ta'sir ko'rsatish bilan bo'ladigan logopedik ishlarni to'g'ri qo'shib olib borish uchun ham imkon beradi.

Logopediya – tilshunoslik va psixolingvistika fanlari bilan uzviy bog'langan. Nutq tillar birligining turli darajasi va ularning amal qilish qoidalaridan foydalanishni ham nazarda tutadi.

Logopediya umumiy, maxsus psixologiya va psixodiagnostika bilan chambarchas bog'langandir.

Logoped uchun bolaning ruhiy rivojlanish qonuniyatlarini bilish, turli yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlash metodlarini bilish zarurdir. Tizimlar ichidagi va tizimlararo aloqalar bor. Tizimlar ichidagi aloqalarga pedagogika hamda maxsus pedagogikaning turli sohaları: surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika metodikasi, umumiy va maxsus psixologiya bilan bo'ladigan aloqalar kiradi. Tizimlararo aloqalarga esa tibbiy-biologik va tilshunoslik fanlari o'rtasidagi aloqalar kiradi.

Logopediya fanining tushuncha va atamalari

Har qanday fanning ajralib chiqishi va mavjudligining majburiy sharti undagi o'z tushunchalari, o'ziga xos atamalarning mavjudligidir.

Nutq buzilishlarini belgilash uchun, shuningdek, «nutqning nuqsonlari», «nutq kamchiliklari» «nutq buzilishlari» kabi nutq atamalari ishlatiladi. «Nutqning to'liq rivojlanmaganligi» va «nutq buzilishi» tushunchalari bir-biridan farq qiladi, «nutqning to'liq rivojlanmay qolishi» atamasi nutq faoliyati buzilishining faqat alomatli darajasinigina xarakterlaydi. Bundan tashqari, bunday buzilishda ko'pincha nutqning rivojlanmay qolishiga nisbatan uning tizimli buzilishi kuzatiladi.

«Nutqning parchalanishi» tushunchasi mavjud bo'lgan nutq ko'nikmalari va kommunikativ malakaning (bosh miyaning lokal yoki diffuziyali xastalanishi oqibatida) yo'qolganligini anglatadi.

Nutqning buzilishi alomati – bu nutqiy faoliyatning qandaydir buzilishi belgisi (namoyon bo'lishi) dir.

Nutqiy buzilish alomati – bu nutqiy faoliyat buzilishining belgilari majmui (ko‘rinishlari) dir.

Nutq buzilishi mexanizmlari deganda, nutqiy faoliyat buzilishining paydo bo‘lishi va rivojlanishini shart qilib qo‘yuvchi jarayon va operatsiyalarning bajarilishidan chetlashish xarakteri tushuniladi.

Nutq buzilishining patogenezi – bu nutqiy faoliyatda buzilishlarning paydo bo‘lishi va rivojlanmay qolishiga sabab bo‘luvchi patologik mexanizmdir.

Nutq buzilishlarini bartaraf etishda shunday tushunchalar qo‘llaniladi: «logopedik ta‘sir etish», «tuzatish», «o‘rnini to‘ldirish», «rivojlantirish», «o‘qitish», «tarbiyalash», «qayta tarbiyalash», «tuzatish tarbiyalash orqali o‘qitish» va boshqalar.

Logoped – bolalar va kattalar nuqtidagi kamchiliklarni bartaraf etish bilan shug‘ullanadigan pedagog. Logopedning vazifasi nutqida nuqsonlari bor kishilarni aniqlash, nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etish, nuqsonlarning oldini olish, logopediya bilimlarini aholi va o‘qituvchilar o‘rtasida tashviq qilishdan iborat. Oliy defektologiya ma‘lumotiga ega bo‘lganlarga logoped bo‘lib ishlashlari mumkin. Toshkent Davlat pedagogika universitetining defektologiya fakultetlari logopedlarni tayyorlaydi. Logoped umumta‘lim maktablari qoshidagi logopedik punktlarda, maxsus nutq o‘stirish maktablarida va bog‘chalarda, poliklinika, psixonevrologik dispanserlar qoshidagi logopedik kabinetlarda ishlashlari mumkin.

Logopedik ta‘sir nutqiy faoliyat buzilishini tuzatish, nutqi buzilgan bolani tarbiyalash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni o‘z ichiga oladi.

Nutq buzilishini tuzatish - nutq buzilishi alomatini to‘g‘rilash yoki engillashtirishdir («nutq buzilishlarining oldini olish», «tuzatish» – bu borada qo‘llaniladigan atamalardir).

Kompensasiya (muzdlash) – organizmning qandaydir harakatlarining yo‘qolishi yoki buzilishi hollaridagi psixologik funksiyalarni qayta qurishning ko‘p qirrali, murakkab jarayonini o‘zida namoyon qiladi. Tenglik, shakllanmagan va buzilgan

nutqli hamda nutqsiz harakatlarning rivojlanishi va tiklanishi logopedik ta‘sir etishning maxsus tizimidan qo‘llanish asosida amalga oshadi. Bu jarayonda kompensasiya shakllanadi.

O‘qitish – ikki tomonlama boshqariladigan jarayondir. U bolalarning bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish borasidagi faol bilish faoliyatini, bu faoliyat ustidan pedagogik rahbarlikni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. O‘qitish jarayoni uzviy birlikdagi ta‘lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Tarbiyalash jamiyat ehtiyojlariga muvofiq ravishda shaxsning yoki uning alohida sifatlarining shakllanish jarayonini maqsadga yo‘naltirilgan holda uzluksiz, tashkiliy tarzda boshqarish demakdir.

Qayta tarbiyalash jarayonida nutqiy faoliyati buzilgan kishilarning o‘ziga xos muhim xususiyatlarini tuzatish ishlari amalga oshiriladi. Bosh miya ma‘lum qismining xastalanishi hollaridagi logopedik ishlarda buzilgan nutqiy va nutqsiz vazifalarni tiklashga qaratilgan tiklovchi ta‘limda foydalaniladi. Bunday ta‘lim asosida harakatning saqlanib qolgan qismiga tayanish va barcha funksional tizimni qayta qurish yotadi. «Nutqni tiklash» atamasi afaziya davridagi nutq buzilishining, aksincha, rivojlanishini belgilash uchun qo‘llaniladi.

1. Dislaliya – bolaning normal eshitishi, ko‘rishi va nutq apparatining tuzilishi va faoliyati saqlangan holda tovush talaffuzining buzilishi.

2. Rinolaliya – pereferik nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlap bilan bog‘liq holdagi ovoz va tovush talaffuzining buzilishi.

3. Dizartriya – markaziy nutq apparatining organik shikastlanishi natijasida tovush talaffuzining buzilishi.

4. Disfoniya – ovoz apparatining patologik o‘zgarishlari oqibatida ovozning zaiflashuvi.

5. Afoniya – nutq (ovoz) apparatining patologik o‘zgarishlari oqibatida ovozning yo‘qolishi.

6. Alaliya – bolaning bosh miya qobig‘idagi nutq zonalarining ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organik shikastlanishi natijasida nutqning rivojlanmay qolishi.

7. Afaziya – bosh miyaning nutq zonalarining joyi shikastlanishi bilan bog‘liq holda nutqning to‘liq yoki qisman yo‘qolishi.

8. Duduqlanish – nutq apparati mushaklarini ixtiyoriy pay tortishishi natijasida sur‘at-ohangning buzilishi.

9. Bradilaliya – nutqning patalogik sekinlashgan sur‘ati.

10. Taxilaliya – nutqning patologik tezlashgan sur‘ati.

11. Disgrafiya – yozish jarayonining qisman buzilishi.

12. Agrafiya – yozish jarayonining mutlaq yo‘q bo‘lishi.

13. Disleksiya – o‘qish jarayonining qisman buzilishi.

14. Aleksiya – o‘qish jarayonining mutlaq yo‘q bo‘lishi.

§16. Logoped shaxsi

Logoped umumnazariy va maxsus ixtisosli bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi kerak. Bu bilimlarning majmui va kengligi unda nuqsonli rivojlanishning tipologiya va tarkibi, nutqiy nomukammallikning oldini olish va uni bartaraf etish usullari haqidagi, ruhiy-pedagogik ta‘sir etish metodlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

Logoped nutq buzilishlarini payqab olishi, ularni tuzatish va bartaraf etish usul hamda metodlarini egallagan bo‘lishi, bunday nuqsonlarning oldini olishga doir profilaktik ishlarini yo‘lga qo‘yishi, nutqi zaiflashgan bolalarni maktabgacha tarbiya yoshida ham, maktab yoshida ham ona tili bo‘yicha o‘qitishning maxsus metodlaridan qo‘llay olishi, g‘ayritabiiy nutqli bolalarning muhim psixik xususiyatlarini bilishi, ularni tarbiyalash usul hamda metodlarini egallagan bo‘lishi, ulardagi oliy miya qobig‘i faoliyatini tuzatish va rivojlantirish uslublarini qo‘llay olishi kerak. Logopedning ixtisosi bo‘yicha chuqur bilimga egaligi dasturlarni, maktab darsliklarini, logopediya bo‘yicha qo‘llanmalarni bilishni o‘z ichiga oladi. Bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va ularning buzilgan nutqlari yuzasidan

olib boriladigan ishlarning samaradorligiga erishish uchun logopedning shaxsi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. U quyidagi asosiy sifatlarni:

- kasbiga qiziqish;
- bolalarni sevish;
- o‘ziga va atrofdagilarga talabchanlik;
- pedagogik ijodiy xayol va kuzatuvchanlik;
- samimiylik, kamtarlik, mas‘uliyatlilik, so‘zda va amalda qat‘iylilik va izchillikni o‘zida namoyon etadi.

Logoped ilg‘or tajribalarni umumlashtirib bolalarning nutqini tuzatishning eng yaxshi vositalari bo‘yicha izlanish olib borishi kerak. U egallab olishi lozim bo‘lgan malakalar keng va turlichadir: o‘quv-bilish (adabiyotlar bilan ishlash, bolani kuzatish, pedagogik jarayonni modellashtirish, tuzatish-tarbiyalash orqali ta‘sir etishning samarali yo‘llarini tanlash va boshqalar); o‘quv-tashkiliy ishlar (muqobil va kalendar rejalashtirish, yakka tartibda va guruhli mashg‘ulotlar o‘tish, jihozlarni yaratish, keng kamrovli ta‘sir etishni ta‘minlash hamda bu qamrovda ishtirok etish va boshqalar); o‘quv-pedagogik ishlar (har bir voqeani tahlil qilish, tuzatishning aynan bir xil vositalarini tanlash va hokazo).

Bundan tashqari, logopedning ishi deontologiya tamoyillariga qat‘iy amal qilishga asoslanishi kerak (logoped nutqi buzilgan shaxs, uning qarindoshlari, ish joyidagi hamkasblari bilan bo‘ladigan o‘z munosabatlarini qanday tashkil etishi lozim) degan muammolar ham mavjud.

Pedagogik deontologiya pedagogik etika va estetika, pedagoglik burchi va pedagoglik odobi haqidagi ta‘limotlarni o‘z ichiga oladi. Unga amal qilishda logopeddan nutqida kamchiligi bor bolaning ota-onalari psixologiyasini tushunishi va ular bilan bir qatorda qayg‘urishi talab qilinadi. Logoped juda sabotli, tadbirkor va xayrixoh, nutqi buzilgan shaxsga va uning ota-onalariga shifokorning bemorga va uning yaqin kishilariga muomalasi kabi munosabatda bo‘lishi, nutq buzilishlarining og‘ir jihatlari va muhimi, mexanizmlarini aniqlashda, ular haqida oldindan ma‘lumot to‘plashda ehtiyotkorlik qilishi,

nutq buzilishlarining tashqi ko'rinishini, ularning mohiyatini hisobga olishi kerak.

Logoped va bolalar muassasasi shifokori, logoped va tarbiyachi, logoped va pedagog o'rtasida o'rnatiladigan o'zaro to'g'ri munosabatlar pedagogik deontologiyaning muhim sharti hisoblanadi.

Logoped nutqi atrofdagilarga – nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham namuna bo'lishi lozim. Logoped yagona nutqiy tartibni ta'minlaydi, maxsus bolalar muassasalaridagi o'rta va kichik xodimlarga nutq madaniyatini o'rgatadi, qator hollarda, masalan, maxsus bolalar uylari sharoitlarida barcha o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqaradi.

Bakalavr-defektolog, magistr-logoped o'qituvchilar mam-lakatimizda faqatgina Toshkent davlat pedagogika universiteti-da tayyorlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Logopediyani fan sifatida ta'riflab bering. Logopediyaning predmeti, ob'ekti va ahamiyatini sharhlang.
2. Logopediyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Logopediya qaysi fanlar bilan bog'langan?
4. Logoped shaxsiga ta'rif bering.
5. Logopediya fanining asosiy tushunchasini va atamalarini ta'riflang.


§17. Nutqning buzilish sabablari

Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichiga tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek, atrof-muhitning tashqi sharoitlari kiradi. Nutqiy nuqsonning turli sabablarini ko'rib chiqishda evolyusion-dinamik yondashiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, nuksonli rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini va har bir yosh davrida nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir (Abu Ali Ibn Sino, I.M.Sechenov, L.V.Vigotskiy).

Psixik (shu bilan birga nutqiy) jarayonlarning shakllanishi-da biologik va ijtimoiy jarayonlarning birligi tamoyili nutqiy

tizimning rivojlanishiga – nutqiy muhit, muomala, emosional aloqa va boshqa omillarning ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Eshitishi normal bo'lgan bolaning kar-soqov ota-ona qo'lida tarbiyalanuvchi, surunkali kasal bo'lib tez-tez kasalxonalarda davolanuvchi bolalarda nutqning rivojlanmay qolishi, oilada uzoq vaqt davom etuvchi ruhiy shikastlanish va ikki tillik bo-lada duduqlanishning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi nutqiy muhitning nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga misol bo'ladi.

Nutq nuqsonlarining sabablari:



1. Ekologik sabablar: ichki va tashqi radiasiya; ishlab chiqarishning, qishloq xo'jaligining, avtotransportning, harbiy poligonning zararli ta'sirlari; oziq-ovqat va suv ta'minotining sifatsizligi.

2. Tibbiy sabablar: er-xotinning qarindosh bo'lishi; ota-onaning rivojlanishidagi orqada qolishlari; jarohatlar (jismoniy va ruhiy); ota-onalarning surunkali kasalliklari; zararli odatlar (ichkilikbozlik, nashavandlik, toksomaniya, kashandalik); onaning surunkali og'ir anamnezi: oilani noto'g'ri rejalashtirish yo'llari, abortlar, onaning ginekologik kasalliklari, erta va kech tug'ruqlar (birinchi homilaning 16 yoshdan oldin va 40 yoshdan keyin bo'lishi); tug'ruqdan oldingi jarohatlar; bolalarda somatik kasalliklar; bakterial-virusli infeksiyalar; ona va bolaning to'liq oziqlanmasligi; oilaga tibbiy, tashxis va korreksion yordamning o'z vaqtida berilmasligi.

Embrion rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar:


- homiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasalliklar, jarohatlar, onaning rezus-faktorga mos kelmasligi;

- tugʻruq vaqtidagi shikastlanish va asfiksiya;
- bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (meningit, ensofamit);
- miyaning chayqalishi bilan birga sodir boʻladigan bosh miya jarohatlari;
- nasliy omillar, bunday hollarda nutq buzilishlari umumiy nerv tizimi buzilishlarining bir qismini tashkil etib, intellektual va harakat kamchiliklari bilan birga keladi;

3. **Ruhiy-ijtimoiy sabablar:** ota-onalar tomonidan diqqat-eʼtiborning sustligi; bolalarga nisbatan qattiqqoʻllik yoki oʻta erkalatish, oila va aholi intellektual saviyasining pastligi; oilaning toʻliqsizligi (ota yoki onaning yoʻqligi) fojeali (ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, ruhiy) vaziyatlar.

Ijtimoiy sharoitning yomonligi. Bu holat pedagogik qarovsizlikka, vegetativ disfunktsiyaga, emosional-irodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab boʻladi.

Nutq kamchiliklari kelib chiqishiga koʻra ikki guruhga boʻlinadi:



Organik nutq buzilishlari oʻz navbatida maʼlum nutq organi joyining zararlanishiga koʻra markaziy va periferik xarakterda boʻladi.

Markaziy buzilishlar: markaziy nerv tizimida u yoki bu qismlarining buzilishi, zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: alaliya, afaziya, dizatriya nutq kamchiliklari kiradi.

Periferik buzilishlar: artikulyasion apparatning notoʻgʻri tuzilishi yoki buzilishi va periferik nerv artikulyasion organlari inervasiyasining buzilishidan kelib chiqadi. Periferik xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: rinolaliya, prognatiya, progeniya kiradi.

Funksional buzilishlar – bunda nutq jarayonida ishtirok etadigan aʼzolar tuzilishida hech qanday oʻzgarishlar boʻlmaydi. Funksional xarakterdagi nutq buzilishlariga – dislaliya, duduqlanish kabi nutq nuqsonlari kiradi.

Rivojlanishida kamchiliklar boʻlgan bolalarni erta aniqlash va logopedik yordam berish nutq kamchiliklarining oldini olish va maktabga nutqiy jihatdan tayyorlashda oʻta muhim. Nutqiy rivojlanishdagi nuqsonlarning oldini olishda tugʻilish vaqtida shikastlangan bolalarni dispanserizatsiyasi muhim rol oʻynaydi.

Xulosa qilib aytganda, nutq kamchiliklarini barvaqt aniqlash, ularni maxsus taʼlimga jalb etish – har tomonlama rivojlantirish, insonparvarlik, fidoyilik ruhida tarbiyalash, oʻqitish, kasbga yoʻnaltirish va sogʻlomlashtirish, hayotga tayyorlash va normal rivojlangan insonlar jamiyatiga moslashtirish amaliy logopedik vazifalarga kiradi.

§18. Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlari

Nutq apparatining tuzilishi

Nutq apparati ikki qismdan tashkil topgan: markaziy (yoki boshqaruvchi) va periferik (yoki bajaruvchi) nutq apparati.

Markaziy nutq apparati bosh miyada joylashgan. U bosh miya qobigʻidan, qobiq osti tugunlaridan oʻtuvchi yoʻllar, oʻzakdan (avvalo, uzunchoq miyada) yadrolar va ovoz, nafas, artikulyasiya muskullariga boruvchi nervlardan tashkil topadi.

Nutq boshqa oliy nerv faoliyatining koʻrinishlari singari, reflekslar asosida shakllanadi. Nutq reflekslari miyaning turli qismlari faoliyati bilan bogʻliqdir. Biroq bosh miya qobigʻining ayrim boʻlimlari nutqning xosil boʻlishida asosiy rol oʻynaydi.

Bular chap (chapaqaylarda o'ng) yarim sharning peshona, chakka va ensa qismlaridir. Bosh miya qobig'ining bu qismlarida nutq faoliyatida faol ishtirok etuvchi:

1. Nutq hapakat analizatori;
2. Nutq ko'ruv analizatori;
3. Nutq eshituv analizatori joylashgan.

Nutq hapakat analizatori bosh miya qobig'ining chap peshona qismida joylashgan bo'lib, «aloqa markazi» deb ataladi. Bu qism og'zaki nutqning paydo bo'lishida qatnashadi.

Nutq eshituv analizatori bosh miya qobig'ining chap chakka qismida joylashgan bo'lib, «Vernike markazi» deb ataladi. Bu qismda begona nutqni qabul qilish jarayoni ro'y beradi. Nutqiy tushunishda bosh miya qobig'ining orqa bo'lagi katta rol o'ynaydi. Bu bosh miyaning ko'ruv markazi hisoblanib, yozma nutqni o'zlashtirish uchun xizmat qiladi.

Qobiq osti yadrolari nutqning sur'ati va ifodaliligini boshqaradi.

O'tkazuvchi yo'llar. Bosh miya qobig'i perefirik nutq a'zolari bilan o'zaro bog'liqdir. Bunda nerv yo'llarining ikki turi ishtirok etadi: markazdan qochuvchi va markazga intiluvshi.

Markazdan qochuvchi (harakatlanuvshi) nerv yo'llari bosh miya qobig'ining periferik nutq apparati faoliyatining boshqaruvchi muskullari bilan bog'laydi. Markazdan qochuvchi yo'l bosh miya qobig'ining Broka markazidan boshlanadi.

Perefirik nutq apparati uch bo'limdan iborat:

- 1) nafas bo'limi;
- 2) ovoz bo'limi;
- 3) artikulyasion bo'lim.

Nafas bo'limiga ko'krak qafasi, bronxlar va traxeya kiradi. Nutqni talaffuz etish nafas olish bilan uzviy bog'liqdir. Hytq nafas chiqarish fazasida xosil bo'ladi. Nafas chiqarish jarayonida havo oqimi bir vaqtning o'zida tovush xosil qiluvshi va artikulyasion funksiyani bajaradi. Uzoq nafas chiqarish uchun ko'p havo zaxirasi kerak bo'lishi tushunarlidir. Shuning uchun nutq jarayonida havo olish va chiqarishning hajmi ko'payadi (taxminan 3 marta) va bundan tashqari, havo oqimi bosimini ham ko'paytiradi.

Ovoz bo'limi hiqildoq va u bilan birga joylashgan ovoz paychalaridan tashkil topgan. Hiqildoq nafas yo'lining burun bo'shlig'idan keyingi qismi hiqildoq havoning traxeyaga o'tishini ta'minlaydi va unga qattiq, suyuq moddalar tuchishiga to'sqinlik qiladi. Hiqildoq bo'yinning oldingi qismida joylashgandan hiqildoq do'ngi ayniqsa ozg'in kishilarda ko'zga yaqqol ko'rinib turadi. Ana shu do'nglik «kekirdak olmosi» deb ataladi. Hiqildoq gapirganda, yo'talganda, ashula aytganda oson harakatlanadi. Hiqildoq toq uzuksimon, shoxsimon va juft cho'michsimon, shoxsimon tog'aylardan iborat. Hiqildoq asosi bir-biri bilan bitimlar orqali birikkan tog'aylardan tashkil topgan bo'lib, burinlarda harakat maxsus muskullar apparati yordamida ro'y beradi.

Hiqildoqda ovoz paychalari joylashgan bo'lib, ular nafas olganda, qattiq yoki sekin gapirganda muayyan holatni egalaydi.

Ovoz paychalarining tebranishi tufayli chiqarilayotgan havo oqimi ovoz paychalari ustida tebranish chastotasiga aylanadi. Bu tebranishlar tevarak-atrofga etkaziladi va biz uni ovoz tovushlari deb qabul qilamiz.

Artikulyasion bo'lim. Artikulyasion bo'limning asosiy a'zolari: til, lablar, jag' (yuqori va pastki), qattiq va yumshoq tanglay, alviolalardir. Ulardan til, lab, yumshoq tanglay va pastki jag'—aktiv, qolganlari – passiv organlar bo'lib hisoblanadi (3 - rasm).

Artikulyasion bo'limning asosiy a'zosi tildir. Til – salmoqli muskul a'zovidir. Jag'lar bir-biriga tegib turganda u deyarli butun og'iz bo'shlig'ini to'ldiradi. Tilning oldingi qismi harakatchan, opqa qismi harakatsiz bo'lib, «til ildizi» nomini olgan. Tilning harakatchan qismining uchi, old, yon va opqa tomonlari farq qilinadi. Tilning murakkab muskullar sistemasi, ularning katta kenglikda shaklini o'zgartirish imkoniyatini yaratadi. Bu juda katta ahamiyatga ega, chunki u hamma unli va deyarli barcha undosh tovushlarning (lab tovushlaridan tashqari) xosil bo'lishida qatnashadi. Nutq tovushlarining xosil bo'lishida pastki jag', lablar, tish, yumshoq va qattiq tanglay, alveolalar ham ishtirok etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Markaziy nutq apparati va uning bo'limlari vazifasi nimalar-dan iborat?
2. Artikulyasiya apparatining qanday a'zolari harakatchan va qandaylari qo'zg'almas bo'ladi?
3. Bosh miya nervlari qanday vazifalarni bajaradi? Nomma-nom ayting.

§19. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga logopedik yordamni tashkil etish

1960 yillardan nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maktabgacha tarbiya muassasalari tarmog'i rivojlana boshladi. Dastlab bular ommaviy bog'chalar qoshida tashkil qilingan alohida eksperimental guruhlar edi, keyinchalik esa nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan alohida bolalar bog'chalari va yasli bog'chalari tashkil topa boshladi.

Dastlabki bosqichda bolalar bog'chalarida engil nutq kamchiligiga ega bo'lgan (nutqning fonetik tomoni rivojlanmagan) bolalar uchun guruhlar ochildi. Keyin birmuncha murakkab nuqsonli bolalar (duduqlanadigan, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar) guruhlarini tashkil qilindi. Maorif vazirligining 1972 yil 21 noyabrdagi 125 - sonli qaroriga asosan maorif sistemasidagi anomal bolalar uchun maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari nomenklaturasi (ro'yxati) tasdiqlandi.

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan bog'chalar, yasli-bog'chalar va umumiy tipdagi bog'cha, yasli-bog'chalar qoshidagi tegishli maktabgacha tarbiya guruhlarini yuqorida nomlari ko'rsatib o'tilgan muassasa qaraydigan xalq ta'limi bo'limlari tomonidan komplektlashtiriladi.

Normal nutqni o'zlashtirgan, ta'limni muvaffaqiyatli tamomlagan va 7 yoshga to'lmagan bolalar umumiy tipdagi bog'chaga o'tkaziladilar.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida turli xil nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalarga beriladigan logo-

pedik ta'limning asosiy vazifalari yetakchi nutq nuqsonini tuzatish bilan birga xat-savodni egallashga tayyorlash ishini ham o'z ichiga oladi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarga mo'ljallangan maktabgacha tarbiya muassasalarida barcha tuzatish jarayonlarini aniq tashkil qilish ko'zda tutiladi.

Tuzatish ishlari quyidagilar, ya'ni:

- bolalarni o'z vaqtida tekshirish;
- mashg'ulotlar jadvalini oqilona tuzish;
- har bir bola bilan olib boriladigan individual ishni rejalashtirish;
- frontal mashg'ulotlarni rejalashtirish;
- mashg'ulotlarni kerakli jihozlar va ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlash;
- logopedning tarbiyachi va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik qilishi orqali ta'minlanadi.

Nutqida kamchiligi bor shaxslarning barcha yosh guruhlarida nutq bilish faoliyati, emosional irodaviy sohalaridagi nuqsonlarni bartaraf etish imkoniyatlari tibbiy va pedagogik ta'sirlar kompleksining o'z vaqtida va aynan bir xil qo'llanishiga bog'liqdir.

Tuzatuvshi ta'lim ishlarining barcha komplekslarini o'tkazish umumdastur talablarini bajarish bilan birga nutq nuqsonlarini tuzatish bo'yicha maxsus mashg'ulotlarni qo'shib olib borishni talab qiladi. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar guruhlarini uchun oddiy kun tartibidan farq qiladigan maxsus kun tartibi ishlab chiqilgan. Jumladan unda logoped tomonidan o'tkaziladigan umumiy guruhlardagi va yakka tartibdagi mashg'ulotlar ko'zda tutilgan. Shu bilan birga kechki vaqtida tarbiyachining logoped topshirigi bo'yicha guruhlarda va alohida bolalar bilan nutqni tuzatish yuzasidan maxsus soatlar ajratilgan. Tarbiyachi o'z ishini dastur talablari va bolalarning nutqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda rejalashtiradi. Tarbiyachi bola nutqining shakllanishidagi individual kamchiliklarni bilishi, nutqining talaffuz va leksiko-grammatik tomonidan nuqsonlarni bilishi, ta'lim va ta'limdan tashqari faoliyat jarayoni davomida har bir bo-

laning nutqiy imkoniyatlarini hisobga olishi shart. Logoped bilan hamkorlikka nutqning to'liq rivojlanmaganligi (FNR guruhlarida), nutqni o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, savod o'rganishga tayyorlash bo'yicha mashg'ulotlar rejalashtiriladi. Logoped bilan tarbiyachining ishidagi izchillik maxsus daftarda qayd qilinadi.

Logopedning ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishi butun pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, bolalar bog'chasi sharoitida quyidagi shakllarda amalga oshiriladi.

Ota-onalar majlislari

Birinchi ota-onalar majlisi avgustning oxirida yoki sentyabrning boshida o'tkaziladi. Ota-onalar muasasa tuzilishi, ish mazmuni va vazifalar bilan, bolalar bog'chasidagi kun tartibi va qoidalar bilan tanishtiriladi. Odatda, bu majlisni bog'cha mudirasi barcha maxsus guruhlar bolalarining ota-onalari bilan birgalikda o'tkazadi.

Ikkinchi majlisni har bir logoped o'z guruhida oktyabr oyida o'tkazadi. Ushbu majlisning maqsadi ota-onalarni bolalarni tekshirish natijasida olingan ma'lumotlar bilan tanishtirishdir. Bunda logoped har bir bolaning nutqiy va umumiy rivojlanishini atroflicha ta'riflaydi. Ota-onalarga bolalarning nutqiy rivojlanishlaridagi asosiy kamchiliklarni tushunarli qilib yoritib berish, ularning normadan orqada qolish darajasini va ushbu nuqsonni bartaraf etishda hamkorlik qilish zarurligini ko'rsatib berish kerak.

Uchinchi ota-onalar majlisi yanvar oyida o'tkaziladi. Unda yarim yillik ish natijalari aytilib, keyingi tuzatish ishlari yo'nalishi yoritib beriladi, Har bir bolaning nutqiy va umumiy rivojlanishi, bolalardagi ijobiy dinamika, shuningdek mashg'ulot davomida uchragan qiyinchiliklar ta'riflanadi.

Oxirgi ota-onalar majlisi may oyida o'tkaziladi. Unda yil davomida bajarilgan ishlar yakunlanadi. O'tilgan materialni

mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar beriladi. Logoped ota-onalarni bolani ommaviy maktabda, nutq maktabida ta'lim olishi yoki zarurat bo'lsa, bog'chani maxsus guruhida qayta tarbiyalanishi haqida komissiyaning qarori bilan tanishtiradi. Komissiyaning qarori to'liq asoslanadi.

Shanba yoki chorshanba kunlari (kunning ikkinchi yarmida) har hafta ota-onalar uchun qisqa muddatli majlislar (pyatimnutka) o'tkaziladi. Ba'zi bir ota-onalar bolalari bilan taklif qilinadilar. Logoped ota-onalarni tovushlarni mustahkamlashning asosiy usullari bilan tanishtiradi. Uyda qanday mashqlar bajarish kerakligini ko'rsatib beradi.

Ota-onalarning ochiq logopedik mashg'ulotlarda ishtirok etishi butun o'quv yili davomida rejalashtiriladi (3 oyda 1 marta). Bunday mashg'ulotlarda logoped ota-onalarni ta'limning asosiy usullari, materialni tanlash, shuningdek, mashg'ulot davomida bolalarga qo'yiladigan asosiy talablar bilan tanishtiradi.

Ota-onalarga mo'ljallangan stendlarni logoped va tarbiyachi butun yil davomida chiqarib turadilar. Stendda normadagi bola nutqining rivojlanishi, nutq anomaliyalarining xilma-xil turlari, ommabop adabiyotlar ro'yxati kabi masalalar yoritilib boriladi. Tovushlarni talaffuz qilish, bog'lanishli nutqni shakllantirishga doir nutqiy material vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi. Ota-onalar burchagida axborot bo'limi mavjud bo'lib, unda ota-onalar majlislarining sanalari, logoped bilan suhbatlashish uchun takliflar, mutaxassislarning konsultasiya berish vaqti ko'rsatilgan bo'ladi.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maktabgacha tarbiya muassasalari anomal bolalarga ta'lim va tarbiya berish umumiy sistemasida perspektiv o'rin bo'lib hisoblanadi, qaysiki u nuqsonning keyingi rivojlanishining oldini oladi.

Bir qator patologik shakllarda (oligofreniya, ko'rish nuqsonlari, tayanch harakat apparatidagi nuqsonlar) nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida logopedik yordam ko'rsatiladi.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan yaslilar

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan yaslilar sog'liqni saqlash muassasalarining mustaqil bir bo'limi hisoblanadi va bolalarni tarbiyalash, tadbirlar o'tkazish, bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish, bolalar nutqini o'stirish kabi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi.

Yaslilar sog'liqni saqlash mahalliy organlarining qaramog'ida bo'lib, bu organlar ular ishiga rahbarlik qiladi va bolalarga to'g'ri xizmat ko'rsatish ishini nazorat etadi.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni yasluga saralash maxsus tuzilgan komissiya tomonidan o'tkaziladi. Bu komissiya tarkibida: pediatr, psixiatr (nevropatolog, psixonevrolog) va logoped bo'ladi.

Bolalar saralash komissiyasiga quyidagi hujjatlar bilan yuboriladi: kasallik tarixidan ko'chirma, poliklinika psixonevrologi va logopedining xulosasi, yashash joyidan ma'lumotnoma, ota-onasining ish joyidan olingan oyligi haqidagi ma'lumotnoma.

Ixtisoslashtirilgan yaslilarga qabul qilish quyidagicha amalga oshiriladi:

- a) nutqiy rivojlanishida to'xtalish bo'lgan bolalar yil davomida bo'shagan joylarga qabul qilinadilar;
- b) duduqlanuvchi bolalar 6 oyda bir marta qabul qilinadilar.

Ixtisoslashtirilgan yaslilarga organik harakterga ega bo'lgan duduqlanuvchi va nutqiy rivojlanishida to'xtalish bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

Yaqqol ifodalangan aqli zaif bolalar (oligofreniya, aqli zaiflik), tutqanoq va harakatida qo'pol buzilishlar bo'lgan bolalar ushbu yasluga qabul qilinmaydilar.

Ixtisoslashgan yaslilar kecha-kunduz ishlashga mo'ljallangan bo'lib, ularga 3 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Bolalar yaslida 4 yoshgacha tarbiyalanadilar.

Guruhlar nutq kamchiliklari (duduqlanish, nutqiy rivojlanishda to'xtalish bo'lishi) bo'yicha komplektlashtiriladi.

Yasliidan so'ng bolalar maxsus nutq bog'chalariga yoki umumiy bog'chalarga boradilar.

Ixtisoslashtirilgan bolalar uyi

Bolalar uyida ishlaydigan logopedning asosiy vazifasi nutq kamchiliklarini oldini olish (nutqsiz davrdan boshlab – 3 oylikdan – 1 yoshgacha), o'z vaqtida diagnoz qo'yish va hamma yosh guruhlarida bolalar nutqini to'g'rilashdir.

Logoped tibbiy-pedagogik ko'rikda aktiv ishtirok etadi, hamma bolalarning nutq va nutqsiz faoliyatini tekshiradi, har bir bolaning rivojlanganlik darajasini tasvirlaydi, o'tkaziladigan tadbirlar rejasini tuzadi hamda har bir guruhlagi bolalar nutqini rivojlantirish va ular nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ish olib boradi. Logoped har kuni yosh guruhlaridagi hamma bolalar bilan shug'ullanadi (3 oylikdan boshlab).

Bolalar psixonevrologik sanatoriyalari - sanatoriya tipidagi davolash-sog'lomlashtirish muassasalari

Bolalar psixonevrologik sanatoriyalari rayon, shahar, respublika qaramog'ida bo'lishi mumkin. Boshqaruv ishlari O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirligi, viloyat va shahar sog'liqni saqlash bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

4–7 yoshgacha bo'lgan bolalar maktabgacha psixonevrologik sanatoriylarga; 7–13 yoshgacha bo'lgan bolalar–maktab psixonevrologik sanatoriylariga qabul qilinadilar.

Bolalar psixonevrologik sanatoriylariga bolalarni saralash «Mahalliy sanatoriy va kurortlarda bolalarni davolash uchun mumkin va mumkin bo'lmagan jarayonlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Psixonevrologik sanatoriylarga bolalarni yuborish uchun mumkin bo'lgan ko'rsatmalar:

nevrozlar, serebrosteniya, markaziy nerv sistemasining erta organik jarohatlanishi natijasidagi nevratik holatlar, miya shikastlanishlari, nonroinfeksiya, samotik kasalliklar;

—psixik kasalliklarning nevrozga o'xshash formalari;

– nutqiing umumiy rivojlanmaganligini hamma darajalari bilan birga keladigan o‘qish va yozish jarayonidagi kamchiliklar; disleksiya, disgrafiya, dizartriya, dislaliya, rinolaliya, nutq rivojlanishining to‘xtab qolishi, duduqlanish (o‘qish va yozuv jarayonlarining buzilishi bilan birga namoyon bo‘lishi mumkin).

Sanatoriyda bo‘lish vaqti – 3 oy. 6 oydan so‘ng qayta davolanadi.

Guruhlarni komplektlashtirish ishlari yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Sanatoriyning vazifasi – bolalarning nutq buzilishlarini tuzatish va psixik rivojlanishidagi chetga chiqishlarni bartaraf etish maqsadida davolash, sog‘lomlashtirish va logopedik tadbirlarni tashkil etishdan iborat. Maktab yoshidagi bolalar bilan umumta‘lim fanlari bo‘yicha sinflarga mos holda o‘qitish ishlari olib boriladi.

Davolash sog‘lomlashtirish ishlarining asosiy bo‘limlari:

- bolalarning yoshi va ahvolini hisobga olgan holda davolash, saqlash va davolash qilish rejimi;
- psixoterapiya;
- fizioterapiya va davolash jismoniy mashqlari;
- dori-darmonli terapiya;
- logopedik tuzatish mashg‘ulotlari;
- ritmika;
- mehnat terapiyasi;
- rasional ovqatlantirish.

Ishlar har bir bo‘lim uchun mas‘ul kishi (pedagog, vrach, logoped) tomonidan rejalashtiriladi va bosh vrach ularni bir-biriga muvofiqlashtiradi va boshqaradi.

Zamonaviy davolash va logopedik metodlar (rasional psixoterapiya, gipnoterapiya va boshqalar) qo‘llaniladi.

Sanatoriy o‘ziga yaqin tumanda joylashgan maktablar bilan, shahar, viloyat, respublikadagi yetakchi tibbiyot muassasalari bilan uzviy aloqada bo‘ladi.

Bolalar psixonevrologik sanatoriysini bevosita bosh vrach (psixonevrolog yoki pediatr) boshqaradi.

Tarbiyachining kechki logopedik mashg‘ulotlari uchun daftar Logoped har kuni tarbiyachiga bolalar bilan logopedik ish olib borishi uchun topshiriqlar yozadi. Beriladigan topshiriqlarga quyidagilar kiradi:

- ayrim artikulyasion mashqlarni bajarish;
- logoped tomonidan maxsus tanlangan so‘zlar, gaplar, qisqa hikoyalar, she‘rlarni, bola nutqiga kiritilgan tovushlarni mustahkamlash maqsadida qo‘llash;
- bola diqqati, xotirasi va fonematik malakasini rivojlantirishga doir topshiriqlarni bajarish;
- o‘qish malakalarini shakllantirish mashqlarini bajarish;
- qirqma harflar bilan ishlash.

Hamma topshiriq turlari bolalarga tanish bo‘lishi, olib borish metodikasi tarbiyachiga yaxshi tushuntirilgan bo‘lishi kerak. Tarbiyachi olib borgan ish haqidagi qisqa ma‘lumotni daftarning hisobga olish grafasiga belgilab qo‘yadi.

Logoped hisoboti. Logoped o‘quv yilining oxirida qilgan ishlari yuzasidan hisobot yozadi. Hisobotda quyidagi ma‘lumotlar ko‘rsatiladi:

1. Guruhlarning komplektlashtirish vaqti (bolaning guruhga kelgan vaqti).
2. Logopedik mashg‘ulotlarga jalb qilingan bolalar soni.
3. Nutq guruhlaridan shiqarilgan bolalar soni va ular nutqiga qisqacha tavsif.
4. Bolalarning qanday muassasalarga borishi haqida yo‘llanma (umumta‘lim maktabi, logopunkt, kasalxona, bolalar bog‘chasi).
5. Guruhlarda qayta qoldirilgan bolalar soni (sababi) ko‘rsatiladi.
6. Yil davomida turli sabablar bilan nutq guruhlaridan chiqib ketgan bolalar soni.

Hisobotda yana qanday logopedik targ‘ibot ishlari olib borilganligi, qanday nutqiy nuqsonli bolalar aniqlanganligi ko‘rsatilishi kerak.

Og‘ir nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar maktablarida quyidagi hujjatlar yuritiladi:

- Nutq kartasi maktabning har bir o'quvchisi uchun to'ldiriladi. Nutq kartasiga o'quv yili boshida o'tkazilgan tekshirish natijalari, yil davomida o'qituvchi nutqiy rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun bola bilan qanday ishlar olib borilganligi haqida qisqa ma'lumot va logopedik mashg'ulotlarning natijalari belgilab qo'yiladi.
- Chorakka mo'ljallangan individual ish rejasi (boshlang'ich sinflarda).
- Chorak davomida olib boriladigan individual ish rejasida o'qituvchi ishlashi lozim bo'lgan bolalar tarkibini aniqlaydi va ular nutqidagi kamchiliklarga qisqacha tavsif beradi, qanday nutq nuqsoni ustida ishlash kerakligini aniqlaydi.

Chorakda olib boriladigan taxminiy ish sxemasi:

1. O'quvchilarning familiyasi, mashg'ulotga kelgan vaqti.
 2. Nutq nuqsonlariga qisqacha tavsif.
 3. Tuzatish ishlari (tuzatish ishlari olib borilayotgan nuqson ko'rsatiladi).
 4. Tuzatish ishlarining muddati.
 5. Mashg'ulotning tashkiliy shakllari.
 6. Natijalar.
 7. Izohlar, sanasi va unda o'tilgan mavzular qayd qilinadi.
- Sog'liqii saqlash tizimida xizmat qiladigan logoped quyidagi hujjatlarni yurgizadi:
- birinchi qabul qilingan bemor uchun karta yoki jurnal, bunga bemorning familiyasi, ismi, otasining ismi, yoshi, kim tomonidan yuborilganligi, poliklinika yoki kasalxonaga murojaat qilgan vaqti, tashxisi, o'tkazilgan mashg'ulotlar soni, o'qitish metodlari, o'qitish ishlarining natijalari chiqarilgan vaqti yozib boriladi.
 - Har kuni bemorni qabul qilish uchun yurgizilgan jurnal.
 - Bemor bilan o'tkaziladigan har bir mashg'ulotning qanday mazmun ekanligini yozib borish uchun kundalik daftar.
 - Bemorning uyiga borib kelishi haqidagi ma'lumotlarni belgilovchi jurnal.

– Yillik hisobot.

Logopedlar o'z ma'ruzalari bilan ilmiy-nazariy konferensiyalarda faol ishtirok etishlari lozim.

Tekshirish uchun savollar va topshiriqlar

1. Xalq maorifi va sog'liqni saqlash tizimidagi nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maxsus muassasalarning asosiy turlarini tavsiflab bering.
2. Logopedning ota-onalar bilan olib boradigan ishlarining asosiy yo'nalishlarini ochib bering.

Adabiyotlar

1. Ayupova M. Logopediya. «O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati» nashriyoti. Toshkent. 2007 yil.
2. Mo'minova L.R., Ayupova M.Yu. va boshqalar. Logopediya. «O'qituvchi» nashriyoti. Toshkent, 1993 yil.
3. Ёĩ ĩ ĩ ääëÿ / Ĩ ää.đää. Ё.Ñ.Âĩ ěēĩ âûé, Ñ.Í .Ø àõĩ ânēĩ é. Ĩ ., 2004.
4. Mo'minova L.R., Qaxramonova M. Logopediya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1988 yil.

V BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'QITISH VA TARBIYALASH

§20. Maktabgacha tiflopedagogika fanining maqsadi, vazifalari, predmeti va ob'ekti

Tiflopedagogika (grekcha «typhlos» so'zidan olingan bo'lib, ko'r va pedagogika ma'nolarini anglatadi) – ko'rish jarayoni buzilgan shaxslarni tarbiyalash va o'qitish muammolarini ishlab chiqaruvchi defektologiya bo'limi hisoblanadi. U umumiy pedagogikaning bir qismi va defektologiyaning bo'limlaridandir.

Umumiy pedagogikaning bo'limi sifatida dialektik falsafa, insonparvarlik tamoyillari asosida, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalar rivojlanishining o'ziga xosligini hisobga olgan holda umumdidaktik tamoyillarda rivojlanadi. Tiflopedagogikaning tabiiy ilmiy asosi – I.M.Sechenov va I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati to'g'risidagi ma'lumoti sanaladi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonlari va qonuniyatlari—maktabgacha tiflopedagogika fanining predmeti hisoblanadi.

Tiflopedagogika fanining ob'ekti – ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar.

Tiflopedagogika fanining asosiy maqsadi – ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va buzilgan funksiyalarni kompensasiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqishdir. Tiflopedagogika fani optimizm va chuqur insonparvarlik bilan yo'g'rilgandir. U ko'rishida nuqsoni bor bolalarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berishga ko'maklashadi. Tiflope-

dagogikaning vazifasi – bolalardagi to'laqonli bo'lmagan ko'rish funksiyalaridan unumli foydalanish va ta'lim jarayonida ularni rivojlantirish, ularni saqlab qolish uchun sharoitlar yaratib berish, psixik va jismoniy rivojlanishda ikkilamchi nuqsonlarning oldini olish va engib o'tish uchun maxsus yo'naltirilgan korreksion-pedagogik ishlarni olib borishdir. Aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiya masalalarini pedagogik jihatdan hal etishda, politexnika ta'limida, tiflopedagogika, ularning psixologik-pedagogik, klinik-oftalmologik kompleksining xususiyatlarini rivojlanishini o'rganishga tayyandir, chunki shulargina o'quv-tarbiya jarayonini korreksiyalash va o'rnini to'ldirish yo'nalishida bo'lishini ta'minlaydi. Ko'ruv jarayoni chuqur buzilgan bolalar rivojlanishining korreksiyasi umumta'lim va mehnat tarbiyasi jarayonida hamda maxsus korreksiya mashg'ulotlarida va yakka mashg'ulotlarda amalga oshiriladi.

Tiflopedagogika fanining asosiy vazifalari quyidagilarni tashkil etadi:

- ko'rishda jiddiy nuqsoni bo'lgan shaxslarni psixologik-pedagogik va kinetik jihatdan o'rganish;
- ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ruhiy va jismoniy rivojlanish anomaliyalari va ko'rish funksiyasi tuzilishlarini aniqlash;
- ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda buzilgan funksiyalarni to'la rivojlangan funksiyalar bilan kompensasiyalash, korreksiyalash;
- ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'rish funksiyalarining rivojlanish imkoniyatlarini o'rganish;
- ko'r va ko'zi ojizlarni o'qitish va tarbiyalash uchun maxsus muassasalarning tiplari va strukturalarini belgilash;
- to'laqonli bo'lmagan ko'rishni muhofaza qilish va rivojlantirish bo'yicha gigienik tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni reabilitasiya va integrasiyalash masalalarini hal etish;
- tiflopedagogika zimmasiga qo'yilgan vazifalarni yechishda umumiy, pedagogika, psixologiya, fiziologiya, oftalmologiya-

ya, maktab gigienasi, bolalar nevrologiyasi bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Tekshirish uchun savollar

1. «Tiflopedagogika» soʻzini izohlab bering.
2. Tiflopedagogikani fan sifatida taʼriflab bering.
3. Tiflopedagogika fanining predmeti, obʼekti va ahamiyatini sharhlang.
4. Tiflopedagogika fanining maqsad va vazifalari nimalardan iboratligini izohlang.

Tayanch soʻzlar

1. Tiflopedagogika–greksha «typhlos» koʻr va pedagogika maʼnosini anglatadi.
2. Korreksiya – tuzatish, toʻgʻirlash, silliqlashtirish.
3. Oftolmolog – koʻz shifokori.
4. Kompensasiya – oʻrnini qoplash.

§21. Maktabgacha yoshdagi koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolalarning pedagogik tavsifi

Koʻruv jarayonining buzilishi tugʻma va keyinchalik paydo boʻlishi ham mumkin. Tugʻma koʻrlik homilaning ona qornidagi vaqtida boʻlgan kasalliklar va shikastlanish oqibatida paydo boʻlishi mumkin yoki baʼzi bir koʻruv nuqsonining nasldan-naslga irsiy oʻtishi natijasida boʻlishi mumkin. Odatda keyinchalik paydo boʻlgan koʻrlikda koʻruv organlarining kasallanishi oqibatida – toʻr parda, shoh parda markaziy nerv sistemasining kasalliklari (meningit, miyadagi shish, meningoensefalit) organizmning umumiy kasallanishi (qizamiq, gripp) oqibatida, miyaning travmatik shikastlanishi oqibatida paydo boʻlishi mumkin. Koʻruv analizatorining buzilishlarida rivojlanuvchi va turgʻun turlar mavjud. Rivojlanadigan koʻruv nuqsonida patologik jarayonlarning taʼsirida koʻruv jarayonining doimiy ravishda yomonlashuvi roʻy beradi. Masalan, glaukomada koʻzning ichki bosimi koʻtarilib ketadi va koʻz

toʻqimalarida oʻzgarishlar sodir boʻladi. Sanitar-gigienik normalarga rioya qilinmaganda (oʻquv va yozuvda) koʻzning yaqindan koʻrishi va uzoqdan koʻrish zaiflashuvi sodir boʻladi.

Asigmatizm, katarakta singari kasalliklar koʻruv analizatorining turgʻun nuqsonlariga kiradi. Bunday nuqsonlar baʼzi bir kasalliklar yoki koʻz operatsiyalari oqibatida boʻlishi mumkin. Demak, bolalarda koʻruv analizatorining buzilishi homiladorlik vaqtida yoki tugʻilgandan soʻng paydo boʻlishi mumkin. Shuning uchun koʻr bolalarni koʻr tugʻilganlar, juda erta koʻrmay qolganlar va 3 yoshdan keyin koʻrmay qolganlar guruhiga ajratish mumkin. Bunday differensiasiyalash shunga asoslanadiki, bolaning keyingi rivojlanishi uchun qaysi yoshdan boshlab koʻrmay qolgani juda katta ahamiyatga ega. Masalan, tugʻma koʻrlar xotirasida har xil obrazli tasavvurlar umuman boʻlmaydi, lekin keyinchalik koʻrmay qolganlarda obrazli tasavvurlar qandaydir hajmda qisman saqlanadi. Bolaning psixik va jismoniy rivojlanishida koʻrish nuqsonining boshlanishi, yaʼni yuzaga kelish muddati muhim ahamiyatga ega. Koʻrmaslik qancha erta boshlangan boʻlsa, ikkilamchi nuqsonlar, psixofizik xususiyatlar koʻproq namoyon boʻladi. Tugʻma koʻrlarning psixik rivojlanishi sogʻlom bolalarga oʻxshash kechadi, lekin koʻruv orientirovkasining yoʻqligi koʻproq harakatlanish doirasida, turmush tarzida namoyon boʻladi. Koʻrlar uchun tovush signallari oʻziga xos moʻljal oʻrnini egallaydi, koʻradigan bolalar uchun ham tovushlar muhim rol oʻynaydi, ammo koʻrlar uchun tovush signallarini moʻljal olish – asosiy faktor hisoblanadi.

Koʻrish qobiliyatining yoʻqotilishi bolalarda oʻziga xos xarakter, emosional iroda doirasida sezgi tajribalarini shakllantiradi. Tugʻma koʻr bolalarda oliy bilish jarayonlarining rivojlanishi (qiziquvchanlik, mantiqiy fikrlash, xotira, nutq) normal holatda boʻladi. Shuning bilan birga sezgi va intellektual funksiyalar oʻzaro aloqadorligining buzilishi oʻziga xos fikrlash faoliyatidan mavhum fikrlash faoliyatining rivojlanishi ustunligida namoyon boʻladi.

Kech koʻr boʻlgan bolalarning tugʻma koʻr bolalardan ajralib turishi koʻruv jarayonida yoʻqotgan vaqtiga bogʻliq boʻladi.

Bola ko'rish jarayonini qancha kech yo'qotsa, unda shunchalik ko'ruv tasavvurlari ko'proq bo'ladi va ularni so'z ifodalari-da qaytadan tiklash mumkin. Agar ko'ruv xotiralarini rivojlantirilmasa, asta-sekin ko'ruv obrazlari xotiradan yo'qolib ketishi mumkin.

Ko'r bolalar yuqori darajada psixofizik rivojlanishga va bolani o'rab turgan dunyoni to'liq bilishga bolada saqlanib qolgan analiz qilish tizimiga suyangan holda barcha imkoniyatlarga egadir. Maxsus ta'lim sharoitida, eshituv, teri, hid bilish, vibrasion va boshqa psixik jarayonlarning sensor analizatorlari rivojlanishi asoslarining rivojlantirishning o'ziga xos usullari shakllanadi. Natijada idrok etishni kompensasiyalashni, ya'ni bilim jarayoni shakllarini rivojlantirish imkoniyatlari vujudga keladi.

L.S.Vigotskiy tomonidan, ko'rlar oltinchi sezgi (harakat) ga egaligi ko'rsatilib, bu ularga predmetlarni masofada sezishga, ranglarni ham sezishga imkoniyat yaratilishi aytiladi. Ta'lim jarayonida pedagog, ota-onalar ko'rlikni kompensasiya qilish bolada uning hayotining birinchi oylaridan boshlanishini hisobga olishlari lozim. Ko'rlikni kompensasiyalash, deydi L.I.Solnseva, butun psixik ta'lim tizimini, sensor tizimini, intellektual komponentlarni o'z ishiga oladiki, bular bolalarga adekvat va tashqi dunyoni aktiv aks ettiradigan va bolalarni yoshiga qarab har xil shakldagi faoliyat bilan shug'ullanishiga imkoniyatlar yaratib beradi. Zaif ko'ruvchilar hodisalar, predmetlar bilan tanishganda, shuningdek, maydon orientirovkasini olishda va harakatlanganda ularda saqlanib qolgan ko'ruvdan foydalaniladi. Masalan, ko'zi ojizlarda ranglarni idrok etish buzilgan holatda bo'ladi. Keskin ifodalangan yaqindan ko'rishda va uzoqdan ko'rishda ko'zi ojizlar ba'zi bir pedmetni ifodalaydigan xira-shira belgilarni payqamasdan qolishi mumkin. Maxsus ta'lim erta boshlanganda normal maydon va stereoknopik ko'ruv yaxshi rivojlanadi va mukammallashadi, bu ularda kelajakda murakkab fazoviy ko'rgazmalarni idrok etish imkonini beradi.

Zaif ko'ruvchilar orasida ranglarni farqlash funksiyalari buzilgan, ko'ruvning kontrakt sezgirligi etarli bo'lmagan shaxslar

ko'p uchraydi, ranglarni idrok eta olmaslik patologiyasining tug'ma shakllari ham uchraydi.

Ko'zning harakatlanish funksiyalarining buzilishi narsalarni idrok etish va ularni tasvirlashga ta'sir o'tkazadi, ko'z nigohini ma'lum bir nuqtada ushlab turishga xalaqit beradi, dinamik o'zgarishlarni, chiziqli va shartli kattaliklarni baholashda qi-yinchiliklar tug'diradi.

Shuning uchun korreksion ishlar, hodisalar va predmetlar kuzatishning maxsus usullaridan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lib, u eshituv, ta'm bilish, hid bilishga asoslanadi, bolalarda real hayotning murakkab sintetik obrazlari yaratilishi uchun imkon beradi.

Zaif ko'ruvchilardagi saqlanib qolgan ko'ruv ularning rivojlanishiga, o'quv, mehnat va ijtimoiy adaptasiyada (moslashuvida) muhim ahamiyatga ega, shuning uchun uni avaylab-asrash zarur, buning uchun muntazam tashxis qo'yish, ko'z shifokori huzurida davriy konsultasiyalar o'tkazib turish, tiflopedagog va psixologlar huzurida konsultasiyalar o'tkazish zarur.

Ko'rlar va zaif ko'ruvchilarda ularni o'rab turgan dunyoni idrok etish va bilishda teri orqali his qilish muhim ahamiyatga ega. Taktil idrok etish har xil kompleks sezgilar (qo'l tekki-zish, bosim, issiqlik, sovuqlik, og'riq, materialning fakturasi va boshqalar) orqali ta'minlanadi va bular orqali narsalarning shakllari, o'lchamlari va har xil proporsional aloqalar aniqlanadi. Teri va shilimshiq qavatdagi nerv qoldiqlari tomonidan qabul qilingan har xil sezgilar bosh miya qobig'ining qo'l va barmoqlar ishi bilan bog'liq bo'limiga yuboriladi. Ko'rlar va ko'zi ojizlar xuddi shunday qo'llari va barmoqlari bilan «ko'rishga» o'rganadilar.

Ko'rlar va zaif ko'ruvchilarning har xil faoliyat turlarida teri orqali bilishdan tashqari, eshituv va nutq ham muhim ahamiyatga ega. Ko'rlikni kompensasiyalashning birinchi bosqichida yaratilgan differensasiyalangan eshituv va ovoz reaksiyaları narsalar bilan dastlabki tanishuvda va atrofdagi odamlar bilan muloqotda muhim rol o'ynaydi. Ko'r bola odamlarning diqqatini jalb qilish maqsadida tovushlar va so'zlardan foy-

dalanadi. Kattalarning shunga mos reaksiyalari bolani unga nisbatan emosiyasini (hayajonini) oshiradi.

Ko'rlar va zaif ko'ruvchilar tovushlar orqali narsalarni va ularni o'rab turgan muhitning fazoviy xususiyatlarini erkin ifodalaydilar. Ular tovush orqali manbani va uning joylashishini ko'zi ko'radiganlardan aniqroq belgilaydilar. Ko'ruv jarayoni buzilgan shaxslarda fazoviy eshituv juda yuqori darajada rivojlanganligi har xil tovushlar maydonida orientirovka olish shartligi sababli yuzaga keladi.

Shu sababli ko'rlar va zaif ko'ruvchilar uchun ta'lim va tarbiya jarayonida differensiyaviy mashqlar o'tkaziladi, narsalarning xarakterlarini tovush yordamida farqlanadi va baholanadi, murakkab tovush maydonini analizlash va baholash, tovush signalari aniq bir narsalarga, moslamalarga, mexanizmlarga o'xshab bu ularda yuz berayotgan jarayonlarning yuzaga chiqishidan bo'ladi.

Ko'ruv jarayoni buzilgan shaxslarning har xil faoliyat turlarini muvaffaqiyatli egallash (predmetli, o'yin, mehnat, o'qish), ko'rgazmali qurollar bilan yuqori darajada ta'minlanish va rivojlantirish, fazoviy fikrlash, fazoviy mo'ljalga olishni egalash bilan bog'liq. Fazoviy orientirovka fazoda (maydonda) erkin harakatlanishning muhim qismidir.

Shunday qilib, ko'rishda nuqsoni bor bolalarni ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Ko'rlar.
2. Zaif ko'ruvchilar.

Ko'rlar ko'ruv o'tkirligiga ko'ra 2 toifa bo'linadi.

1. Total ko'rlar. Ko'rish o'tkirligi – 0.
2. Qisman ko'rlar. Ko'rish o'tkirligi – 0, 05 gacha.

Kelib chiqish sababiga ko'ra

1. Tug'ma ko'rlik.
2. Orttirilgan ko'rlik.

Zaif ko'ruvchilar ko'rish o'tkirligiga ko'ra quyidagicha toifalarga bo'linadi:

- 0, 05dan – 0, 1 gacha;
- 0, 1dan – 0, 2 gacha;

0, 2 dan yuqori – 0, 4gacha.

Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda birlamchi nuqsonlar patologiyasi yuzaga keladi: ko'rish o'tkirligi, rang ajratish, ko'rish maydoni, yorug'likni sezish va hokazo.

Ko'ruv o'tkirligi – ko'zni bir-biridan eng kam masofada turgan ikki nuqtani ayrim-ayrim ko'ra olish layoqatidir.

Ko'ruv maydoni – bu odam ko'zlari va boshni qimirlamay turganida ko'rib idrok etadigan maydondir.

Yorug'lik sezish. Ko'zni yorug'likka qaratib adaptometr—(maxsus asbob)da yorug'lik tekshiriladi.

Maxsus va to'g'ri tanlangan o'qitish metodikasi qo'llanmasligi natijasida ikkilamchi nuqsonlar yuzaga keladi, bular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- sensor apparatlarning to'liq shakllanmaganligi;
- tasavvur va tushunchalar borasidagi kamchiliklar;
- fikrlashdagi kamchiliklar;
- nutq rivojlanishidagi kamchiliklar;
- harakatdagi kamchiliklar.

Faqat maxsus ta'lim-tarbiya sharoitidagina ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalashga sharoit mavjud bo'ladi.

Ikkilamchi nuqsonlar namoyon bo'ladigan sohalar.

Aleliopiya bilan og'rigan bolalarda ko'rib idrok etish, harakat sohasida (harakatlar aniqligi, koordinasiyasi buzilgan, mayda matorika, makonda orientirlash, oynada aks etganda o'ng va chap tushunchalari rivojlanmagan) predmetli tasavvurlar sohasida hajm biroz kichikroq bo'ladi.

Ko'r bolalarda predmetli tasavvurlar zahirasi ancha kam, ular mavjud tasavvurlar (obrazlar) bilan ishlashda qiynaladilar. Maktabgacha yoshdagi ko'r bolalarda harakatchanlik sustligi, harakat malakalarining aniq shakllanmaganligi, makonda orientirlash ancha buzilganligi, makondagi yo'nalishlarni ajratishda nuqsonlar, makonda harakatlanish chog'ida orientirlashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Ko'r bolalarda ikkilamchi nuqsonlar bilish faoliyatida ham namoyon bo'ladi, bular— predmetlar haqida tasavvurlar ojizligi, predmetlar haqida tasavvurlar yo'qligi, tasavvurlar uzuq-yuluqligi va boshqalardir.

Maktabgacha tarbiya

Maktabgacha tarbiya tizimi davlat, ijtimoiy xarakteriga ega bo'lib, muhim ijtimoiy masalalarni hal qiladi: ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama kamol toptirish; ko'r va zaif ko'ruvchilar nuqsonli rivojlanishining oldini olish; korrektsiyalash va ularning sog'ligini himoyalash va mustahkamlash; Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va maxsus ta'lim berishda oilaga ko'maklashish maqsadida maxsus va oilaviy MTM qoshida oshilgan maktabgacha tarbiya muassasari tashkil etilgan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga maxsus MTM larda maqsadli ta'lim va tarbiya berish jarayonida ularga normal psixik rivojlanishni ta'minlash, ilk bolalik davridagi noto'g'ri tarbiya natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsonlarni korrektsiyalash, kompensasiyalash mumkin.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun bog'chalar faoliyatida 4 asosiy vazifani belgilash mumkin. Ularning bajarilishi nafaqat bolalarning umumta'lim dasturlarini o'zlashtirishga imkoniyatlarini, balki rivojlanishdagi ikkilamchi nuqsonlarni korrektsiyalash va kompensasiyalashni ham ta'minlaydi.

1. Qisman ko'radigan va zaif bolalarda saqlangan ko'rish funksiyalarini rivojlantirish, ambliopiya va g'ily bolalarni ularni normagacha tibbiy va pedagogik vositalar bilan tiklash.

2. Bolalarning rivojlanishi o'quv dasturni o'zlashtirish uchun ularning psixik-jismoniy rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda qulay sharoitlar yaratish.

3. Bola hayotining dastlabki oy, yillaridagi noto'g'ri tarbiya natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsonlarni korrektsiyalash.

4. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim, o'yin, mehnat faoliyati kompensator usullarini shakllantirish.

Maxsus vazifalarni hal etishda har bir mutaxassis – vrach-oftolmolog, tiflopedagog, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bog'chasi tarbiyachisining roli garchi o'zaro bog'liq va o'zaro bog'langan bo'lsada, ular ko'p qirralidir.

Tekshirish uchun savollar

1. Ko'ruv analizatorida nuqsonlarning yuzaga kelish sabablarini yoriting.
2. «Ko'r» va «zaif ko'ruvchi» tushunchalarini izohlab bering.
3. Birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar haqida so'zlab bering.
4. Differensasiyani qanday tushunasiz?

Tayanch so'zlar

Ta'lim – bolani bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ongiga va xulqiga ta'sir etish, bilish faoliyatini rivojlantirish.

Tarbiya – bolalarga ilmiy bilimlar tizimini singdirish va buning natijasida har tomonlama shakllangan kishini tarbiyalash.

§22. Maktabgacha yoshdagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasi

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasi maqsad va vazifalari pedagogikaning umumiy tamoyillariga tayanadi. Tarbiyaning umumiy vazifasi maxsus vazifa bilan bog'liqlikda amalga oshiriladi. Jumladan, birlamchi, ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish bilan birga olib boriladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasida ko'rinadigan salbiy holatlar quyidagilar:

- o'yin, o'qish, mehnat faoliyati cheklanganligi;
- begonalar bilan muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar;
- o'z o'ziga xizmat qila olmasligi (yoki ulardagi kamchiliklar);
- madaniy, ma'naviy bilimlarning sayozligi (yo'qligi) kabilardir;

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama tarbiyalashning usullari:

Tarbiya usullari – o'qituvchi-tarbiyachilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, ularga ijobiy hulq-atvor ko'nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llaridir.

Usullar tizimining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'zaro bog'liq bo'lib, uning bir turi ikkinchisi bilan qo'shib ketadi. Har bir usulni alohida, yakka holda qo'llab bo'lmaydi. Masalan: o'qituvchi birinchi sinf o'quvchilari bilan ishlash-

da, ular uchun yangi bo'lgan o'quv mehnatini o'rgatish ishini o'quvchilarning hulq-atvor qoidalarini, maktabda va uyda kun tartibi aniq bo'lishi muhimligini, qunt bilan, zo'r berib mehnat qilish zarurligini uqtirishda tushuntirish yo'lini qo'llaydi. Tarbiyaviy usullarni ularning vazifasiga qarab quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

Ijtimoiy axloqni tarkib toptirish va o'quvchilar faoliyatini yo'lga qo'yish usullari: o'rgatish, ibrat-namuna, ishontirish, o'yin-musobaqalar.

Ibrat va namuna usuli

Bolalar tarbiyasida ibrat va namunaning ahamiyati kattadir.

Namuna yoki ibrat usuli bolalardagi taqlidshilikka asosladi. Odatda bolalar o'zlarining yaqinlarini, ularning yurish turishini ongli yoki ixtiyorsiz kuzatib boradilar, tevarak-atrofdagi kishilarning (ota-onalari, opa-akalari, muallimlari, kattalar, tengqurlari) xulq-atvorini va xatti-harakatlarini kuzatib, boradilar, ularga taqlid qiladilar.

Ishontirish usuli

Bu bo'limga ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va ishonsh-e'tiqodni shakllantirish maqsadida ularning ongli, his-tuyg'ulari va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish usullari kiradi.

Tushuntirish va uqtirish

Tushuntirishning mohiyati jamiyatning ma'naviy va moddiy hayotidagi eng muhim voqealar to'g'risida axborot berish asosida ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar diqqatini tevarak-atrofdagi voqelikka, o'z fuqarolik burchlariga ongli munosabatini shakllantirishga qaratishdan iboratdir.

Uqtirish

Uqtirish – biror axloqiy fazilatini ko'rishda nuqsoni bor o'quvchilar ongiga singdirish va ular tomonidan uqib olishni ta'minlashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchilar va tar-

biyachilar ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni, o'quvchilarni tarbiyalaganda va ularga axloqiy fazilatlarini tushuntirganda uning afzalliklarini ko'rsatuvchi dalillar keltirishi, isbotlashi, ishontirishi lozim.

Ko'r va ko'zi ojiz bolaning hayoti va kundalik faoliyati ko'pqirrali. U fazoda mo'ljal olish, atrof va olamni idrok etish, o'z-o'zini boshqara olish kabilar bilan bog'liq. Bu esa boladan chidamni, diqqatni, tezkor fikrlashni, kuchli xotira va bir qator xususiyatlarni talab etadi. Ba'zida ushbu talablar ko'r va zaif ko'ruvchi bolaning psixologik va fiziologik imkoniyatlaridan ustun bo'ladi. Bu ustunliklar ko'r va zaif ko'ruvchi bolaning qattiq asbiylashishiga va kasallikning yanada avj olishiga sabab bo'lishi mumkin. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni to'g'ri tarbiyalashda yuqoridagilarga e'tibor berish darkor.

Tarbiya berishda aniq va samarali usul va uslublardan foydalanib, tarbiya ishlarini tashkillashtirish natijasidagina, ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar shaxs sifatida kamol topadi. Ko'rish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar tarbiyasi quyidagilardan iborat:

- * estetik tarbiya;
- * jismoniy tarbiya;
- * mehnat tarbiyasi;
- * axloqiy tarbiya.

Estetik tarbiya

Estetik tarbiya – insonni har tomonlama tarbiyalashning muhim qirralaridan biri bo'lib hisoblanadi. Estetik tarbiya borliqqa (hayotga), mehnatga, tabiatga, san'atga munosabatini shakllantirish his-tuyg'usini tarbiyalash demakdir. Estetik tarbiya shunday kuchga egaki, san'at asarlaridagi (badiiy tasviriy) tasvirlangan syujet, hodisa, idrok etishning tasavvurida, xayolida, kechinmalarda estetik hissiyotidan qayta ishlanib, ularning o'z tajribasiga aylanadi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, ular jismoniy va aqliy faoliyatning o'yin, o'quv va mehnat kabi huquqlaridan sog'lom tengqurlaridek o'zlarini ko'rsata olmagaliklari uchun qobiliyatlari va kuchlarini o'z

imkoniyatlari doirasidagi malaka va ko'nikmalarni egallashga sarflaydilar. natijada aynan o'sha sohada yuqori natijalarga erishadilar.

Masalan, san'at sohasida va adabiyot sohasida o'z o'rnini egallagan shaxslar mavjud. Ko'rish va eshitishda nuqsoni bo'lgan Olga Skoroxodovaning atrof-olamni qanday idrok etishiga, qanday tasavvur etaishiga, tushuntirishga bag'ishlangan bebaho ilmiy asarlari maxsus ta'limda keng foydalanib kelinmoqda. Balerina Lina Po 21 yoshida ko'rish qobiliyatini yo'qotadi. Lina o'zining iste'dodi va maqsad sari intilishlari tufayli taniqli haykaltarosh bo'lib etishdi. Lina A.S.Pushkin, A.P.Chexovlarning portretlarini yaratdi. Lina Poning san'at asarlarining soni 100 taga etgan.

Jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiya – salomatlikni mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirish, mehnatga, hayotga tayyorlash, ko'r va ko'zi zaiflarning shaxs sifatida kamol topishida birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash va kompensasiyalash vositalaridan biridir. Jismoniy tarbiya ko'r bolalarni har tomonlama tarbiyalashda harakatlanish, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda jismoniy tayyorgarlikka izchillik qobiliyatini oshirishda yetakchi o'rin egallaydi.

Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni jismoniy rivojlantirishning asosiy vazifasi: harakat kamchiliklarini korreksiyalashdan iborat. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda: tananing bo'yi hamda og'irligi, kamchiliklar, ko'krak kengligi va boshqa antropometrik ko'rsatkichlarning orqada qolishlari ushraydi.

Aksariyat bolalarda tayanch harakat apparatlaridagi kamchiliklar kuzatiladi. Ko'ruv organining kamchiligi va buzilishi bolalarda harakat qobiliyatlarining shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Harakatlanish qobiliyatlariga: kuchlilik, shaqqonlik, shidamlilik, koordinasiya mushtarakligi kabilar kiradi. Boladagi fazodan qo'rqish hissi bolani juda kam harakatlanishga majburlab, xatto ta'bir joiz bo'lsa, «O'troq» qilib qo'yadi. Oqibatda uning qiziquvchanligi, izlanuvchanligi so'nadi.

Nima qilmoq kerak? Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda jismoniy ta'lim berish jarayonida bolalarning yosh xususiyatlari va yakka imkoniyatlariga, ko'ruv organining buzilish xarakteri va klinik shakllariga, rivojlanishning nuqsonlariga katta e'tibor bermoq zarur.

Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda jismoniy tarbiya berish tizimiga quyidagilar kiradi:

1) jismoniy sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar (kundalik faoliyat davomida), (ertalabki gimnastika, sayr o'yinlari va boshqalar);

2) maxsus jismoniy tarbiya mashg'ulotlari;

3) guruhdan tashqari jismoniy tarbiya.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning barchasi o'z kasalliklarini klinik shakliga, qobiliyatidan qat'iy nazar quyidagisha mashqlarni bajaradilar:

- saflanish va qayta saflanish;
- predmetli va predmetsiz umumrivojlantiruvchi mashqlar;
- ko'krakni to'g'ri shakllantiruvchi mashqlar;
- muvozanatni saqlash uchun mashqlar;
- ritmik mashqlar;
- bir maromda yugurish va yurish mashqlari;
- emaklash mashqlari;
- kichik hajmli to'plarni otish;
- o'rtacha maromda toza havoda sayr qilishni tashkil etish.

Yo'naltirilgan jismoniy tarbiya va mashg'ulotlar davomida qo'llanilgan korreksion va kompensator ishlar ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning funksional ko'rish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasi

Mehnat – insonning asosiy faoliyatidir. Mehnat tufayli kishi shaxs sifatida shakllanadi. Axloqiy va aqliy qobiliyatlarining o'sishida, albatta, mehnat tarbiyasining o'rni beqiyosdir. Bolalarni mehnatga o'qitish va tarbiyalash natijasida ilk hayotiy ko'nikmalar shakllanadi. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda mehnat tarbiyasi yuqoridagilardan tashqari nosog'lom funk-

siyani korreksiyalash va kompensasiyalashdagi asosiy omil sifatida qaraladi. KNB bolalar MTM hamda maktab-internatda amalga oshiriladigan barcha o'quv-tarbiyaviy ishlarning samaradorligi mehnat tarbiyasiga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning mehnat tarbiyasi. MTMdagi mehnat tarbiyasi, bilish faoliyatidagi kamchiliklarni korreksiyalash, kompensator jarayonni rivojlantirish, estetik tarbiyalash – ko'r va zaif ko'ruvchi bolaning shaxsiy xususiyatini tarbiyalashga qaratildi.

Bu davrda inson tarbiyasining rivojiga katta e'tibor beriladi. Bolalarda sensor malakalarning tanqisligi turli didaktik usullardan foydalanishni taqozo etib keladi. Natijada bolada tasavvurlar yuzaga keladi. Shu o'rinda tabiiy ob'ektlardan foydalanish qo'l keladi. Tabiiy (natural) narsa, buyumni o'rganish jarayoniga tarbiyachi uning tuzilishi, shakli, o'lchovi, kattaligi va boshqa jihatlari bilan tanishtiradi. Sensor malakalarning boyligi, predmetlar bilan tanishishi, mehnat qurollari, ishlanmani ishlash texnologiyasini o'rganish natijasida bolaning tasavvur olami boyib boradi, nutqi o'sadi hamda fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Axloqiy tarbiya deganda shakllanayotgan, rivojlanayotgan, o'sib kelayotgan avlodda xulq-odob me'yorlariga mos keluvchi sifatlarning shakllanishini tushunamiz. Axloqiy tarbiya mohiyati alohida shaxs uchungina emas, balki jamiyatning kelajagi, uning qanday jamiyat bo'lishi uchun ham muhimdir. Axloq - ijtimoiy ong shakli bo'lib, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida insonning xulq-atvorini yo'lga solib turadigan tamoyillar, talablar, me'yorlar va qoidalar yig'indisidan iborat. Axloqiy tushunchalar – yaxshilik, sharaf, vijdon va boshqalar baholanuvchi xarakterga ega. Axloq mazmuni muayyan qadriyat yo'l-yo'riqlarini, xulq-atvor me'yorlarini va motivlarini, insonlararo muomala shakllarini o'z ishiga oladi va ayni vaqtda ularni asoslaydi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni axloqiy tarbiyalash uchun quyidagi asosiy tamoyillarga rioya etish alohida ahamiyatga ega:

- umumiy va yakka xususiyatlarni aniqlash uchun ularni atroflicha o'rganish;

- birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni tahlil etish;
- kuchli, nisbatan saqlangan imkoniyatlarni aniqlash va shunga asoslanib ish olib borish;
- pedagogik jarayonning bolalar nuqsonlarini to'g'rilash va ularning o'rnini to'ldirishga qaratilishi;
- turli toifaning nuqsonlariga alohida munosabatda bo'lish, ayrim bolalarga yakka-asosda yondashish.

Savol va topshiriqlar

1. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasining xususiyatlari haqida aytib bering.
2. Tarbiya jarayonida kompensator va korreksion-rivojlantiruvchi yo'nalishlarni yoritib bering.
3. Tarbiya turlarini aytib bering.
4. Axloqiy tarbiyaning vazifalarini ko'rsating va ularni amalga oshirilishni yoritib bering.
5. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalash bosqichlari xususida so'zlab bering.
6. Jismoniy tarbiyaning vazifalari va mazmuni nimalardan iborat?
7. Estetik tarbiyaning vazifalari va mazmuni nimalardan iborat.

§23. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash tizimi

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalari qoshida guruhlar va maktab-internatlar qoshidagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun bog'chalar ochilgan:

- bolalar bog'chalari, yasli bog'chalar va ko'r bolalar uchun oshilgan maktabgacha yoshdagi bolalar guruhleri;
- bolalar bog'chasi, yasli-bog'chalar va zaif ko'ruvchi bolalar uchun guruhlar;
- bolalar bog'chalari, yasli bog'chalar, g'ilyalik va ambliopiya kasalligiga duchor bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar guruhleri.

Hozirgi kunda maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarining aralash turlari mavjud bo'lib, bu erda asosan g'ilyalik va

ambliopiyaga duchor bo'lgan bolalar, qaysidir darajada zaif ko'ruvchi va ko'r bolalar tarbiyalanadilar.

Bunday muassasalarning maqsadi – ko'rish imkoniyatini tiklashni ta'minlovchi davolash va uning holatining yomonlashuvidan xabardor qilish, shuningdek erta yuzaga keladigan ko'z kasalligi patologiyalarini, o'qitish va tarbiyalash jarayonida korreksion-kompensator sharoitlar yaratish, bilish faoliyatidagi, jismoniy nuqsonlarni va ba'zi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda kuzatiladigan asosiy shaxsiy sifatlarni bartaraf etish va yumshatishdir.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarning shaxsiy sifatlari, harakat sohalari, ularni bilish faoliyatlari, xususiyatlari va rivojlanishining o'ziga xosligini hisobga olib tuzilgan maxsus dastur asosida ishlaydi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda ko'ruv nuqsoni xarakteri va darajasini hisobga olgan holda ularni har tomonlama korreksiyalash va kompensasiyalashga yo'naltirilgan bolalar bog'chasida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda 10 ta ko'r va zaif ko'ruvchi bolalardan iborat yoki g'ilyalik ambliopiyali 10-12 nafar boladan iborat guruhlardagi mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar o'yin xarakterida bo'ladi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi, ko'r va zaif ko'ruvchi, g'ilyay va ambliopiyali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlovchi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi umumiy va maxsus vazifalarni hal etishga qaratilgan. Maxsus dastur umumta'lim bog'chalarining dasturi asosida tuzilgan shu bilan bir qatorda ko'ruv idroki va predmetli tasavvurni shakllantirish, ijtimoiy adaptasiya va fazoda mo'ljall olish, anglash, eshituv idrokini rivojlantiruvchi, davolovchi jismoniy tarbiya, ritmika, nutq nuqsonlarini bartaraf etish bo'yicha maxsus bo'limlar kiritilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar xususiyatini, ularning idroki (ko'ruv va anglash), bilish faoliyatlari va kompensator imkoniyatlarini hisobga olgan holda umumdidaktik tamoyillar asosida ish olib boriladi.

Ko'ruv idroki, predmetli tasavvurlar, fazoda mo'ljall olish, nutq kamchiliklarni bartaraf etish, predmetli amaliy faoliyat va boshqalarni korreksiyalashga maxsus metod va usullar qo'llaniladi. O'qitishda muhim o'rinni ko'rgazmalilik egallab, u idrok shart-sharoitiga moslashadi ko'rgazmali illyustrativ materialni, ko'rib idrok etishni korreksiyalashda optik vositalardan keng foydalaniladi. Predmetli tasavvur verbplizimni bartaraf etish va hissiy malakani kengaytirish uchun artofolamni kuzatishlar va ekskursiyalarda maxsus ishlar olib boriladi. Bunda ko'lik va zaif ko'ruvchilikni kompensasiyalovchi vosita sifatida nutq boshqaruvchi muhim rol egallaydi. Predmetli-amaliy faoliyat nuqsonlarni bartaraf etishda, qo'l mehnati bilan bajariladigan vazifalarni, qurish, yasash, applikasiya, rasm chizish va boshqalarda topshiriqlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish metodi qo'llaniladi.

Bolalarni o'qitish va tarbiyalashda kompleks yondashuv natijasida bola faoliyatida atrof-olam va odamlar bilan munosabati shakllanadi.

Bolaning to'g'ri rivojlanishini tashkil qilish uchun ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bog'chalari va maktab internatlari, shuningdek ijtimoiy va oilaviy tarbiya oralarida uzviylik bo'lishi kerak. Pedagogik jarayonda ko'rishni rivojlantirish va faollashtirish va uni saqlash, shuningdek umumiy salomatlikni saqlashda korreksion-tarbiyaviy ish va davolovchi-tiklovchi ish o'rtasidagi uzviylik va aloqa muhim o'rin egallaydi. Bolalar bog'chasi, g'ilyay va ambliopiyali bolalar uchun yasli-bog'chalar, maxsus o'quv-tarbiya muassasalari ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash, o'qitish va davolash uchun mo'ljallangan. G'ilyay va ambliopiyali bolalar uchun maktabgacha muassasalar ta'lim tizimiga kirib, ular ta'lim bo'limi, sog'liqni saqlash bo'limi bilan hamkorlikda ochiladi.

Umumiy pedagogik boshqaruvchilik ta'lim bo'limi orqali, davolashni ta'minlashga javobgarlik sog'liqni saqlash bo'limi orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha muassasa bog'cha-yasli'larga 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

Bolalarni saralash va tibbiy xulosa psixologik-pedagogik komissiya tekshiruvlari asosida amalga oshiriladi.

Tekshirish metodikalari o'zida ma'lum bir yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi darajasini aniqlash imkonini beradigan qator o'yin topshiriqlarni aks ettiradi.

Muassasadan chiqarish, tibbiy psixologo-pedagogik komissiya hujjatiga ko'ra amalga oshiriladi. Maktabgacha muassasaning asosiy maqsadi g'ilay va ambliopiyali bolalarga kompleks yordam ko'rsatishdir.

Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasining o'qitish va tarbiyalash vazifalariga quyidagilar kiradi:

- psixofizik rivojlanish darajasini aniqlash va unga mos o'qitish va tarbiyalash sharoitlarini tashkil etish; umumiy rivojlanish, o'qitish va tarbiyalashni ta'minlash;
- psixofizik rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun korresion shart-sharoitlar yaratish.

O'qitish va tarbiyalash mazmunini vazifalari davolovchi-tarbiyalovchi ishlar talablari va ko'rsatmalarini hisobga oladi. Bollar faoliyatining barcha turlarida ko'ruv funksiyalarini faollashtirish uchun mashqlar ko'zda tutilgan. Ko'ruv – idrokni rivojlantirish, maxsus korreksion mashg'ulotlarda, shuningdek, o'yin-umumta'lim mashg'ulotlarida va kundalik hayotda amalga oshiriladi.

Ko'ruv idrokini rivojlantirish, fazoda mo'ljal olish, ijtimoiy maishiy mo'ljal olishga o'rgatuvchi korreksion mashg'ulotlar o'qituvchi defektolog (tiflopedagog) tomonidan olib boriladi.

Nutq nuqsonlarini bartaraf etish bo'yicha mashg'ulotlar logoped tomonidan olib boriladi. Bunda leksik, fonetik, grammatik va bog'langan nutqi buzilishi darajasiga ko'ra bir xil bo'lgan bolalar guruhlariga birlashtiriladi. Bundan tashqari, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda harakat doirasida buzilishlar kuzatilgani bois, ular bilan maxsus davolovchi jismoniy tarbiya, ritmika mashg'ulotlari olib boriladi.

Bolalar bog'chasidagi barcha o'quv tarbiyaviy jarayon davolovchi, tiklovchi ishlar talablari asosida o'tkaziladi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun konsultativ guruhlar maktabgacha muassasalarga borolmaydigan bolalar uchun, ko'z va zaif ko'ruvchi bolalarni oilada tarbiyalashda yordam ko'rsatish zaruriti asosida yuzaga keladi.

Bunday guruxlar davlat qaramog'ida, shuningdek ijtimoiy, xususiy va boshqa maktabgacha muassasalarda ochilishi mumkin.

Guruhlariga bolalarni saralash ta'lim tizimida ishlovchi tibbiy-psixolog-pedagogik komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Guruxlarga bolalar birlamchi nuqson (ko'rishdagi nuqsoni) aniqlangan paytdanoq qabul qilinadi.

Bolalar bilan ishlash maktabgacha ta'lim muassasalaridagi kabi, oila sharoitida ham amalga oshiriladi. Konsultativ guruhlarining asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

-maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnamaydigan va kompleks tibbiy-psixologik-pedagogik yordamga muhtoj ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni aniqlash;

-bolaning psixofizik rivojlanshi xususiyatlarining o'ziga xosligi haqidagi ota-onalar bilan suhbatlashish va ota-onalar bilan hamkorlikda bunday bolalarni o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy dasturini ishlab chiqish;

-ota-onalarga ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni oilada o'qitish va tarbiyalash usullari, vositalari va metodlarini o'rgatish;

-tiflopedagog tomonidan olib boriladigan korreksion mashg'ulotlarda ota-onalarning ishtiroki va ular maktabgacha muassasalarida va oila sharoitida yordam ko'rsatish;

-bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida rivojlanish muvaffaqiyatlarini o'rganish va tekshiruv jarayonida bolaning psixofizik rivojlanishi dinamikasini individual xaritasini tuzish. Konsultativ guruhlar bugungi kunda va kelajakda ota-onalar yordam ko'rsatadi oilalar va boshqa muassasalar orasida aloqa o'rnatadilar. Ammo bunday guruhlar endigina faoliyat ko'rsatishni boshladi, shuning uchun ular faoliyatini tartibga soluvchi maxsus nomenklatura aktlari zarur.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash shart-sharoitlari.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar atrof-olamni bevosita ko'rib idrok etishlari chegaralangan, ular alohida ob'ektlarni yaxshi ko'ra olishmaydi (uy, harakatlanayotgan predmetlar, daraxtdagi qushlar, osmondagi samoliotni va hokazolarni). Shuning uchun bolalarga ta'lim jarayonida yaxshi sharoitni ta'minlash uchun quyidagilar zarur:

1) Ko'ruv idrokiga mos keluvchi sharoit yaratish;

2) Ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish;

3) O'qitishning maxsus metodalarini qo'llash va har bir bolaning ko'rish nuqsoni xususiyatlarini hisobga olgan holda korreksion-pedagogik ish olib borish;

4) Bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishda individual yondashish.

Ko'ruv idroki uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur: binoning yetarlicha yoritilishi, bolalarning stol atrofiga qulay joylashishi, ko'rgazmali materialning bolalarni ko'rish darajasi va imkoniyati darajasidagi masofada bo'lishi, ko'rish bosimi vaqtining chegaralanganligi, mashg'ulotlar vaqtida ko'rishni rivojlantiruvchi turli xil korreksion mashqlar tashkil etilishi.

Binoning yetarlicha yoritilishi tushunchasiga quyidagilar kiradi: fonning yorqinligi, yorug'likning ko'ruv maydoni bo'ylab teng tarqalganligi, ko'zni qamashtiruvchi yorug'lik manbaini olib tashlash, shuningdek, keskin va chuqur soyalarni ham, sun'iy yorug'lik spektori manbalarini kundalik yorug'lik spektoriga yaqinlashtirish. Bularning hammasini ko'zda tutish uchun bolalar bog'chalarida SK-300 turdagi yoritgishlar 62 kv, m. xonada 6 ta o'rnatilishi kerak, ularning umumiy elektr quvvati 1800 voltga teng bo'lib, bir kv, m. ga -30 volt dan to'g'ri kelishi kerak. Yoritgishlarning to'g'ri o'rnatilishi (2 qatorga 3 tadan, oraliq masofa 1, 5 metr, qatorlar orasi 3 metr) teng yoritilishini ta'minlaydi. Bolalar o'tirganda ish o'rnining yoritilishini ta'minlash uchun 0, 5 bo'limgan uzoqlikda yorug'lik o'tkazuvchi devor, yorug'lik chap tomondan tuchishini ta'minlash uchun o'rnatiladi. Oynani yuqori qismini beki-

tish, pardalarni oyna shetlariga surib qo'yish tavsiya etilmaydi. Ko'ruv o'tkirligi past bo'lgan bolalarni old qatorga, oynaga yaqin joyga o'tqazish kerak. Mebellar bolalarni bo'ylarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Mashg'ulotlar davomida bolalarni stol atrofida to'g'ri o'tirishini kuzatish muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi doimo bollar ko'zoynaklarini yechmasligini va kichik maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha takrorlaydigan ko'zoynak tepasidan qaramasligini kuzatib turishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda ko'pincha ko'rgazmali metod og'zaki metod bilan birga qo'llaniladi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ko'rish funksiyalarining turlicha buzilganligi sababli, ko'rgazmali materiallarni qo'llash va uni ko'rsatishga maxsus talablar qo'yiladi. Frontal tarzda barcha bolalarga bir vaqtda ko'rsatiladigan predmetlar va ob'ektlar ko'ruv idroki uchun qulay bo'lgan masofaga joylashtiriladi. Tarbiyachi boladan undan nima so'ralayotganligini ko'rayotganligiga ishonch hosil qilmaguncha savol bermasligi kerak. Rasmlarni ko'rish vaqtida bolalar unga yaqin borishlari, unda nima tasvirlanganligini ko'rishlari kerak, shu bilan birga bunda tarbiyachi bolalar diqqatini rasmdagi asosiy va ikkinchi darajaga qaratishi, bolalarda mazmunni halol tahlil qilishni uyg'otishi kerak. Shu narsani xisobga olish kerakki, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarga predmetlarni ko'rib chiqish va ularga xos belgilarni ajratish uchun ko'p vaqt ketadi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyachilar bolalar tomonidan atrof-olamni to'laqonli anglashlari uchun imkoniyat yaratishlari lozim. Bolalar to'qnash keladigan barcha predmetlar ular tomonidan har tomonlama tekshirilishi kerak. Individual illyustrativ materiallar, o'yinchoqlar, rasmlar va boshqa predmetlarni bolalar 30-35 sm uzoqlikda ko'rishlari kerak. Bunday masofa ko'ruv ishlari uchun optimal hisoblanadi. Rasm chizishda, molbertlardan to'g'ri foydalanishda illyustrasiyalarni yaxshi ko'rishlari uchun stol ustiga kitob uchun maxsus taglik qo'yish kerak. Bu bolani stolga egilmasdan ishlashini ta'minlaydi. Doska to'q yashil ranga bo'yalgan bo'lishi va xira bo'lmasligi kerak. Bo'r yumshoq va yaxshi

sifatli bo'lishi kerak, rangli bo'rlardan foydalansa bo'ladi. Amaliy faoliyatlarni (qirg'ish, yasash, chizish, qurish-yasash va xokazolar) tarbiyachi bolalarni oldiga kelishiga, ishni qanday bajarishni ko'rishiga ruxsat beradi. Ko'ruv idrokini yaxshilash va tez charchashning oldini olish uchun zaruriyat tug'ilganda ko'rsatilayotgan material va fon uyg'unligini hisobga olish kerak. Ko'rsatish vaqtida ko'ruv maydonidan ortiqcha ob'ektlarni olib tashlash kerak. Agar ish ko'zga yaqin masofada 5-7 daqiqa davom etsa, ko'z sharchog'ini yozish uchun jismoniy mashqlar o'tkazish zarur.

Savol va topshiriqlar

1. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun qanday maxsus muassasalar mavjud?
2. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar guruhlarida bolalar soni nechtagacha bo'lishi lozim?
3. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash dasturi qanday maxsus bo'limlardan iborat?
4. Maxsus muassasalarga bolalar necha yoshdan qabul qilinadi?
5. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasining o'qitish va tarbiyalash vazifalari nimalardan iborat?
6. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ochiladigan konsultativ guruhlar haqida aytib bering.
7. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash shart-sharoitlari haqida aytib bering.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ådi àei à Å.Ï ., ßeóí eí Å.À., «Ï ñí î âû òèòeî î áääãî àèèè»-2000 ä.
2. Ådi àei à Å.Ï ., «Ï áó÷áí eà ñeäí ûõ è ñeäáí àèäyùèò øeî eüí èèí à»-1989 ä.
3. Ñí áöèàèüí äy äí øeî eüí äy î áääãî àèèè. (Ï î ä ðää. Å.Å.Ñòäááèèäí é). Ï î ñeäà. Àèäääí èy, 2002.
4. Ñí áöèàèüí äy äí øeî eüí äy î áääãî àèèè è î ñèxí eí àèy. (Ï î ä î áùàé ðääèèèèèè è çañèóæáí í î äí ðääí oí èèà âûñøáé øeî eü ðí ññèèñèí é Óäääðàèèè, î ðí óaññí ðà Å.Ë.Ñàèèääðñòí àà). Ï î ñeäà. Àèääí ñ. 2001 äí ä.

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Kirish..... | 3 |
| I bob. Maktabgacha maxsus pedagogikaning umumiy masalalari | 5 |
| §1. Maktabgacha maxsus pedagogikaning ob'ekti, predmeti va vazifalari | 5 |
| §2. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning asosiy toifalari | 9 |
| II bob. Maktabgacha yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash..... | 11 |
| §3. Maktabgacha oligofrenopedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari..... | 11 |
| §4. Aqli zaiflik darajalari..... | 17 |
| §5. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning rivojlanish xususiyatlari..... | 22 |
| §6. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni maxsus maktabgacha muassasalarga saralash | 29 |
| §7. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni tarbiyalash. Jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya..... | 31 |
| III bob. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash..... | 45 |
| §8. Maktabgacha surdopedagogika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari..... | 45 |
| §9. Maktabgacha surdopedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi | 48 |
| §10. Maktabgacha surdopedagogika fanining metodlari..... | 53 |
| §11. Surdopedagog va tarbiyachi shaxsi | 57 |
| §12. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik tavsifi | 59 |
| §13. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash | 67 |
| §14. Eshtitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni normal eshituvchi bolalar jamoasiga uyg'unlashtirish | 76 |
| IV bob. Maktabgacha yoshdagi nutqida kamshiligi bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash..... | 81 |
| §14. Logopediya fanining maqsadi, vazifalari va ob'ekti..... | 81 |
| §15. Logopediya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Logopediya fanining tushuncha va atamalari | 82 |
| §16. Logoped shaxsi..... | 86 |

| | |
|--|-----|
| §17. Nutqning buzilish sabablari..... | 88 |
| §18. Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlari..... | 91 |
| §19. Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bor bolalarga logopedik yordamni tashkil etish..... | 94 |
| V bob. Maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash..... | 104 |
| §20. Maktabgacha tiflopedagogika fanining maqsadi, vazifalari, predmeti va obyekt..... | 104 |
| §21. Maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tavsifi | 106 |
| §22. Maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasi. | 113 |
| §23. Maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash tizimi | 119 |

UDK 37 (075)

KBK 74.3

MAXSUS PEDAGOGIKA

«NOSHIR» — Òshkent — 2016

| | |
|------------------------|----------------|
| Muharrir | M.Axmedov |
| Òexnik muharrir | D.Mamadaliyeva |
| Rassom | Sh.Odilov |
| Musahhih | S.Safayeva |
| Sahifalovchi | D.Jalilov |

Nashriyot litsenziyasi AI ¹ 254, 31.12.2014-y.

Bosishga ruxsat etildi 29.08.2016-y. Bichimi 60x84 ¹/₁₆.

«Times» garniturası. Ofset qog'ozı. Ofset usulida chop etildi.

Hajmi 8,0 b.t. Adadi 464 nusxa. Buyurtma ¹ 27.

«NOSHIR» nashriyoti, Òoshkent sh., Langar ko'chasi, 78.

«NOSHIR» O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi, Òoshkent sh., Langar ko'chasi, 78.